

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**



F.A. DJALILOV, A.J. XO‘JAMURODOV

**XORIJIY MAMLAKATLARNING
MONOPOLIYAGA QARSHI
SIYOSATI**

O‘quv qo‘llanma

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi
Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan 5231900-Korporativ boshqaruv
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar
uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – «IQTISODIYOT» – 2019

UO‘K: 347.214.21(075)

КБК 67.404.1

Djalilov F.A., Xo`jamurodov A.J. Xorijiy mamlakatlarning monopoliyaga qarshi siyosati. O`quv qo`llanma. - T.: « IQTISODIYOT », 2019. - 122 bet.

Мазкур ўқув қўлланма бакалавриятнинг 5231900 “Корпоратив бошқарув” йўналиши талабаларига мўлжалланган бўлиб, хорижий мамлакатларда monopoliyaga qarshi boshqaruvning tashkiliy va ҳуқуқий asoslari, monopol bozorning xususiyatlari ёритиб берилан. Хусусан, МДХ доирасида Козогистон ва Россия Федерацияси ва осиё мамлакатлари монополия бозори va uni tartibga solish тажрибаси ўрганилган.

Данное учебное пособие предусмотрено студентам направления 5231900 “Корпоративное управление”. В учебном пособии представлены организационно-правовые основы и особенности антимонопольного управления в зарубежных странах. Подробно изучено опыт антимонопольного регулирования стран СНГ в частности Российской Федерации и Казахстана, зарубежные страны и страны Восточной Азии.

This tutorial is provided for students in the direction 5231900 "Corporate Governance". The training manual presents the legal framework and features of anti-monopoly management in foreign countries. The experience of antitrust regulation of the CIS countries in particular the Russian Federation and Kazakhstan, foreign countries and countries of East Asia is studied in detail.

ISBN 978-9943-6004-1-6

UO‘K: 347.214.21(075)

КБК 67.404.1

© «IQTISODIYOT», 2019.

© Djalilov F.A., Xo`jamurodov A.J., 2019.

MUNDARIJA

KIRISH.....	9
1-bob. “XORIJIY MAMLAKATLARNING MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATI” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.....	11
1.1. Monopoliyaga qarshi siyosatni haqida tushuncha	
1.2. Monopoliyaga qarshi faoliyatning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.	
1.3. Monopoliyaga qarshi faoliyatning vazifalari.	
1.4. Monopoliyaga qarshi faoliyatning obyekti va subyekti.	
2-bob. MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUVNING TASHKILY ASOSLARI.....	15
2.1. O‘zbekiston Respublikasida monopoliyaga qarshi kurashishi faoliyatini tashkil qilinishi	
2.2. Tarmoqlarni monopoliyadan chiqarish bosqichlari	
2.3. Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, raqobat muhitini rivojlantirish vositalari	
2.4. O‘zbekiston Respublikasida monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyat yo‘nalishlari	
3-bob. MONOPOL BOZORNING XUSUSIYATLARI.....	28
3.1. Monopoliya tushunchasi, uning turlari va kelib chiqishi sabablari.	
3.2. Erkin raqobat.	
3.3. Monopoliya. Oligopoliya.	
3.4. Monopolistik raqobat. Bozor iqtisodiyotida raqobatning o‘rni.	
4-bob. XORIJIY MAMLAKATLARDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNING HUQUQIY ASOSLARI.....	35
4.1. Monopoliyani tartibga soluvchi dastlabki qonunchilikning vujudga kelishi va takomillashuvi	
4.2. Yevropa Ittifoqida monopoliyani tartibga soluvchi huquqiy asoslar	
4.3. Sharqiy Osiyo davlatlarida monopoliyani tartibga soluvchi qonunchilik tahlili.	
4.4. MDH davlatlarida monopoliyani tartibga solish va raqobat muhitini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy asoslarning shakllanishi	
5-bob. IQTISODIY KONSENTRATSIYA VA UNI TARTIBGA SOLISH.....	53
5.1. Iqtisodiy konsentratsiyaning mohiyati	
5.2. Qo‘shib olish va birlashish jarayonlarini tartibga solish	
5.3. Xorijiy davlatlarda iqtisodiy konsentratsiyaning tartibga solish	
6-bob. TABIIY MONOPOLIYANI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING Rossiya Federatsiyasi Tarjribasi.....	66
6.1. Rossiya iqtisodiyotida tabiiy monopoliyalarning o‘rni.	
6.2. Tabiiy monopoliyalarni tartibga solishning samaradorligi.	
6.3. Monopoliyaga qarshi faoliyatni tartibga solishning dunyo bo‘yicha tendensiyalari.	

7-bob. QOZOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MONOPOLIYAGA QARSHI FAOLIYATINI BOSHQARISH TAJRIBASI75

7.1. Qozog‘iston Respublikasining monopoliyaga qarshi qonunchiligi.

7.2. Xo‘jalik subyektlarining monopoliyaga qarshi faoliyatini tartiblashtirish va narx siyosati.

7.3. Qozog‘iston Respublikasida iste‘molchi huquqini himoyalashning qonuniy asoslari.

8-bob. MONOPOLIYAGA QARSHI FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISHNING RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....80

8.1. AQSHda raqobatni qo‘llab- quvvatlash va ishlab chiqarish siyosati.

8.2. AQSHda monopoliyaga qarshi faoliyatni tartibga solishning ilg‘or tajribasi.

8.3. Germaniyada raqobatchilik siyosatini tartibga solish.

8.4. Buyuk Britaniya raqobatchilik siyosatining xususiyatlari.

9-bob. OSIYO MAMLAKATLARINING MONOPOLIYAGA QARSHI FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISH TAJRIBASI.....89

9.1. Yaponiyaning raqobat va ishlab chiqarish siyosati.

9.2. Janubiy Koreyada raqobatni rag‘batlantirishning usulari.

9.3. Yaponiyaning monopoliyaga qarshi qonunchiligi.

9.4. Janubiy Koreyaning monopoliyaga qarshi qonunchiligi.

10-bob. MDH MAMLAKATLARI UMUMIY IQTISODIY MAKONIDA RAQOBAT MUHITINI YARATISH96

10.1. Mustaqil Davlatlarning Xamdo‘stligi mamlakatlari umumiy iqtisodiy makoni: vazifalar va muammolar.

10.2. Hamdo‘stlik mamlakatlarining kelishilgan monopoliyaga qarshi siyosati - raqobat muhitini yaratish omilidir.

10.3. MDH mamlakatlarining monopoliyaga qarshi siyosatining amaliy jihatlari.

11-bob. RAQOBATCHILIKNI TARTIBGA SOLISHNING XALQARO TIZIMINI RIVOJLANISHI.....101

11.1. Gavan Xartiyasi va raqobatchilik muammolari.

11.2. Xalqaro tashkilotlar ishtirokida raqobatchilik usullarining qoidalarini ishlab chiqish.

11.3. GATT/VTO xalqaro tashkilotlari.

11.4. Xalqaro hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.

ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI.....115

СОДЕРЖАНИЕ

Введение

1-Темы. ПРЕДМЕТ И ЗАДАЧИ «АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН»

- 1.1. Понятие антимонопольной политики.
- 1.2. Социально-экономический характер антимонопольной деятельности.
- 1.3. Задачи антимонопольной деятельности.
- 1.4. Объект и предмет антимонопольной деятельности.

2-Темы. Организационные основы антимонопольного управления

- 2.1. Организация антимонопольной деятельности в Республике Узбекистан
- 2.2. Этапы демополизации сетей
- 2.3. Инструменты демополизации экономики, развития конкурентной среды
- 2.4. Направления деятельности Антимонопольного комитета Республики Узбекистан

3-Темы. ОСОБЕННОСТИ МОНОПОЛЬНОГО РЫНКА

- 3.1. Понятие монополии, ее виды и причины.
- 3.2. Свободная конкуренция.
- 3.3. Монополии. Олигополия.
- 3.4. Монополистическая конкуренция. Роль конкуренции в рыночной экономике.

4-Темы. ПРАВОВАЯ ОСНОВА АНТИМОНОПОЛЬНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

- 4.1. Создание и становление законодательства антимонопольного регулирования
- 4.2. Правовые рамки, регулирующие монополию в Европейском Союзе
- 4.3. Анализ законодательства, регулирующего монополию в странах Восточной Азии.
- 4.4. Формирование правовых основ регулирования монополии в странах СНГ и обеспечения конкурентной среды

5- Темы. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ КОНЦЕНТАЦИЯ И РЕГУЛИРОВАНИЕ

- 5.1. Сущность экономической концентрации
- 5.2. Организация процессов слияния и слияния
- 5.3. Регулирование экономической концентрации в зарубежных странах

6-Темы. ОПЫТ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННОЙ МОНОПОЛИИ РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ

- 6.1. Роль естественных монополий в российской экономике.
- 6.2. Эффективность регулирования естественных монополий.
- 6.3. Мировые тенденции регулирования антимонопольной деятельности.

7-Темы. Регулирование антимонопольной деятельности субъектов предпринимательства в Республике Казахстан

7.1. Антимонопольное законодательство Республики Казахстан.

7.2. Антимонопольное регулирование и ценовая политика хозяйствующих субъектов.

7.3. Правовые основы защиты прав потребителей в Республике Казахстан.

8-Темы. Опыт развивающихся стран по регулированию антимонопольной деятельности

8.1. Поддержка конкуренции и производственная политика в США.

8.2. Лучшие практики антимонопольного регулирования США.

8.3. Регулирование конкурентной политики в Германии.

8.4. Особенности конкурентной политики Великобритании.

9- Темы. Опыт азиатских стран антимонопольного регулирования

9.1. Конкурентная и производственная политика Японии.

9.2. Способы стимулирования конкуренции в Южной Корее.

9.3. Антимонопольное законодательство Японии.

9.4. Антимонопольное законодательство Южной Кореи.

10-Темы. Создание единой конкурентной среды в Едином экономическом пространстве Содружества Независимых Государств

10.1. Общее экономическое пространство Содружества Независимых Государств: вызовы и вызовы.

10.2. Скоординированная антимонопольная политика стран-партнеров является фактором создания конкурентной среды.

10.3. Практические аспекты антимонопольной политики стран СНГ.

11-Темы. РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ СИСТЕМЫ КОНКУРЕНЦИИ

11.1. Гаванская хартия и проблемы конкуренции.

11.2. Разработка правил конкурентных методов с участием международных организаций.

11.3. Международные организации ГАТТ / ВТО.

11.4. Тенденции и перспективы развития международного сотрудничества.

CONTENT

Record

1-Themes. SUBJECT AND OBJECTIVES OF ANTITRUST POLICY OF FOREIGN COUNTRIES

- 1.1. The concept of antitrust policy.
- 1.2. The socio-economic nature of antitrust activities.
- 1.3. Tasks of antitrust activities.
- 1.4. Object and subject of antitrust activity.

2-Themes. Organizational Foundations of Antitrust Management

- 2.1. Organization of antitrust activities in the Republic of Uzbekistan
- 2.2. Stages of network demonopolization
- 2.3. Tools for demonopolizing the economy, developing a competitive environment
- 2.4. Areas of activity of the Antimonopoly Committee of the Republic of Uzbekistan

3-Themes. CHARACTERISTICS OF THE MONOPOLY MARKET

- 3.1. The concept of monopoly, its types and causes.
- 3.2. Free competition.
- 3.3. Monopolies. Oligopoly.
- 3.4. Monopolistic competition. The role of competition in a market economy.

4-Themes. LEGAL BASIS OF ANTIMONOPOLY REGULATION IN FOREIGN COUNTRIES

- 4.1. Creation and establishment of antitrust regulation legislation
- 4.2. Legal framework governing monopoly in the European Union
- 4.3. Analysis of the legislation governing monopoly in East Asian countries.
- 4.4. Formation of the legal framework for the regulation of monopolies in the CIS countries and ensuring a competitive environment

5- Themes. ECONOMIC CONCENTRATION AND REGULATION

- 5.1. The essence of economic concentration
- 5.2. Organization of merger and merger processes
- 5.3. Regulation of economic concentration in foreign countries

6-Themes. EXPERIENCE OF STATE REGULATION OF THE NATURAL MONOPOLY OF THE RUSSIAN FEDERATION

- 6.1. The role of natural monopolies in the Russian economy.
- 6.2. Efficiency of regulation of natural monopolies.
- 6.3. Global trends in antitrust regulation.

7-Themes. Regulation of antitrust activities of business entities in the Republic of Kazakhstan

- 7.1. Antimonopoly legislation of the Republic of Kazakhstan.
- 7.2. Antitrust regulation and pricing policies of business entities.

7.3. Legal framework for consumer protection in the Republic of Kazakhstan.

8-Themes. Developing countries experience in antitrust regulation

8.1. Supporting competition and manufacturing policies in the USA.

8.2. The best practices of antitrust regulation in the USA.

8.3. Regulation of competition policy in Germany.

8.4. Features of the UK competition policy.

9- Themes. Experience of Asian countries of antitrust regulation

9.1. Competitive and production policy of Japan.

9.2. Ways to stimulate competition in South Korea.

9.3. Antitrust laws of Japan.

9.4. Antitrust laws of South Korea.

10-Themes. Creation of a single competitive environment in the Common Economic Space of the Commonwealth of Independent States

10.1. Common economic space of the Commonwealth of Independent States: challenges and challenges.

10.2. Coordinated antitrust policy of partner countries is a factor in creating a competitive environment.

10.3. Practical aspects of antitrust policy of the CIS countries.

11-Themes. DEVELOPMENT OF THE INTERNATIONAL COMPETITION SYSTEM

11.1. Havana Charter and Competition Issues.

11.2. Development of rules for competitive methods with the participation of international organizations.

11.3. GATT / WTO international organizations.

11.4. Trends and prospects for the development of international cooperation.

KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda, iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va sog'lom raqobat muhitini yaratish zarur asos hisoblanadi.

Aksariyat xorijiy davlatlarda iqtisodiyotni tartibga solish tizimining ustuvor yo'nalishi iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash sanaladi. Monopoliyaga qarshi faoliyatning xorijiy tajribasi, uni faoliyatini tartibga solishda davlatning aralashuvi, xususiy va ijtimoiy sektorlar faoliyatini muvofiqlashtirish, milliy va xalqaro iqtisodiyot miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimotining mutanosib rivojlanishini ta'minlashda dolzarb hisoblanadi. Shu bois, barqaror iqtisodiy taraqqiyotni tashkil etish va bozor muvozanatiga erishishda, jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini oqilona qondirish darajasini oshirish vazifalarini hal etishda milliy iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi siyosatini takomillashtirish zaruriyati ortmoqda.

Mazkur fan doirasida monopoliyalar faoliyatini tartibga solishning qoida va xulosalarini puxta o'zlashtirish hamda ijodiy yondashuvni ta'minlash talab etiladi. Unda xorijiy mamlakatlarning monopoliyaga qarshi siyosatining maqsadi va vazifalari, monopoliyaga qarshi boshqaruvning tashkiliy-huquqiy asoslari, xorijiy mamlakatlarning iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar sharoitida monopoliyaga qarshi boshqaruvning asosiy yo'nalishlari, monopoliyaga qarshi boshqaruv muhitining holati, uning shakllanishi va rivojlanishning asosiy belgilari, tabiiy monopoliya subyektlari va ular faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, tabiiy monopoliya korxonalari faoliyatini nazorat qilish, monopoliyaga qarshi boshqaruv organ vakolatlari, monopoliyaga qarshi samarali boshqaruvda axborot bilan ta'minlash kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Ushbu fanni o'qitishdan maqsad –xorijiy mamlakatlarning monopoliyaga qarshi siyosatini nazariy asoslarini keng o'rganish, unga ta'sir qiluvchi omillarni baholash, va iqtisodiy negizlarini asoslash hamda kengaytirilgan tahlili bo'yicha talabalar bilimini ma'lum darajada takomillashtirishdan iborat.

Fanning vazifalari – xorijiy mamlakatlarning monopoliyaga qarshi siyosatini mohiyati, tarkibi va asosiy tushunchalarini izohlash, korxonalarni narx siyosati va strategiyasi, monopoliyaga qarshi siyosatni tartibga solishning usullari va unga ta'sir qiluvchi omillar, monopoliya turlari va uning boshqarish siyosati, monopoliyaga qarshi faoliyatni asosiy yo'nalishlarni tahlil etish, monopoliya bozorida narx diskriminatsiyasi, raqobatchilikni tartibga solish xalqaro tizimining rivojlanishi, monopoliyaga qarshi siyosatni xorijiy tajribasining samaradorligi va ularning asosiy ko'rsatkichlarini tahlil etishdan iborat.

“Xorijiy mamlakatlarning monopoliyaga qarshi siyosati” fani “Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash”, “Raqobat siyosati” va boshqa fanlarni o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

“Xorijiy mamlakatlarning monopoliyaga qarshi siyosati” fani monopoliyaga qarshi faoliyatni tartibga solish imkoniyatlarini kengaytirish, raqobat, ishlab chiqarish (xizmat)ni rivojlantirish bo'yicha maqsadga erishish strategiyasining yangi yo'nalishlarini o'zlashtirish, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish, hamda ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

1-bob. “XORIJIY MAMLAKATLARNING MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATI” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

- 1.1. Monopoliyaga qarshi siyosatni haqida tushuncha.
- 1.2. Monopoliyaga qarshi faoliyatning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.
- 1.3. Monopoliyaga qarshi faoliyatning vazifalari.
- 1.4. Monopoliyaga qarshi faoliyatning obyekti va subyekti.

Monopoliyaga qarshi faoliyatning xorijiy tajribasi, uni faoliyatini tartibga solishda davlatning aralashuvi xususiy va ijtimoiy sektorlar faoliyatini muvofiqlashtirish, milliy va xalqaro iqtisodiyot miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimotining mutanosib rivojlanishini ta'minlashda dolzarb hisoblanadi. SHular bois, barqaror iqtisodiy taraqqiyotni tashkil etish va bozor muvozanatiga erishishda, jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini oqilona qondirish darajasini oshirish vazifalarini hal etishda milliy iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi siyosatni takomillashtirish zaruriyati ortmoqda.

“Xorijiy mamlakatlarning monopoliyaga qarshi siyosati” fanini o'qitishdan maqsad - iqtisodiy munosabatlarni modernizatsiyalash sharoitida xorijiy mamlakatalarning monopoliyaga qarshi siyosatini nazariy asoslarini keng o'rganish, unga ta'sir qiluvchi omillarni baholash, va iqtisodiy negizlarini asoslash hamda kengaytirilgan tahlili bo'yicha talabalar bilimini ma'lum darajada takomillashtirishdan iborat. Fanning vazifasi - xorijiy mamlakatlarning monopoliyaga qarshi siyosatini mohiyati, tarkibi va asosiy tushunchalarini izohlash, korxonalarni narh siyosati va strategiyasi, monopoliyaga qarshi siyosatni tartibga solishning usullari va unga ta'sir qiluvchi omillar, monopoliya turlari va uning boshqarish siyosati, monopoliyaga qarshi faoliyatni asosiy yo'nalishlarni tahlil etish, monopoliya bozorida narh diskriminatsiyasi, raqobatchilikni tartibga solish xalqaro tizimining rivojlanishi, monopoliyaga qarshi siyosatni horijiy tajribasining samaradorligi va ularning asosiy ko'rsatkichlarini tahlil etishdan iboratdir.

YUridik nuqtai-nazardan, monopoliyaga qarshi siyosat – bu davlatning ishlab chiqarishni monopollashuviga qarshi hamda tovar ishlab chiqaruvchilar orasida

raqobatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari (tegishli qonunchilik va soliqqa tortish tizimi, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish va h.k.) majmui.

Monopoliyaga qarshi siyosat – bu davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar (tegishli qonunchilikni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga kiritish, soliqqa tortish tizimi, mulkni denatsionalizatsiya qilish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, kichik korxonalar yaratilishini qo'llab-quvvatlash va b.) majmui bo'lib, ular trestlarga qarshi qonunchilikka va insofsiz raqobatni oldini olish borasidagi qonunchilikka tayanadi, shuningdek raqobatni rivojlantirish, bozor munosabatlari ishtirokchilarining monopol faoliyatiga hamda bozorda monopoliyalarning hosil bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Monopoliyaga qarshi siyosat – bu ichki bozorning monopollashuvini cheklashga va iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarishga yo'naltirilgan qonunchilik, iqtisodiy va ma'muriy hujjatlar majmui. Monopoliyaga qarshi siyosat iqtisodiyotda monopoliyalarni yuzaga kelishi va rivojlanishini oldini olish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashi lozim. Monopoliyaga qarshi siyosat dastlab Kanada hamda AQSHda ishlab chiqilgan va amalda qo'llanilgan. Monopoliyaga qarshi siyosatning ayrim ko'rinishlari qadimdan mavjud bo'lgan. Monopoliyaga qarshi siyosatning ayrim ko'rinishlari Rim imperiyasida yuritilgan.

Monopoliyani tartibga solish borasida dastlabki iqtisodiy qarashlardan biri Adam Smit tomonidan amalga oshirildi. Monopoliya jismoniy shaxsga yoki savdo kompaniyasiga savdo yoki ishlab chiqarishi siri bo'lgani kabi ta'sir ko'rsatadi. Monopolistlar o'z mahsulotlarini har doim yuqori baholarda sotadi. U o'zining "Millatlar boyligi" nomli asarida (1776 yil) kartellar muammosini ko'rsatib bergan, biroq ularga nisbatan huquqiy kurashni olib bormagan. Shuningdek Smit nafaqat dominant korporatsiyalar balki korporatsiyalar mavjudligini inkor etgan.

Monopoliyani tartibga soluvchi nazariyalar tahlili uni dastlab AQSH va Kanada davlatlarida paydo bo'lganligini ko'rsatadi. AQSHda fuqarolar urushidan so'ng iqtisodiyotni transformatsiyasini (tarkibiy o'zgarishlar) amalga oshirishda

monopoliyani tartibga solish vujudga kelgan. O'sha yillarda AQSH sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shildi. 1869 yilda dastlabki transkontinental temir yo'li qurilishi tugallanib ishga tushirildi. 1900 yilga kelib AQSHdagi temir yo'llar uzunligi jihatidan Yevropani ortda qoldirdi. Muvaffaqiyatli biznesni yo'lga qo'ygan tadbirkorlar katta miqdordagi boylikka ega bo'lishdi. «Standart oyl» neft kompaniyasi egasi Djon Rokfeller Amerikaning eng boy kishilaridan biriga aylandi. SHotlandiyalik emigrant Endryu Karnegi yirik po'lat metallurgiya zavodlari tarmog'ini tashkil qildi. Mamlakatda shuningdek to'qimachilik fabrikalari, oziq – ovqat (konserva) sanoati korxonalari, elektr energiya sanoati rivojlandi. Amerikaliklar tomonidan yangi ixtirolar – telefon, elektr lampasi, grammofon, transformator hamda kinematografiya tezlik bilan o'zlashtirildi.

SHu bilan birga bunday rivojlanish iqtisodiyot uchun ma'lum xatarlarni keltirib chiqardi. Raqobatni cheklash maqsadida aksariyat temir yo'l egalari birlashdi va umumiy tariflarini o'rnatdi. SHuningdek, sanoatning ayrim tarmoqlarida, xususan neft qazib chiqarishda monopoliyani o'rnatish maqsadida yirik korporatsiyalar birlashib trestlar tashkil qildi. Natijada ularda xizmatlar va tovarlarni arzon bahoda sotish imkoni paydo bo'ldi. Trestlar narxlarni pasaytirib o'z raqobatchilarini yo'q qilish(sindirish) ishlarini amalga oshirdi. Dastlabki monopoliyani tartibga solish bo'yicha qonun AQSHning Missuri shtatida 1880 yillarda qabul qilingan. Bu qonun qabul qilinishda asosiy rolni fermerlar o'ynadi. O'sha davrda fermerlar o'zaro uyushib yirik fermerlar va er egalarni paydo bo'lishi va ularni bozordagi ulushi ortishi raqobat muhitiga zarar etkazayotganini takidlangan. Biroq, 1889 yilga kelib, ishlab chiqarish hajmi kamayib narxlar ko'tarilish o'rniga buning teskari holati kuzatilgan. Masalan, o'sha yili bug'doy narxi avvvalgi o'n yilga nisbatan 35 foizga, cho'chqa 19 foizga, mol go'shti 39 foizga arzonlashdi. AQSHda chorva mollari soni 1880 yillarda 50 foizga ko'paydi.

1878 yilda Standart Oyl kompaniyasi neftni qayta ishlash sanoat tarmog'ini 85-90 foizini o'z qo'liga oladi. Aksariyat ushbu sohada faoliyat yurituvchi kompaniyalar Standart Oyl kompaniyasiga qo'shilishga majbur qilindi yoki yo'q qilindi (sindirildi). 1882 yilda Standart Oyl kompaniyasi asoschisi Djon Rokfeller shu tarmoqda faoliyat

ko'rsatuvchi 40 ta korporatsiyani birlashtirib Standart Oyl Trast kompaniyasini tashkil qiladi hamda shu orqali neft sanoatini to'liq nazorat qilish imkoni yaratiladi. Rokfeller turli transport kompaniyalari o'rtasidagi raqobatdan qanday foydalanish yo'lini topdi va ushbu holat unga raqobat ustunligini yaratdi.

Monopoliyaga qarshi siyosat dastlab shu kompaniyaga qarshi ishlab chiqildi va amalda qo'llanildi. Bunday siyosat trestlarga qarshi qonunchilik (1890 yilda AQSHda "SHerman Qonuni" deb nomlangan monopoliyaga qarshi birinchi qonun qabul qilingan) doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik esa ushbu qonun sanoati rivojlangan barcha mamlakatlarda qo'llanila boshlangan.

Monopoliyaga qarshi siyosat – bu davlatning monopoliyalar paydo bo'lishini, qo'shilish va birlashtirib olish harakatlarni, kartellar tashkil etilishini, narx hokimligini, raqobatga qarshi qilinayotgan harakatlarni cheklash va tartibga solishga yo'naltirilgan siyosati.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Monopoliyaga qarshi siyosatni qanday tushunasiz?
2. Monopoliyaga qarshi faoliyatning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini izohlab bering.
3. Monopoliyaga qarshi faoliyatning qanday vazifalari mavjud?
4. Monopoliyaga qarshi faoliyatning obyekti va subyekti nimadan iborat?

2-bob. MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUVNING TASHKILIY ASOSLARI

2.1. O‘zbekiston Respublikasida monopoliyaga qarshi kurashishi faoliyatini tashkil qilinishi

2.2. Tarmoqlarni monopoliyadan chiqarish bosqichlari

2.3. Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, raqobat muhitini rivojlantirish vositalari

2.4. O‘zbekiston Respublikasida monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyat yo‘nalishlari

Monopoliyaga qarshi faol choralarni amalga oshirish uchun 1992-yilda O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi organ - Moliya vazirligining Monopoliyaga qarshi va narx siyosati bosh boshqarmasi sifatida tashqil etildi. Boshqarmaga ruyxatga kiritilgan monopoliya mavqeidagi korxonalar mahsuloti bo‘yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turish xuquqi berildi. O‘zbekistonda Monopoliyaga qarshi ko‘rash bo‘yicha dastlabki mustaqil organ 1996 yil 15 martda Moliya vazirligi ho‘zuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi tashqil etildi. 2000 yilda Respublika Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashqil etish to‘grisida»¹gi Farmoniga asosan, Monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligi tarkibidan chiqarildi va mustaqil davlat qo‘mitasiga aylantirildi. Keyinchalik mazkur qo‘mitaning faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 30 apreldagi Farmoniga binoan, u monopoliyadan chiqarish, raqobatni va tadbirkorlikni ko‘llab-kuvvatlash davlat qo‘mitasiga aylantirildi.

«Monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risida»gi (1992- yil 3- avg.) qonunga ko‘ra, narxlarni monopollashtirish, ataylab taqchillik yaratish. Raqobatning g‘irrom usullarini qo‘llash qattiqan man etiladi. "Istemolchilarnint xuquqlarini himoya qilish

¹ Ўзбекистон Республикаси Фармони «Ўзбекистон Республикаси Монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитасини ташқил этиш тўғрисида»2000 йил 14 март

tugʻrisida»gi (1996- yil 26- apr.) qonuniga asosan, gʻirrom raqobatga ioʻl qoʻymaydigan mexanizmni yaratishga alohida eʻtibor berildi «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat tugʻrisida» (1996- yil 11- dek.) qonunida xam sogʻlom raqobat muhitiing huquqiy shart-sharoitlari taminlandi.

Respublikada raqobat muhitini shakllantirish uchun amalga oshirilgan islohotlar va yaratilgan sharoitlar:

- Mulkchilik shakllarining koʻpligi
- Muhim bozor institutlariga asos solinganligi
- Tovar-pul munosabatlari mukammalligi
- Xususiylashtirish orqali davlatning iqtisodiyotidagi ishtiroki kamayganligi
- Davlat monopoliyalarining kamayganligi
- Xususiy tadbirkorlikning yildan yilga iqtisodiyotdagi ulushining koʻpayishi kuzatilayotganligi

O'zbekiston Respublikasida raqobat siyosatining asosiy yo'nalishlari:

- Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish
- Tarmoqlarni monopoliyadan chiqarish
- Institutsional mustahkamlash
- Raqobatni rivojlantirish va bozor qatnashchilari uchun
- teng sharoitlarni ta'minlash
- Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish
- Monopol mahsulotlardan foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratish

Monopoliyani tartibga solishga oid qonun hujjatlari

1. O‘zbekiston Respublikasining «Raqobat to‘g‘risidagi» yangi qonuni (07.01.2012 y)
2. O‘zbekiston Respublikasining «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida»gi qonuni (19.08.1999 y)
3. O‘zbekiston Respublikasining «Reklama to‘g‘risida»gi qonuni (25.12.1998 y)

4. O‘zbekiston Respublikasining «Istemolchilar huquqini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonuni (26.04.1996 y)

5. O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida»gi qonuni (05.05.1994 y).

O‘zbekiston Respublikasining «Raqobat to‘g‘risidagi» yangi qonuni 2012 yil 7 yanvardan kuchga kirdi. Qonunning asosiy yangi normalari:

- Monopoliyaga qarshi tartibga solishni moliya bozorlariga tatbiq etish
- Birja savdolari va tenderlarda raqobatni ta’minlash va monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizmlarini joriy qilish
- Aksiyalarni sotib olish, qo‘shilish va birlashish bitimlarini tartibga solish va nazorat qilish tartib-qoidalarini soddalashtirish bo‘yicha normalarni kiritish
- Yuqori likvidli, jumladan, tovar bozorida ustun mavqega ega korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarning birja savdolari rivojlanishi bilan monopol yuqori narxi tavsifiga yondashuv ham o‘zgardi. Qonunda birja savdolari natijasida vujudga kelgan narx monopol yuqori hisoblanmasligi nazarda tutilgan.

Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish 1990 yillarning boshida islohotlar bozor iqtisodiyotini samarali rivojlanishi, shu jumladan iqtisodiy raqobatni rivojlantirish uchun huquqiy asos va bozor institutlarini yaratishga yo‘naltirildi. Narxlarni erkinlashtirish, davlat korxonalarini xususiylashtirish va ularni xo‘jalik faoliyatini yuritishga moslashtirish, kapital manbalarini o‘zgartirish (markazlashgan subsidiyalash va byudjetdan mablag‘lar ajratish) va fond bozorlarini samarali ishlashini ta’minlandi.

Tarmoqlarni monopoliyadan chiqarish bosqichlari: (1990-yillar)

I – BOSQICH - Bozorlarni monopoliyadan chiqarish va ma’muriy-buyruqbozlik sistemasi va rejalashtirilgan iqtisodiyotdan bosh tortish

II – BOSQICH - Raqobatni va tarmoqlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish

III – BOSQICH - Monopoliyaga qarshi qonunni qabul qilinishi

Monopoliyadan chiqarish natijalari quyidagilar bo‘ldi:

- “Monopolistik faoliyatni cheklash” to‘g‘risidagi qonunni qabul qilinishi 2-iyul 1992- yil

- Monopoliyaga qarshi siyosatni huquqiy, metodologik va axborot asoslarini yaratish

- Monopolistik faoliyatni cheklashni nisbatan barqaror mexanizmini yaratish va raqobat muhitini shakllantirishni boshlash

I-bosqichda erishilgan natijalar quyidagilar bo‘ldi:

- Davlat tomonidan amalga oshirilgan samarali raqobat siyosati natijasida tovarlar va xizmatlar bozorlarini monopollashish darajasi sezilarli pasaydi.

- Erishilgan natijalar asosan tovar va xizmatlar bozorlarini erkin raqobatlasha oladigan , va oxir-oqibatda sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradigan yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlar va tadbirkorlik subyektlarini tashkil topishi uchun qulay sharoitlarni yaratishda namoyon bo‘ladi.

- Ustun mavqega ega bo‘lgan, ayniqsa iste‘mol bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan korxonalar sonini sezilarli qisqarishi.

1996-2011 yy. da erishilgan natijalar quyidagilar bo‘ldi:

- monopolist-korxonalarning soni 721 tadan 169 tagacha;
- monopol mahsulotlarning soni 1899 tadan 158 tagacha qisqardi;
- faqatgina 2005-2010 yillarda monopol mahsulotlarning YAIMdagi ulushi 26% dan 19% pasaydi.

- Oxirgi uch yilda tadbirkorlikning monopollashuvi indeksi 0,43 dan 0,35 gacha tushdi

- Ilgari yirik monopol hisoblangan sohalarda qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida (alkogolsiz ichimliklar, sharbatlar, non, non mahsulotlari, go‘sht-sut, qandolat mahsulotlari va h.k.) va nooziq-ovqat mahsulotlarining alohida bozorlarida (mebel, gilam mahsulotlari va h.k.) rivojlangan raqobat muhiti barpo qilindi.

Monopol xizmatlar sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari kirib kelishi natijasida quyidagi sohalarda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi bilan yirik korxonalar monopoliyasi tugatildi:

- transport xizmatlari;
- umumiy ovqatlantirish;
- chakana savdo bozorlarida.
- Uyali aloqa xizmatlari bozorida narx sohasida jiddiy raqobat kuzatilmoqda.

Yuqori likvidli va monopol mahsulotlar sotib olish uchun sharoitlarni ta'minlash 2004- yilda O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib birja savdolarini monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimi joriy etilgan Monopol mahsulot turlarini birja savdolari orqali sotilishini joriy etilishi, davlat tomonidan alohida mahsulotlar va resurslarni narxlarini tartilashtirishdan bosh tortishi va ularni tovar xom-ashyo birjalarida sotilishini yo'lga qo'yilishi bo'ldi.

Birja savdolariga 200 ga yaqin monopol va yuqori likvidli mahsulotlarning qo'yilishi ta'minlangan. 2011- yilda O'zTXBsining jami 5,2 trln.sumlik tovar aylanmasida monopol va yuqori likvidli mahsulotlarning ulushi quyiladigan mahsulotlar umumiy hajmining 86 %dan ortig'ini tashkil qildi. Mahsulotlarni birja savdolari orqali sotish bo'yicha grafiklar bajarilishining doimiy nazoratga olish natijasida mazkur savdolarida sotiladigan alohida mahsulotlarni bir me'yorda quyilishining va ularga bo'lgan talablar qondirilishining barqarorligi ta'minlandi.

Kelishuvlarni aniqlash mexanizmini takomillashtirish va ustun mavqeini aniqlash kelishuvlar va kelishib qilingan harakatlarni aniqlashni zamonaviy normalari va samarali mexanizmlari faqat son mezonlari asosida (bozordagi ulushi va h.k.) subyektning mavqesini ustun mavqe deb hisoblashdan bosh tortish nazarda tutilgan. Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ixtiyoriy ravishda raqoabtga qarshi harakatlar sodir etilgani to'g'risida ma'lum qilinishi uni ma'muriy javobgarlikdan ozod etilishi uchun asos bo'lishi mexnizmi kiritildi

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning muhim ustuvor va asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- Biznes, jumladan, xususiy biznes uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini izchil kamaytirib borish

- Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish

- Hududiy dasturlarni bajarilishini ta'minlash

- Soliq siyosatini engillashtirish

- Ruxsat berish tartibotlarini yanada qisqartirish va soddalashtirish va tadbirkorlarning moliyaviy yukini pasaytirish

- Ish faoliyatiga noqonuniy aralashishni oldini olish

- Tabiiy monopoliya sohalariga kichik biznes vakillarini kirishi uchun shart-sharoitlarni yaratish

- YUqori likvidli va monopol mahsulotlar sotib olish uchun sharoitlarni ta'minlash

- Bo'sh turgan bino va inshootlardan foydalanish uchun keng imkoniyatlarni yaratish

- Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy ko'mak berish

- Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun zarur infratuzilmalarni yaratish

- Monopol mahsulot va xizmatlar xarajatlarini kamaytirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 25- avgustida qabul qilingan PQ-1604-sonli «Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qaroriga muvofiq:

- Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan ruxsatnomalar va ruxsat berish tartibotlarining yangi turlarini joriy etish taqiqlanadi;

- kichik sanoat ishlab chiqarishlarni joylashtirish uchun er uchastkalarini ajratishga doir murojaatlarni vakolatli organlar tomonidan ko'rib chiqish va kelishish muddati bir oydan oshmasligi shart;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi bilan birgalikda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining davlat mulki bo‘lgan, vaqtincha bo‘shab yotgan va ishlatilmaydigan xonalarni ularda ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirish uchun ijaraga berish bo‘yicha murojaatlari 7 kun mobaynida ko‘rib chiqilishini ta‘minlashga majburlar;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, shu jumladan, ishlab chiqarish obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun zarur bo‘lgan ruxsat etuvchi hujjatlarni berish “bir darcha” tamoyili bo‘yicha amalga oshiriladi;

- ruxsat etuvchi hujjatlarni berish muddati tadbirkorlik subyektlari ariza bergan vaqtdan boshlab, 30 ish kunidan oshmagan holda chegaralanadi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” davlat dasturini amalga oshirish masadida Qo‘mita tomonidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga (elektroenergiya, issiqlik energiyasi, gaz, suv va kanalizatsiya) ulanishga imkon yaratish va uni yanada soddalashtirish maqsadida tabiiy monopoliya subyektlarining (jami 518 ta korxona) faoliyati o‘rganildi. Natijada 1227ta holatda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish texnik shartlarini berish reglamenti buzilganligi; 317ta holatda tadbirkorlik subyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini asossiz ravishda rad etish; texnik shartlarni olishda asossiz ravishda 41,8 mln.so‘m haq olinganligi; 178,4 mln.so‘m miqdorida qishloq joylardagi tadbirkorlar uchun belgilangan tariflarni oshirish natijasida haq olish holatlari aniqlandi. Temir yo‘l transportida tabiiy monopoliyalar subyektlarining infratuzilmasiga xususiy tadbirkorlik subyektlarini kirishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida tenderlar o‘tkazildi.

Tabiiy monopoliya sohalariga kichik biznes vakillarini kirishi uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida Elektr energiyasi uchun to‘lovlarni to‘plash funksiyalarini bajarish bo‘yicha xususiy operatorlarni tuzilishiga tanlovlarni o‘tkazish tartiblari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 2009- yil 4- iyuldagi 186-sonli qarori qabul qilindi; Elektr energiyasini oldi-sotti shartnomada belgilangan hajmga nisbatan

kam sarflanishi bo'yicha jarimalar bekor qilindi va ortiqcha sarflash bo'yicha jarimalar 50 foizga qisqartirildi (Vazirlar Mahkamasining 2009- yil 22- avgustdagi 245-sonli qarori); Elektr energiyasidan foydalanish qoidalariga kiritiladigan o'zgartirishlarni nazarda tutuvchi "Tadbirkorlik subyektlarini quvvati 50kVt bo'lgan elektr ta'minoti moslamalariga soddalashtirilgan tartibda ulanishini kuchka kirishi to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2011- yil 5- apreldagi 103-sonli qarori qabul qilindi.

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash bohqichida monopoliyaga qarshi boshqaruv soxasida xam tarkibiy o'zgarish natijasida, O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashqil qilindi.

Prezidentimizning 2012- yil 30- noyabrdagi PF-4483 sonli Farmonini ijro etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 30- dekabrdagi 374 sonli karori bilan O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tug'risida nizom tasdiqlandi. Nizom Davlat raqobat qo'mitasi maqomini, asosiy vazifalarini, funksiyalarini, xuquqlarini va faoliyatining tashqiliy asoslarini bo'lgilaydi. Quyidagilar uning asosiy vazifalari qilib belgilangan edi:

- xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, davlatga tegishli aktivlarni xamda aksiyalar paketlar ulushlarini xususiylashtirish mulkka sotish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ishlab chikish va amalga oshirish;

- fond bozorini rivojlantirish chora-tadbirlarini tizimli asosida amalga oshirish;

- aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish;

- monopoliyaga qarshi samarali tartibotlar urnatish chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- raqobat muhitini rivojlantirish;

- past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni moliyaviy-iqtisodiy tahlil qilish;

-iqtisodiy nochor korxonalarni tarkibiy qayta qurish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019- yil 14- yanvardagi PF–5630-son Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tashkil qilindi. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi o‘z vakolatlarini barcha davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi va o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan alohida masalalar bo‘yicha – bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi va hisobdor bo‘ladi.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyat sohasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy tartibda u bilan kelishilishi shartligi belgilandi. Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha tashkilotlarda Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha tekshiruvlar tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha vakolatli organi xabardor qilish tartibida amalga oshiriladi hamda Tekshiruvlarni elektron shaklda ro‘yxatga olish yagona tizimida ro‘yxatga olinadi.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining raisi, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, maqomi, tibbiy va transport xizmat ko‘rsatish sharoitlari bo‘yicha tegishli ravishda vazir, vazirning birinchi o‘rinbosari va vazir o‘rinbosariga tenglashtiriladi. Davlat raqobat qo‘mitasi va uning hududiy organlari tomonidan ilgari berilgan hujjatlar va ular qabul qilgan qarorlar o‘z kuchini saqlab qoladi hamda uning qayta tashkil etilishi munosabati bilan bekor qilinmaydi yoxud o‘zgartirilmaydi. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga:

- raqobat muhitini rivojlantirish va tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyatini nazorat qilish masalalari yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlarga iqtisodiy, moliya, soliq organlari va boshqa organlar xodimlarini jalb qilish;

- monopoliyaga qarshi siyosat va raqobatni muhofaza qilish sohalaridagi qonun buzilishi holatlarini hamda ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalarni o'z vakolatlari doirasida davlat organlari va tashkilotlariga kiritish huquqi berildi.

Shuningdek 2019- yil 1- iyuldan boshlab xo'jalik yurituvchi subyektlarning birlashuvi va qo'shib olinishi bo'yicha bitimlar, shuningdek, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan xo'jalik yurituvchi subyekt ustav kapitali (jamg'armasi)dagi aksiyalar (ulushlar)ni sotib olish bo'yicha bitimlarga dastlabki rozilik berish uchun eng kam ish haqining o'n baravari miqdorida yig'im undiriladi. Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda byudjetdan tashqari Raqobatni rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasi(keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) tashkil etildi va uning manbalari quyidagilar etib belgilandi:

- raqobat va tabiiy monopoliyalar haqidagi qonunchilikni buzganlik uchun undirilgan asossiz olingan daromadlarning summasi;

- raqobat, tabiiy monopoliyalar haqidagi qonunchilikni buzganlik va Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi taqdimnomalarini bajarilmaganlik uchun Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlardan va ularning mansabdor shaxslaridan qonunchilikda belgilangan tartibda undiriladigan jarima mablag'lari;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning birlashuvi va qo'shib olinishi bo'yicha bitimlar, shuningdek, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan xo'jalik yurituvchi subyekt ustav kapitali (jamg'armasi)dagi aksiyalar (ulushlar)ni sotib olish bo'yicha bitimlarga dastlabki rozilik berish uchun yig'imlar;

- qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

SHu bilan bir qatorda mazkur qo'mita O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokuraturasi va Adliya vazirligi bilan birgalikda:

- qonun hujjatlarining raqobatga ta'sirini baholash metodikasini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

- qonun hujjatlariga raqobat va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik, axborot bermaslik yoki bila turib noto'g'ri axborot berish,

Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi taqdimnomalarini bajarmaslik, shuningdek, uning xodimlari faoliyatiga aralashganlik hamda ularga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni qonuniy bajarishlariga to‘sqinlik qilish maqsadida har qanday shaklda ta’sir o‘tkazganlik uchun yuridik shaxslarga jarimalar qo‘llash va ma’muriy javobgarlik belgilashni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida takliflar beradi;

- iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida yagona davlat organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi huzurida Iste’molchilar huquqini himoya qilish agentligini tashkil etish hamda tegishli davlat organlari va muassasalarining shtat birliklarini hamda iste’molchilar huquqini himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshirish borasidagi vakolatlarini unga o‘tkazish bo‘yicha takliflar kiritadi.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi 2019-2023 yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishi lozim va unda, jumladan, quyidagilar nazarda tutilishi ta’kidlangan:

- raqobatni himoya qilish va rivojlantirish tizimini transformatsiya qilish hamda monopoliyaga qarshi tartibga solishning milliy iqtisodiyotda va jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar va jarayonlarning yuksak talablariga javob beradigan mutlaqo yangi ilg‘or modelini yaratish;

- tovar va moliya bozorlarini tahlil qilishning moslashuvchan, shu jumladan, xulq-atvor iqtisodiyoti (behavioral economics) tamoyillariga asoslangan vositalari va usullarini joriy etish;

- raqobatni himoya qilish bo‘yicha oldini oluvchi vositalarni, shu jumladan, monopoliyaga qarshi komplaens mexanizmi – birinchi navbatda tovar va moliya bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar ichida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqlikni ta’minlash tizimini joriy etish;

- rag‘batlantiruvchi tariflar shakllantirishning raqobatni kuchaytiruvchi ta’sir ko‘rsatadigan yangi yuqori samarali usullari va ularni qo‘llashni nazorat qilish

mexanizmlarini joriy etish hisobiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari (tariflari)ni davlat tomonidan tartibga solish tizimini tubdan takomillashtirish;

- raqamli iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi tartibga solishning samarali vositalarini, shu jumladan, raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishlari transchegaraviy shakllarining oldini olish maqsadida yaratish;

- raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun huquqiy ta'sir ko'rsatish choralarini kuchaytirish va bir vaqtning o'zida huquqni qo'llashda keng ixtiyor beradigan vakolatlarni bekor qilish;

- "kartel" kelishuvlar va til biriktirishlar kabi raqobatga qarshi harakatlarning murakkab turlarini aniqlash va ularga chek qo'yish maqsadida huquq-tartibot organlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish;

- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti metodikasi bo'yicha tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini rivojlantirish indikatorlaridan foydalangan holda Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) joriy etish;

- raqobatni cheklash holatlarini aniqlash va ularga nisbatan ta'sir choralarini ko'rish tezkorligini oshirish uchun Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyatiga innovatsion ishlanmalar va axborot texnologiyalarini joriy etish;

- Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining kadrlar salohiyatini tizimli ravishda oshirish, oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlariga raqobat siyosati va raqobat huquqi sohasida kadrlarni tayyorlash bo'yicha maxsus yo'nalishlarni joriy etish;

- munosib moddiy ta'minot va ijtimoiy sharoitlar borasida ijtimoiy kafolatlarni nazarda tutgan holda Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyati samaradorligini oshirish hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi turli omillarning oldini olish.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Monopoliyaga qarshi boshqaruvning qanday funksiyalarini bilasiz?
2. Monopoliyaga qarshi boshqaruv strategiyasi nima va u nima uchun ishlab chiqiladi?
3. Monopoliyaga qarshi boshqaruv strategiyasining asosiy vositalari

nimalardan iborat?

4. Boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish jarayonini tavsiflab bering.

5. Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini rivojlantirish qanday amalga oshiriradi?

3-bob. MONOPOL BOZORNING XUSUSIYATLARI

- 3.1. Monopoliya tushunchasi, uning turlari va kelib chiqishi sabablari.
- 3.2. Erkin raqobat.
- 3.3. Monopoliya. Oligopoliya.
- 3.4. Monopolistik raqobat. Bozor iqtisodiyotida raqobatning o'рни.

«Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya'ni, grekcha «monos» - yagona, bitta va «poleo» - sotaman) tarkib topsada, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi. Monopoliyani quyidagicha ta'riflash o'rinli deb xisoblaymiz, monopoliya -monopol yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan xukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalarning birlashmalari). Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to'planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalar qo'lida to'planishini namoyon etadi.

Iqtisodiyotda monopollashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa, yuqorida ta'kidlanganidek, davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va tavsifiga karab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi. Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. SHunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o'z-o'zidan, evolyusion yo'l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Davlat monopoliyani cheklash va raqobat muhitini yaratishi zarur. Bu vazifa monopoliyaga qarshi qonunlarga tayanilgan holda olib boriladi. O'zbekiston Respublikasida bu vazifani amalga oshirish Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan. Monopolashuvga qarshi kurash maqsadlarida monopol korxonalar reestri tuziladi. Bunda monopol korxonalar tabiiy monopoliya va tabiiy monopoliya hisoblanmagan korxonalarga bo'linadi. Tabiiy monopol bo'lmagan korxonalarni monopoliyadan chiqarish chora-tadbirlari ko'riladi.

Monopolizmning iqtisodiyotdagi bu va boshqa salbiy tomonlari davlatlarni monopoliyaga qarshi siyosatni ishlab chiqishga va qo'llashga majbur qiladi – monopolistik faoliyatni ogohlantirish, cheklash va to'xtatishga yo'naltirilgan davlat xokimiyatining kompleks chora-tadbirlari, bozorning barcha xo'jalik subyektlarini imkon darajasida teng raqobat sharoitlari bilan ta'minlash va insovsiz raqobat kurashiga yo'l qo'ymaslikni nazorat qiladi.

Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat rolining nazariy asoslari. Davlatning iqtisodiy vazifalari ko'p va xilma-xildir. SHuning uchun tahlilimizda davlatning asosiy iqtisodiy funksiyalarinigina ko'rib chiqamiz. Birinchidan, davlatning ayrim iqtisodiy vazifalari bozor tizimi rivojlanishini engillashtirish va qo'llab-quvvatlash maqsadiga ega. Bu sohaga davlatning quyidagi ikki funksiyasini kiritishimiz mumkin:

1. Bozor tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan huquqiy baza va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

2. Raqobatni himoya qilish;

Ikkinchi guruh vazifalarini bajarish uchun davlat quyidagi uchta funksiyani bajaradi:

1. Daromad va boyliklarni qayta taqsimlash;

2. Milliy mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslar taqsimotini tartibga solish;

Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib, «Raqobat

bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat - bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir», deb ta'kidlaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir. Erkin raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashqil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar. Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi- Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmokda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga xuquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Sof monopoliya – bu bozor strukturasi bo'lib, unda yagona kompaniya muayyan turdagi tovarni ishlab chiqaruvchisi va sotuvchisi bo'ladi. Sof monopoliyada tarmokda bitta firmadan iborat bo'lishi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi xisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi. Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy, u mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat – bu raqobatning bir turi bo'lib, unda xaridorlarga o'z narxlarini belgilashga qodir bo'lgan kam sonli ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'ladi. Monopolistik raqobat o'z ichiga xam monopoliya, xam raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmokdagi bir turdagi mahsulotning o'nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan kulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini tabaqalashtirish, ya'ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jixati (sifat darajasi, shakli,

qadoklanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo'yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – bu bozor strukturasi bo'lib, unda tarmoqdagi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bir necha yirik raqobatchi firmalar qo'lida jamlangan bo'ladi. Oligopoliya - tarmoqda u qadar ko'p bo'lmagan korxonalarning mavjud bo'lishi va xukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar xukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmok hisoblanadi. Ikki tomonlama oligopoliya – bu bozor strukturasi bo'lib, unda bir necha sonli sotuvchilar va bir necha sonli xaridorlar mavjud bo'ladi.

Monopol narx - monopol mavqedagi subyekt (firma)lar bozorda belgilaydigan narx, monopol foyda olishning asosiy vositasi. Monopoliya sharoitida bu sotuvchi narxi bo'lsa, monopsoniya sharoitida xaridor narxi shakliga ega bo'ladi. Monopol narx- erkin bozor narxidan raqobat asosida shakllanmasligi bilan farq qiladi. Monopol narxni belgilashning asosiy maqsadi olinadigan foydani maksimallashtirishdir. Monopoliyaning narx belgilashdagi hukmronligi uning bozordagi hokimiyati hisoblanadi. Monopol narx o'rnatilganda tanlash imkoniyati bo'lmaganligi sababli xaridor daromadining bir qismini yo'qotadi. Lekin monopoliya monopol narxni chegarasiz oshira olmaydi, chunki har qanday narxning yuqori chegarasini xarid qobiliyati belgilaydi. SHuni hisobga olib monopol narx bozor ko'taradigan narxning eng yuqorisi qilib belgilanadi, ammo bunday narx talabning elastikligini yuzaga keltirmaydi, ya'ni talab narxining ortishiga nisbatan tezroq pasayadi.

Monopol narxga resurlar narxining ortishi ham ta'sir etadi, chunki xarajatlar ortib, foyda qisqaradi. Monopsoniya sharoitidagi monopol narx. xaridor narxi hisoblanib, u ishlab chiqaruvchilarning o'rtacha xarajatlari darajasida bo'ladi. Buning natijasida monop-sonistga tovar sotganlar minimal foyda ko'radi, monopsonist esa narxni pastligidan yutib chiqadi. Bu erda sotuvchilarning yo'qotishi xaridor — monopsonistning yutug'iga aylanadi. Monopol narx bozorning asosiy vositasi bo'lganligidan, davlat bu narxlarni nazorat qiladi, ularning haddan ziyod yuqori

yoki past belgilanishiga yo‘l bermaydi, narxni oshirish hisobidan topilgan foydani davlat o‘z byudjetiga olib qo‘yadi.

Monopoliyadan chiqarish-iqtisodiyotdagi monopoliyadan erkin, teng huquqli raqobatga asoslangan tadbirkorlik faoliyatiga qaytish (qayta o‘tish). Monopoliya erkin raqobatga yo‘l bermay, iqtisodiyotda turg‘unlikni vujudga keltiradi. Monopoliyadan chiqarish sog‘lom iqtisodiy bellashuvga yo‘l berish maqsadlarida amalga oshiriladi. Natijada monopol korxonalar va birlashmalar o‘rniga o‘zaro raqobatlashuvchi ko‘plab korxonalar paydo bo‘ladi. Monopoliyadan chiqarish ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi;

1-yirik monopol mavqedagi birlashmalar, kompaniyalar tarqatilib, ulardan mustaqil korxonalar ajralib chiqadi;

2-monopol korxona yoki birlashmalar, kompaniyalar saqlangan xolda ular bilan raqobat qila oladigan, bir xildagi yoki bir-birining o‘rnini bosuvchi mahsulot chiqaruvchi korxona yoki birlashmalar tashqil etiladi. Monopoliyadan chiqarish bozor iqtisodiyotiga o‘tishda yoki uning o‘sishi uchun yangi imkon yaratishda g‘oyat muhim. Monopoliyadan chiqarish O‘zbekistonda 1990-yillar boshidan bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Monopollashgan bozor - ozchilik sotuvchilar va xaridorlar hukmron, raqobat cheklangan yoki mavjud bo‘lmagan bozor. Uning monopol raqobatli, oligopolistik, sof monopoliya bozori turlari bor. Monopol raqobatli bozorda firmalar ko‘p bo‘lganidan ulardan har birining tovarlar sotishdagi hissasi kichik bo‘ladi, natijada ular bozorni cheklangan xolda nazorat qiladilar. Ular yashirin kelishuv asosida o‘zaro til biriktira olmaydilar, bu bilan mazkur bozor oligopolistik bozor (guruh monopoliyasi)dan farqlanadi. Monopollashan bozorda firmalar mustaqil bo‘lganidan o‘z bozorida bir-biri bilan raqobatlashadi. Lekin raqobatning asosiy usuli narx bilan raqobatlashuv emas, balki sifat jixatidan bir-biridan farqlanuvchi mahsulot bilan bozorga chiqish hisoblanadi. Monopollashgan bozor yangi firmalarning kirib kelishi uchun ochiq hisoblanadi. SHu bois bu erda raqobat cheklanmaydi, aksincha, kengayib turadi. YAngi firmalar kirib kelganda taklif ko‘payib, narxlar tushib ketadi, natijada zarar xam ko‘riladi. Zarar ko‘rganlar bozordan chiqib ketishgach, narxlar

oshadi, foyda maksimumlashadi. Bunday bozorda tovarlarni mukammallashtirish sotish hajmini oshirib, foyda miqdorini ko'paytiradi. Raqobatda modernizatsiyadan tashqari, reklama xam keng qo'llanadi. Monopollashgan bozorning monopollashuv darajasi amerikalik iqtisodchi A. P. Lerner (1903—1983) indeksi bilan aniqlanadi.

Monopsoniya (monopsoniya, yunoncha — sotib olmoq) — bozor holati, bozorda xaridorning xukmron mavqega ega bo'lishi. Monopsoniyada bir nechta sotuvchilar va bir yirik xaridor ishtirok etadi. Bozorda xaridor o'z hukmini o'tkazib, yetakchi mavqeni egallaydi, xarid hajmini kamaytirib, ishlab chiqaruvchilarni narxni pasaytirishga majbur etadi. Aksariyat resurslar bozorida paydo bo'ladi (ishlab chiqaruvchi yutug'i xaridor-iste'molchiga o'tadi). Resurslarni davlat qat'iy narxlarda xarid etganda, davlat buyurtmalarida ham monopsoniya vujudga keladi. Masalan davlat avianosets, kosmik-raketa obyektlari kabi qimmat va murakkab qurol-aslahalar xaridori bo'ladi. Keng ma'noda — narxlar shakllanishiga xaridorlar ta'sir ko'rsatadi.

Oligopoliya (oligopoliya, yunoncha — sotaman) — bozorni tashqil etish shakllaridan biri. Guruh monopoliyasi, oz sonli yirik korxona (firma)-larning bozorda yoki biron-bir xo'jalik sohasida hukmronligi. Oligapoliya uchun bozorda bir necha sotuvchining bo'lishi xos, ammo umumiy bozor savdosi hajmida ulardan xar birining hissasi juda katta bo'lganidan, har bir sotuvchi o'zi taklif etadigan mahsulotlar mikdorini o'zgartirishi bilan narx-larda ham o'zgarishlar yuz beradi. Firmalarning uncha ko'p bo'lmasligi yashirincha kelishishlarga qulaylik tug'diradi. Bu esa, o'z navbatida, ularga narxlarni belgilash, bozorni bo'lish yoki taqsimlash va boshqacha yo'llar bilan o'zaro raqobatni cheklashda qo'l keladi. Yashirincha kelishishning bir qator shakllari (kartel bitimi) bor. Monopoliya kabi oligapoliya ham nomukammal raqobat ko'rinishi hisoblanadi

Raqobat — mustaqil tovar nshlab chiqaruvchi (korxona)lar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitlarda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keladigan narxlarda sotish, umuman iqtisodiyotda ustun mavqeni mustahkamlash uchun ko'rash. Raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat istemolchilar o'rtasida ham

yuz berib, tovarlarni kulay na arzon 6aholarda sotib olishga qaratiladi, chunki xaridorlar bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq naflikka ega bo'lishga harakat qiladi, arzon va sifatli tovarni tezroq sotib olish uchun ko'rashadi. Raqobatda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sarflangan xarajatlar ko'proq foyda olish shu foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari. ya'ni qulay bozorlar, arzon xom ashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun kurash boshlanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Monopoliya nima va uning qanday turlarini bilasiz?
2. Erkin raqobat nima?
3. Monopoliya va oligopoliya o'rtasidagi farq qanday?
4. Monopolistik raqobat nima?
5. Bozor iqtisodiyotida raqobatning o'rni qanday?

4-bob. XORIJIY MAMLAKATLARDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNING HUQUQIY ASOSLARI

1. Monopoliyani tartibga soluvchi dastlabki qonunchilikning vujudga kelishi va takomillashuvi
2. Yevropa Ittifoqida monopoliyani tartibga soluvchi huquqiy asoslar
3. Sharqiy Osiyo davlatlarida monopoliyani tartibga soluvchi qonunchilik tahlili
4. MDH davlatlarida monopoliyani tartibga solish va raqobat muhitini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslarning shakllanishi

So'nggi yillarda butun dunyo miqyosida raqobat to'g'risidagi qonunlarni (ular trestlarga qarshi yoki monopoliyaga qarshi qonunlar deb ham ataladi) yanada rivojlantirish va amaliyotga kiritish davri bo'ldi. Sobiq sotsialistik lagerni parchalanib ketishi oqibatida Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoning ko'pchilik mamlakatlari raqobat siyosatining negizi hisoblangan bozor iqtisodiyoti tamoyillarini joriy qila boshlagan bir vaqtda, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ham bir joyda to'xtab qolmay, amaliyotda foydalanilayotgan monopoliyaga qarshi qonunchilikka o'zgartirishlar kiritib bordilar. Xozirgi kunda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida monopoliyaga qarshi qonunchilik mavjud hisoblanadi.

Ushbu mamlakatlar qonunchiligi tahliliga ko'ra, monopoliyaga qarshi qonunlarning aksariyati quyidga to'rt asosiy harakatlar(faoliyatlar) natijasida sog'lom raqobat muhitiga zarar etishi mumkin bo'lgani uchun uni himoya qilishga mo'ljallangan:

1. Raqobatga qarshi bitimlar va kelishib qilingan harakatlar, jumladan kartel bitimlar, shuningdek bir nechta korxona (shaxslar)ni raqobatni cheklashga qaratilgan ataylab yoki ataylab qilmagan harakatlari va bitimlari;
2. Bitta yoki bir nechta korxonalar tomonidan o'z ustun mavqeini(bozor hukmronligini) suiiste'mol qilinishi;
3. Insofsiz raqobat;
4. Bozor konsentratsiyasi, jumladan korxonalarni qo'shib yuborish bo'yicha bitimlar yoki korxonalarni faoliyati ustidan nazorat olib borish bo'yicha mulkiy –

odatda paylar yoki aksiya paketlarini ulushlar orqali – va boshqa huquqlar berish orqali.

Turli davlatlarning tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatlarini bir-biriga o'xshamasligi, raqobat siyosati va huquqqa nisbatan turlicha yondashishni keltirib chiqargan. Masalan, AQSH va EI raqobat to'g'risidagi qonunlarni matnlarini bayon qilinishi konstitutsion normalarni eslatadi, ularni tushunchalarini sharhlashda sudlarga va monopoliyaga qarshi organlarga ko'proq majburiyatlar va erkinliklar beriladi.

Raqobat to'g'risidagi qonunchilikni nisbatan yaqinda kiritgan ko'pchilik mamlakatlarda raqobat siyosatining barcha to'rtta jihatida bitta qonunda o'z aksini topgan. Bunday mamlakatlar qatoriga O'zbekiston, Rossiya, MDH ko'pchilik mamlakatlari, shuningdek Sharqiy Yevropa mamlakatlari kiradi. Boshqa mamlakatlarda raqobat siyosatining bozor konsentratsiyasi va nohalol raqobat kabi jihatlari alohida qonunlar yurisdiksiyasiga (vakolatiga) kiradi. Qozog'istonda va bir nechta boshqa mamlakatlarda nohalol raqobat alohida qonunchilik qilib ajratilgan, AQSHda esa konsentratsiyalashish masalalari va tegishli taomillar-Xarta-Skotta-Rodino (qonunni ishlab chiqqan kongressmenlarning nomi) nomli maxsus qonun bilan tartibga solinadi.

Markazlashgan-rejalashtirilgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda qonunchilik odatda hokimiyat organlarini raqobatga qarshi harakatlari/qarorlari/ harakatsizligini cheklash uchun maxsus ishlab chiqilgan alohida normalarga ega. Buning sababi, rejalashtirilgan iqtisodiyot davrida hokimiyat organlarini korxonalarning faoliyatiga haddan ziyod ko'p aralashuvi oqibatidir. Bunday qonunchilikka ega bo'lgan mamlakatlar qatoriga deyarli barcha MDH davlatlari, jumladan O'zbekiston ham kiradi.

Xorijiy mamlakatlarning qonunchiliklaridagi tafovutlar turlicha va nihoyatda kengdir. Shuning uchun ushbu tahlil birinchi navbatda ushbu tafovutlarni aniqlash va tushuntirib berishga qaratildi. AQSHning monopoliyaga qarshi qonunchiligi eng birinchi bo'lib qabul qilingan qonun bo'lib hisoblanadi. U shuningdek, eng ko'p

o'rganilgan va amaliyotda foydalanilgandir. Bundan tashqari, AQSH jahonning eng yirik milliy iqtisodiyoti hisoblanadi.

EI – bu nafaqat Yevropa kontinentida, balki butun dunyoda ulkan hajmli va chuqur integrallashgan milliy iqtisodiyotlarning noyob misolidir. EI misolida monopoliyaga qarshi qonunchilikni integrallashish jarayonlarida rivojlanishni kuzatish mumkin.

Rossiya Federatsiyasi rejalashtirilgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri jihatlari bilan O'zbekistonga o'xshashdir. Yaponiya o'ziga hos Osiyo mentalitetiga, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lgan mamlakat.

XX asr iqtisodiyotni erkinlashuvi, bozorlarni ochilishi va tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va taqsimlashda ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar davlat boshqaruviga emas, balki bozor kuchlariga suyana boshlaganiga guvoh bo'ldi. Raqobat siyosati iqtisodiy erkinlikni rag'batlantirish, ba'zida esa mustaqil xaridorlar va sotuvchilar o'rtasida raqobatni talab qilish yo'li bilan qo'llab-quvvatlaydi.

Shu sababli barcha rivojlangan mamlakatlar o'zlarining raqobatga qarshi qonunlarini yanada kuchaytirdilar, shu vaqtni o'zida ba'zi mamlakatlar savdo-sotiqqa to'sqinlik qiluvchi, va keyinchalik boshqa xatti-harakatlar bilan qaytadan vujudga keltirilishi mumkin bo'lgan to'siqlarni barataraf etadigan yangi qonunlarni kiritdilar. Azaldan, raqobat siyosati avvalambor iqtisodiyoti rivojlangan, ichki raqobat tijoratda muhim omil hisoblangan mamlakatlardagi raqobat jarayonini himoya qilish uchun qo'llanib kelingan. SHundan kelib chiqqan holda, eng jiddiy raqobat siyosati AQSH, Germaniya va EI kuzatiladi. Monopoliyaga qarshi qonunchilik uchun model sifatida xizmat qilgan va uni jahonning boshqa mamlakatlariga tarqatishga asos bo'lib xizmat qilgan Amerika va Germaniya tizimlarida raqobat to'g'risidagi qonunni belgilash va uni amalga oshirishda sud qarorlari markaziy (asosiy) rolni bajaradilar.

Xuddi shunday jihat Avstraliya, Yaponiya, Koreya, Kanada, Fransiya va EH bor. Va aksincha, sud qarorlari Buyuk Britaniya, Ispaniya va Shvetsiya qonunlarida unchalik ahamiyat kasb etmaydi. Ushbu mamlakatlar mazkur qonunni amalga oshirish va ta'riflash ma'muriy sudlarda va ijro hokimiyatini tayinlangan rasmiy shaxslariga (odatda iqtisodiyot vaziri) asoslanadi.

Raqobat to'g'risidagi qonun uchta sohaga, ya'ni, biznesni amalga oshirish usuliga, iqtisodiy bozorlar tuzilmasiga va xo'jalik yuritish usullariga kirib boradi. O'rganilgan qonunchiliklar o'rtasida harakatlanishni o'zining bozordagi ustun mavqeini suiiste'mol qiluvchi, yohud savdo-sotiqni cheklovchi, raqobatni susaytiruvchi man qilingan shakllarini oluvchi o'zini tutish qoidalari mazmunan bir-biriga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Bu borada AQSH, Germaniya va EH raqobat to'g'risidagi qonunchiliklari raqobatga to'siq bo'layotgan to'sqinliklarni boshqa qonunchiliklarga nisbatan qat'iyy standartlar (andozalar) bo'yicha baholaydi. Boshqa mamlakatlarda, masalan SHvetsiya, Buyuk Britaniyada savdo-sotiq'larga to'sqinlik qiluvchi to'siqlarni tartibga solish ularni maqsadli yo'naltirilganligiga (masalan, mintaqaviy bandlik, to'lov balansi) baholanadi.

Raqobat to'g'risidagi qonunlar ikkita, lekin bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan konsepsiyalarga asoslanadi:

1. Bozor hukmronligi
2. Bozorda ustun mavqega ega bo'lish.

Amaliyotda raqobat siyosatining ko'pchilik shakllari yohud yetkazib beruvchilarni bozor hukmronligini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish, yohud ustun mavqega ega bo'lgan korxonalarni o'z mavqelarini suiiste'mol qilishini to'xtatib turishiga yo'naltirilgan. Bunday holat bozor hukmronligini amalga oshirish iqtisodiy samaradorlik bilan bir-biriga to'g'ri kelmasligi, ustun mavqega ega bo'lish esa yetkazib beruvchiga savdo-sotiq yo'lida xususiy to'siqlarni yuzaga keltirishga, raqobatni cheklashga va boshqa tomonlarni iqtisodiy erkinligi va faoliyat ko'rsatishiga imkon yaratadi.

Ustun mavqega ega bo'lish yetkazib beruvchilarni absolyut hajmiga, uni buyurtmachilar va shaxsiy yetkazib beruvchilari bilan aloqalariga, shuningdek, uni savdo bo'yicha hamkorlarini iqtisodiy ahvolini bilish qobiliyatiga bog'liqdir. Bozor hukmronligi konsentratsiyasi va samaradorligiga asoslanadigan raqobat to'g'risidagi qonunlar iste'molchilarni farovonligini ko'zlagan holda yuzaga keladi. Aksincha,

ustunlik konsentratsiyasiga asoslangan qonunlar raqobat jarayonini emas balki raqobatchilarni himoyalashga xizmat qiladi.

Bitta bozorda firmalar o'rtasidagi raqobatni susaytiruvchi yoki cheklovchi birgalikdagi yoki jamoa hatti-harakatlariga gorizontal cheklash deyiladi.

Monopoliyaga qarshi turli qonunlarda keltiriladigan turlicha xatti-harakatlarning xech qaysisi cheklangan narxlar yoki ishlab chiqaruvchilar o'rtasida bozorlarni bo'lib olish, yohud o'zaro raqobatlashuvchi ishlab chiqaruvchilar o'rtasida mahsulotni ishlab chiqarish hajmlarini cheklash kabi xatti-harakatlari raqobatga tubdan qarama-qarshidir.

Narxni cheklash ishlab chiqaruvchilar uchun monopolistni raqobat bozoridagi hulqini o'xshatish imkonini beradi. Natijada xaridorlar kichik hajmda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun yuqori narx to'laydi. Jamiyat nuqtai nazaridan narxni raqobat darajasidan yuqori bo'lishi, boshqa foydali bitimlarni tuzish huquqidan mahrum qilish yo'li bilan iqtisodiy farovonlik darajasini pasaytiradi.

Ushbu jihat quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- cheklangan narxlar – o'zaro raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilar, mustaqil tarzda narx o'rnatish o'rniga, narxni o'rnatish bo'yicha kelishuvlar tuzadi;

- ongli parallelizm – o'zaro raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilar kelishmasdan turib, o'zaro raqobatni susaytirish maqsadida bir xil narxlarni o'rnatadi;

- mahsulotni ishlab chiqarishni cheklash – o'zaro raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilar mahsulotni sifati va ishlab chiqarish bo'yicha o'zaro bitim tuzadi;

- bozorni bo'lish – ishlab chiqarishni cheklash shakli, o'zaro raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilar mijozlarni o'zaro shunday bo'ladilarki, bunda har bir mijozga bitta yetkazib beruvchi xizmat ko'rsatadi va u yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobatdan foyda ko'rmaydi;

- istisno(yo'l qo'yimaslik) amaliyoti – o'zaro raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilar bozordagi mahsulot uchun amaldagi yoki potensial yetkazib beruvchilarni taqiqlaydi yoki ularni bartaraf qiladi;

- axborot almashish – o‘zaro raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilar narx, ishlab chiqarish va sifat yoki mahsulotni sotish va marketingini boshqa jihatlariga nisbatan har xil tijorat axborotlarini almashtiradi;

- yirtqichlik – bir yoki bir nechta yetkazib beruvchi foyda olishga chek qo‘yish maqsadida narxlarni belgilaydi va shu bilan bir yoki undan ko‘p raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilarni bozordan chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi;

- kirishga cheklashlar – bir yoki bir nechta yetkazib beruvchilar potensial raqobatchilarni bozorga kirishiga to‘sqinlik qiluvchi xatti-harakatlarni amalga oshiradi;

- raqobatni boshqa cheklashlari – yetkazib beruvchilar masalan, reklama sifatidagi ma’lum raqobat ko‘rinishlarini qo‘llamaslik bo‘yicha o‘zaro bitimlar tuzadi.

Narxni cheklash va boshqa gorizontal cheklashlarni to‘g‘riligini aniqlashga yondashish o‘rganib chiqilgan mamlakatlar bo‘yicha turlicha. EI, AQSH, Germaniya, Koreya, Yaponiya, Fransiya va Kanadaning monopoliyaga qarshi qonunlariga binoan gorizontal cheklangan narxlar yoki kelishib olish orqali narxni taklif qilish o‘z-o‘zidan noqonuniydir va ko‘pchilik hollarda jinoiy jazoni keltirib chiqaradi. Ayblash uchun monopoliyaga qarshi qonunga binoan o‘zaro raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilar narxni belgilash bo‘yicha bitim tuzganini isbotlash yetarli bo‘ladi. Va aksincha, Ispaniya, SHvetsiya va Buyuk Britaniyada narxlarni gorizontal cheklanishi oqilona yondashish qoidasi standartiga (andozasi) binoan ko‘rib chiqiladi. Ba’zi bir holatlarda cheklangan narxlardan monopoliyaga qarshi milliy qonun bilan himoyalanmagan, xarajatlari xorijiy iste’molchilar zimmasiga yuklatiladigan chegaralangan eksport bitimlariga muvofiq foydalaniladi.

Narxni cheklash raqobat maqsadlariga mos tushadi degan tushuncha noto‘g‘ri bo‘lganligi uchun ham ushbu borada muhokama o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. So‘zsiz, narxni cheklash mijozlarni yetkazib beruvchilar o‘rtasida pastroq narxligini izlash bilan bog‘liq xarajatlarni saqlab qoladi. Xuddi shunday, narxni cheklash yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobatni ma’lum darajada kamaytiradi, hamda har bir yetkazib beruvchi duch keladigan tavakkalchilikni darajasini

pasaytiradi. Lekin shunga qaramasdan, ushbu omonatlar narxni cheklash bilan ushlab turiladigan narx ustamasini qoplash uchun yetarli bo'lmaydi. Gorizontal raqobatlashuvchilarda narxlarni monopoliya darajasidan past qilib cheklash kam rag'batlaydi, u ayniqsa potensial raqobat bo'lsa, ya'ni monopol narxlarni chuv tushirishi mumkin bo'lsa. Bundan tashqari, narxni cheklash samarasi past yetkazib beruvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan raqobat tavakkalchiligini pasaytiradi, samarali yetkazib beruvchilar esa ushbu kurashda omon chiqishi yoki raqobat sharoitlarida kurashishlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy tadqiqotlarda narxlarni ochiq yoki yashirin tarzda cheklashni o'z-o'zidan man qilish ko'pchilik vaqtda o'zaro raqobatlashuvchi firmalar o'rtasida cheklangan narxlarni ushlab turuvchi boshqa gorizontal cheklashlarga ham tegishli bo'ladi. Umuman olganda, haqqoniylik standarti (andozasi) raqobatni cheklash samarasi va samaradorlik o'rtasidagi kelishuvni aks ettirish uchun tanlangan. Odatda gorizontal cheklashlar raqobatni sezilarli darajada cheklaydi yoki samaradorlikni birmuncha yaxshilagan holda narxlarni cheklashga yordam beradi, u kupchilik hollarda ushbu standartlarga binoan ko'rib chiqiladi. Gorizontal cheklashlar o'z ichiga mijozlarni taqsimlarda o'zaro raqobatlashuvchi firmalar o'rtasidagi bitimlarni, jug'rofiy savdo hududlarini cheklash, narx, ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarishni cheklashga taalluqli bo'lgan mahfiy axborotlarni almashishlarni oladi.

Vertikal yoki konglomerativ aloqalar, ustunlik konsepsiyasidagi markaziy masala, ular turli usullarda bozor hukmronligini amalga oshirishga o'z hissalarini qo'shishi mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

- eski yetkazib beruvchilar bilan vertikal integratsiyalashish yangi yetkazib beruvchilarni bozorni yuqori va quyi ierarxiyalarida savdo bo'yicha o'zaro hamkorlar bozorlariga kirishiga to'siq bo'lishi mumkin;

- vertikal integratsiyalashish foyda normasi bo'yicha qoidalardan chetga chiqish uchun vosita bo'lishi mumkin, va shu bilan yetkazib beruvchilar tomonidan tartibga solinadigan bozor hukmronligini bir tomonlama amalga oshirish imkonini beradi;

— firmaning hajmi bozor hukmronligini amalga oshirishga nisbatan ma'lum bir ahamiyat kasb etmasada, raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilarga qarshi yirqichlarcha xatti-harakatlari strategiyasini baholash uchun qulaydir. Bu bozor hukmronligini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydigan amaliyotdir.

Vertikal cheklashlarga sotuvchi-oluvchiga (masalan tayyorlovchi-tarqatuvchi) nisbatan (vertikal) o'zaro harakatlanuvchi har ikkala tomon harakatlarini cheklash, majbur qilish yoki man qilishga yo'naltirilgan barcha amaliyot sifatida keng talqin qilish mumkin. Narxni to'g'ridan-to'g'ri o'rnatish orqali narxni cheklashga majbur qilish, shuningdek narx bilan bog'liq bo'lmagan cheklashlarga majbur qilish xatti-harakatlarni boshqa jihatlari hisoblanadi.

Istisno bitim – yetkazib beruvchi o'z mahsulotini xaridorga sotar ekan, unga boshqa raqobatlashuvchi mahsulotni sotib olmaslik shartini qo'yadi. Bitim tuzishdan bosh tortish – yetkazib beruvchi sotib olishni hohlagan tomonga mahsulot sotishdan bosh tortadi. Qayta sotishda narx belgilash – yetkazib beruvchi tarqatuvchiga o'zi aytgan narxda sotish sharti bilan mahsulot yetkazib beradi. Hududiy cheklash – yetkazib beruvchi narx sohasida kamsitishni qo'llab quvvatlagan holda, ko'rsatilgan hudud chegarasidan tashqariga joylashtirmaslik sharti bilan sotadi. Paralell importni oldini olish ushbu cheklashning shakli hisoblanadi, buning uchun yetkazib beruvchi milliy tarqatuvchilarni boshqa mamlakatlarga mahsulot yetkazib berishlariga to'sqinlik qiladilar. Narx sohasida kamsitish – yetkazib beruvchi teng sharoitlarda turli tomonlardan turlicha haq oladi. Mukofot/ustama taklifi – yetkazib beruvchi ma'lum bir tomonlarga chegirmalar yoki boshqa imtiyozlarni beradi, ko'pincha bu narx sohasida kamsitish shaklida bo'ladi. Majburan qabul qildirish – yetkazib beruvchi mahsulot yetkazib berish bo'yicha kontraktga mahsulotni almashtirishga taalluqli bo'lmagan shartlarni kiritadi. Odatda ushbu shart yetkazib beruvchining boshqa mahsulotni ham sotib olishdan iboratdir. Butunlay majburlash – majburan qabul qildirish shakli bo'lib, bunda yetkazib beruvchi tarqatuvchidan uning barcha mahsulotni sotib olishini talab qiladi.

Muzokaralar pozitsiyasini suiiste'mol qilish – yetkazib beruvchi sotib oluvchini manfaatini ko'zlamagan holda kontraktga insofsiz yoki o'z mavqeini suiiste'mol qiluvchi shartlarni kiritadi.

Vertikal cheklashlar tarqatuvchilarni (chakana sotuvchilarni) xatti-harakatlarini cheklash uchun yetkazib beruvchilar va ularni tarqatuvchilari o'rtasida tuzilgan kontraktlardagi qoidalar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Monopoliyaga qarshi qonun ma'lum sabablarga ko'ra ushbu cheklashlarni man qiladi. Birinchidan, vertikal cheklashlardan o'zaro raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilarni raqobat bilan bog'liq bo'lmagan xatti-harakatlarini (va bozor hukmronligidan foydalanish) qo'llab-quvvatlash uchun foydalanish mumkin. Ikkinchidan, vertikal cheklashlar gorizontal cheklangan narx shakli sifatida (yetkazib beruvchilar emas balki tarqatuvchilar o'rtasida) qayta sotish uchun yetkazib beruvchi tomondan narxlarni kiritishni jamoa tarzida ushlab ushlab turishi mumkin bo'lgan tarqatuvchilarni bozor hukmronligidan foydalanishi qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu shaklda vertikal cheklashlar yangiliklarga to'sqinlik qilishi mumkin. Uchinchidan, va xalqaro miqyosida eng qizig'i, vertikal cheklashlar narx sohasidagi jug'rofiy kamsitishlardan foydalanilgan holda jug'rofiy asosda bozorlar segmentatsiyasi uchun yetkazib beruvchiga vositalarni taqdim etishi mumkin. Ushbu ssenariy nafaqat yetkazib beruvchilar tomonidan bozor hukmronligidan foydalanishiga imkon beradi, balki tarqatuvchilar (milliy) o'rtasida noqulay raqobatni yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, vertikal cheklashlar ma'lum holatlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin. Masalan, narxni vertikal cheklash mahsulotga nisbatan qimmat va maxsus xizmatlarni taklif qilishi va o'z navbatida xaridorlar ushbu xizmatlar yordamida mahsulot yuqori sifatga egaligidan xabardor bo'lishi maqsadida tarqatuvchilardan ta'sir ko'rsatishini talab qilishi mumkin. O'xshash tarzda, yuqori ustamalar tarqatuvchilardan mahsulotga nisbatan ma'lum xizmatlarni talab qilish uchun yetarli bo'lmaydi, ma'lum vertikal cheklashlar (masalan bitim tuzishdan bosh tortish) kontrakti bajarishni ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Uning yordamida yetkazib beruvchilar qimmat xizmatlarni yetkazib beruvchilarni mukofotlaydi va ushbu xizmatlarni ko'rsatmaydiganlarni jazolaydi.

Vertikal cheklashlarni raqobat samaralari ma'lum yurisdiksiyalarda yumshoqroq rejimga olib keldi; masalan 1988- yilda AQSH Oliy Sudi yetkazib beruvchi va uni tarqatuvchi o'rtasida tuzilgan narx bo'yicha bitimlardagi vertikal cheklashlarga nisbatan (Sherman Hujjatiga asosan) taqiqlashlarni bir muncha susaytirdi. Nemislarning rejimi ham xuddi shunday bo'lishiga qaramasdan, AQSH nisbatan birmuncha yumshoqroq. Rasmiy tarzda vertikal cheklashlar va narxlarni o'rnatilishi Germaniya qonuniga asosan noqonuniy hisoblanadi, birinchidan – to'g'ri yondashish qoidasiga binoan va oxirgisi – standartga (andozaga) asosan. Lekin shunga qaramasdan, narx bilan bog'liq bo'lmagan vertikal cheklashlarni taqiqlashga unchalik rioya etilmaydi, va bu to'g'ri hisoblanadi hamda undan keng foydalaniladi. Yaponiya ma'lum vertikal cheklashlarni taqiqlaydi, ayniqcha standartga asosan ma'lum yetkazib beruvchilarga raqobat zararini etkazishi mumkin bo'lganlari man qilinadi. Haqqoniy (insofli) savdo-sotiq bo'yicha komissiya 1962 yildagi Hujjatga asosan noto'g'ri mukofot va yetkazib beruvchilarga "mukofot" (o'z ichiga narx bo'yicha chegirmani olgan) cheklash yoki man qilish maqsadida noto'g'ri fikr uyg'otuvchi tasavvurlarga nisbatan ma'lum vakolatlarga ega.

Monopoliyaga qarshi huquqlarga rioya etilishi ma'lum yurisdiksiyalarda to'g'ri yondashish qoidasiga suvansada, ko'pchilik holatlarda nax va narx bilan bog'liq bo'lmagan vertikal cheklashlar qonunbuzilish holati sifatida ko'riladi. Fransiya qonuniga binoan, qayta sotish narxlarini belgilash rasmiy tarzda to'g'ri yondashish qoidasiga asosan ko'rib chiqiladi va xaridorlar uchun narxlarni oshirishda foydalanilmasa, unga nisbatan sanksiyalar qo'llanilishi mumkin bo'ladi. Bunday sanksiyalar kamdan-kam uchraydi, lekin shunga qaramasdan qayta sotish uchun narx o'rnatish o'z-o'zidan noqonuniy hisoblanadi. Bunday rejim sotishdan bosh tortish va istisno bitimlar tuzishda (oxirgisi agarda ushbu bitim xizmat ko'rsatishni yaxshilashga yo'naltirilgan bo'lsa qonuniy hisoblanadi) qo'llanilishi mumkin. Narx sohasida kamsitish yetkazib beruvchi raqobat darajasiga etib olmaguncha (AQSH va EH singari) Fransiya hududida noqonuniy hisoblanadi. SHvedlarni monopoliyaga qarshi qonunida keng jamoatchilik manfaatlari mezonlariga asoslangan taqiqlashlar

bilan to'g'ri yondashish qoidasi mavjud, bunda qayta sotish narxlarini belgilay ushbu standartlarga muvofiq ko'rib chiqiladi va jinoiy qonun buzilish hisoblanadi.

Raqobat to'g'risidagi qonunlar odatda bozor hukmronligi yohud ustun mavqe hisobiga yirtqichlik qilishni taqiqlaydi. Bozor hukmronligini tahlil qilish ba'zida mahsulot diapazonini kengaytiruvchi vetrikal yoki potensial raqobat natijasida yetkazilgan zarar asosida konglomerativ qo'shilishlarga aralashishlarni asoslashda foydalaniladi. Bozor hukmronligini tahlil qilish shuningdek haqiqiy yirtqichlikka qarshi aralashish uchun baza yaratadi. Ustunlik konsepsiyasi potensial yirtqichlik nuqtai nazaridan tranzaksiyalarni blokirovkalash uchun baza yaratgan va qo'shib ketgan firmalarni moliya resurslarini oshish darajasini ("CHuqur kissalar" nazariyasi, unda yirtqichlik qilish uchun katta miqdorda moliyaviy resurslar kerak bo'ladi, chunki haqiqiy tannarxdan past baholarda sotish muqarrar zararni keltiradi) o'rgangan holda oldinga qarab odimlaydi.

Barcha o'rganib chiqilgan iqtisodiyotlar o'z mavqeini suiiste'mol qilish yoki monopollashishga intilish sifatida yirtqichlikni taqiqlaydilar. Yaponiyada yirtqichlik ("noto'g'ri arzon narxlar" olish) insofsiz ish amaliyoti sifatida ko'riladi, "noto'g'ri arzon narxlar" esa ishlab chiqarish xarajatlaridan past narx hisoblanadi. AQSH ko'pchilik sudlari qisqa muddatli yoki marjinal xarajatlarni belgilanishi, yirtqich narxlarni belgilanishi sifatida qabul qilinadi. Ushbu standartlarni tanlanishi narxlarni qisqa muddatli marjinal xarajatlardan past qilib belgilanishi qisqa muddatlarda foyda darajasini oshishi bilan o'zaro nomutanosib bo'ladi degan tahminga asoslanadi.

Aksariyat hollarda gorizontal va vertikal cheklashlar samaradorlikni oshirish potensialiga ega bo'ladi va shuning uchun to'g'ri yondashish qoidasi standartiga muvofiq ko'rib chiqiladi. Cheklashlarni qo'yuvchi ishlab chiqaruvchi bozorda kichik ta'sirga ega yoki umuman ta'sirga ega bo'lmagan holatini topish ehtimoldan holi emas. Lekin cheklashlar iqtisodiy tomondan ustunlikka ega bo'lgan yoki bozorda yetarli darajada hukmronlikka ega bo'lgan firma tomonidan qo'yilsa, cheklashlarni raqobatga qarshi samarasi qonunga muvofiq ko'rib chiqiladi va trestlarga qarshi taqiqlash nisbatan qattiq bo'ladi.

Hukmronlikni aniqlash murakkab bo'lganligi va har bir aniq holatda amalga oshirilishi sababli, ushbu cheklash amaliyotiga yondashish to'g'ri yondashishni qisqartirilgan qoidasi sifatida ko'rilishi mumkin. Demak, ma'lum holatda cheklashlarni huquqiyligi to'g'risida qaror, ushbu firma davlatga qarashlimi yoki yo'qligini aniqlashni talab qiladi. Masalan, EI paralell yoki boshqa import, narxni noto'g'ri o'rnatish, istisno bitimlar yoki bitim tuzishdan bosh tortish bularni hammasi agar hukmron firmalar ulardan foydalansa, standartga asosan cheklashlarga misol bo'ladi.

Germaniyada shart qo'yish orqali shartnoma tuzish, yetkazib berishdan bosh tortish va chegirmalarni ma'lum amaliyoti odatda (kichik firmalar foydalanadi) to'g'ri yondashish qoidasiga binoan ko'rib chiqiladi va agarda undan hukmron firma foydalansa u holda noqonuniy hisoblandi.

Bozor hukmronligiga asoslangan raqobat to'g'risidagi qonunlar odatda iqtisodiy samaradorlikka va iste'molchilarni iqtisodiy farovonligiga e'tibor qaratadi. Ustunlik konsepsiyasi bozor hukmronligini amalga oshirishni qamrab olsada, ustunlikni ma'lum hollarda qo'llanilishi oxirgi iste'molchilar manfaatlarini emas, balki savdo bo'yicha hamkorlarni yuqori va quyi ierarxiyasi manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi. Bozor hukmronligiga asoslangan raqobat to'g'risidagi qonunlar, bunga AQSH siyosati guvoh bo'ladi, odatda samaradorlikni oshirish sifatida vertikal integratsiyalashishni baholaydilar. Aksincha, ustunlikka asoslangan qonunlar esa ba'zan ustun mavqega ega bo'lgan firma vertikal integratsiyalashishni vujudga keltirmoqchi bo'lsa, ushbu jarayonni qiyinlashtiradi.

O'rganib chiqilgan iqtisodiyotlarni ko'pchiligini ko'rsatishicha, ustunlik konsepsiyasiga suyanish vaqt birligida bozor hukmronligini kuchaytirish siyosatini amalga oshirish standartlarini va raqobat to'g'risidagi qonun uchun asos bo'lgan iqtisodiy samardorlikni o'zgartirdi. Dastavval ustun mavqeni suiiste'mol qilishni olini olish ko'zda tutilgan EH va Germaniyaning qonunlari ustunlikni aniqlash uchun (birgalikda) mezon sifatida bozor ulushi va bozorga kirishni (bozor hukmronligi) belgiladilar. EI ustunlik nisbatan tegishli bozorni, ya'ni bozor hukmronligi tahlilini

tegishli standartlar mos holda ustunlik yuzaga kelgan bozorni o'rganishni talab qiladi deb hisobladi.

Bozorga kirish umuman olganda bozor hukmronligi va o'z ustun mavqeini suiiste'mol qilishni amalga oshirish urinishlarini kompensatsiyalash uchun eng kuchli bozor kuchi hisoblanadi. Shuning uchun bozorga kirish uchun mavjud to'siqlarga bozor ushbu o'zgarayotgan sharoitlarga tuzatishlarni qanday muddatda kiritishi ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bozorga kirish qiyin bo'lgan sharoitlarda amalga oshiriladigan monopoliyaga qarshi siyosatni qisqa muddatli bozor kuchlarini o'rnini bosuvchi regulyatori sifatida ko'rish mumkin, ular boshqa holatlarda oz fursat ichida tuzatishlarni kiritishni ta'minlay olmas edilar.

Yevropa Ittifoqi monopoliyaga qarshi qonunchilik yaxshi shakllantirilgan bo'lib, u raqobat erkinligini cheklashga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Ushbu qonunchilik korxona tadbirkorlarga asossiz imkoniyat va imtiyozlar berayotgan proteksionizmga qarshi chora-tadbirlarni qo'llashni ham nazarda tutadi. Umuman olganda raqobat erkinligi mudofaasi tamoyilini izchillik bilan kuzatish orqali Yevropa Ittifoqi qonunchiligi oxirgi raqobat cheklab qo'yilgan holatlarni ko'rib chikadi. Yana xuddi shunday ataladigan raqobat erkinligini cheklashning aniq jihatlari mavjud bo'lganda yo'l qo'yiladigan umumiy (Yevropa Ittifoqi me'yoriy aktlarda yozib qo'yilgan) va individual (har bir aniq holatlarda takdim etilgan) istisnalar mavjud.

Raqobat masalalari bo'yicha Yevropa Ittifoqining antimonopol siyosati va xuquqlari tamoyillari "Ta'sischilar shartnomasi"da keltirilgan (5-bo'lim 3-qism "Raqobat masalalari, soliqqa tortish va qonunchiliklarning yaqinlashishi bo'yicha umumiy xuquqlari": 1-bob. "Raqobat Qoidalari", undan oldin 85, 86, 91, 92-m.). 85-modda umumiy bozor ichidagi raqobatning yo'qotilishi, cheklash yoki qoidaning buzilishiga qaratilgan kelishuvlarni taqiqlaydi. 86-moddada bozordagi ustun holatni suiiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik haqida keltirilgan. 91-modda esa dempingga qarshi choralarni tadbiq qiladi. 92-moddaga ko'ra, davlatlar tomonidan kompaniyalar hamda tarmoqlarga ko'rsatiladigan har qanday yordam, agar u aloxida korxonalar va ishlab chiqarish sohalari uchun qulay sharoit yaratib, raqobatni buzsa yoki buzilishiga tahdid solsa. bunday yordam umumiy bozor bilan nomutanosibdir.

Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi shartnomadan tashqari, Yevropa Ittifoqining raqobat erkinligi to'g'risidagi huquq me'yorlari 87-moddaga muvofiq Ittifok tasdigi bilan reglamentlar va direktivalarda belgilab qo'yiladi. Yevropa Sudining shunga uxshash huquqi, Komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlari va EI mamlakatlari milliy sudlari va ma'muriy organlari tomonidan EI ning qonunchilik nizomlarining izohi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlarini taqiqlash tartib va mezonlari "Yevropa Ittifoqi faoliyati to'g'risidagi shartnoma"ning 85-moddasida belgilangan. Ushbu qonunga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi umumiy bozorga nomuvofiq bo'lgan har qanday kelishuvlarni, xo'jalik yurituvchi subyektlar birlashmalari tomonidan qabul qilingan qarorlarni, a'zo davlatlar orasidagi savdoga ta'sir qiluvchi kartel amaliyotini, umumiy bozor ichidagi cheklovlarini hamda raqobatni buzishni taqiqlaydi. Bu moddada, shuningdek, qoidabuzarlikka o'xshash yo'qotib bo'lmaydigan hodisalar ro'yxati keltiriladi.

Mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiqqa ta'sir (salbiy) ko'rsatishi mumkin bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi barcha bitimlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar assotsiatsiyalarini qarorlari va kelishilgan harakatlari, ya'ni:

a) *Sotish va sotib olish narxlarini yoki savdo-sotiqni boshqa shartlarini bevosita yoki bilvosita belgilanilishi;*

b) *Ishlab chiqarishni, bozorlarni, texnik rivojlanishni, yoki investitsiyalarni cheklanishi yoki nazorat qilinishi;*

c) *Bozorlarning yoki yetkazib berish manbalarining taqsimlanilishi;*

d) *Savdo-sotiq bo'yicha boshqa hamkorlar bilan ekvivalent bitimlarga teng bo'lmagan shartlarni qo'llanilishi va shu bilan raqobatchilarning noqulay ahvolga solinilishi;*

e) *Savdo kontrakt (bitim, shartnoma) predmeti bilan bog'liq bo'lmagan shartlarni qo'shimcha tarzda kontrakt bandlariga kiritish sharti bilan kontrakt tuzish.*

SHunday qilib, moddada ushbu bitimlarni asosiy turlari ro'yxatini keltiriladi.

Asosiy mezonlar:

1. Harakatlar tomonlar o'rtasida kelishilgan (mumkin bo'lgan barcha shakllarda).

2. Harakatlarni maqsadi yoki samarasi raqobatni oldini olish, cheklash yoki buzish.

Biroq, istisno holatida Rim SHartnomasining 82 -moddasida ma'lum mezonlarga javob beruvchi istisnolarga ruxsat beriladi:

- ishlab chiqarishni yaxshilashga (kelishib qilingan harakat) va tovarlarni tarqatishga yoki texnika taraqqiyotiga hissa qo'shadi, shu bilan birga iste'molchiga oxirgi foydadan insofli ulushni bersa;

- ko'rilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga ushbu maqsadga erishish uchun majburiy bo'lmagan cheklashlarni qo'yilmasa;

- Ushbu xo'jalik yurituvchi subyektlarga ko'rilayotgan bozor qismlarida raqobaini cheklash imkonini bermagan holatlarda.

Bu ro'yxatga muvofiq ravishda raqobatni cheklashga yo'naltirilgan harakatlar deganda quyidagi hodisalar keltiriladi:

- sotib olish, sotish yoki boshqa savdo shartlariga bevosita yoki bilvosita narx belgilash;

- ishlab chiqarish, bozorlar, texnik rivojlanish, kapital qo'yilmalarni cheklash yoki nazorat qilish to'g'risidagi bitim yoki qarorlar;

- ta'minot bozorlari yoki manbaalarining taqsimotini belgilash;

- turli savdo hamkorlari bilan o'xshash bitimlar uchun bir xil bo'lmagan shartlarni qo'llash va boshqalar.

Ro'yxatda keltirilgan qoidabuzarliklar subyektlari bo'lib har qanday (shu jumladan, chet el, mamlakat hududida ro'yxatga olingan, Elga kirmaydigan) kompaniyalar, kompaniya birlashmalari, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlar (yakka tartibdagi tadbirkorlar) bo'lishi mumkin. Bunda eng muhimi, qoidabuzarlik kamida ikkita bir-biri bilan iqtisodiy bog'liq bo'lmagan birga ishlovchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sodir etilgan bo'lishi kerak. Bitta xo'jalik yurituvchi subyekt ushbu qoidabuzarlikning subyekti bo'la olmaydi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ustun mavqeni suiste'mol qilish tartib va mezonlari "Yevropa Ittifoqi faoliyati to'g'risidagi shartnoma"ning 86-moddasida belgilangan. Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi SHartnomaning 86-moddasi 1-bandiga ko'ra, umumiy bozor hududida yoki uning ahamiyatga ega bo'lgan qismida bir yoki bir necha xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan o'zining ustun mavqeini suiste'mol qilish, bunday hatti-harakat a'zo davlatlararo savdoga qanchalik zarar keltirishi mumkinligi darajasida umumiy bozor bilan nomutanosib holat sifatida man qilinadi.

Bunday qoidabuzarlikning subyeksi sifatida bitta xo'jalik yurituvchi subyekt (odatda), shuningdek, bir necha xo'jalik yurituvchi subyektlar xizmat qilishi mumkin. Bir necha xo'jalik yurituvchi subyektlar, asosan, ular yuridik jihatdan mustaqil, lekin iqtisodiy tomondan o'zaro bog'liq bo'lgan taqdirda birgalikda bozorda ustunlikka erishadilar. Biroq nazariya bo'yicha bozorda ham yuridik, ham iqtisodiy jihatdan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan birgalikdagi ustunliklarini suiste'mol qilish holati ham mavjud bo'lishi mumkin.

Komissiya tomonidan "ustun mavqe" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: *"xo'jalik yurituvchi subyekt raqobatchilar, haridorlar va mol yetkazib beruvchilarni xisobga olmagan x,olda mustaqil harakat qilish imkoniga ega bo'lganda, bozorda ustunlikka erishadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt bunday holatga ushbu mahsulot bozoridagi ulushi, texnologiyalar, xom-ashyo bozorlariga yo'lining ochiqqligi, moddiy boyliklar va kapitalning mavjudligi tufayli erishishi mumkin"*.

O'zining vaziyatidan kelib chiqqan holda, ustun mavqedagi xo'jalik yurituvchi subyekt narxlarni belgilashi, ishlab chiqarishni yoki ma'lum mahsulotning kattagina qismining taqsimlanishini nazorat qilishi mumkin bo'ladi. Bunday holat bozorning boshqa qatnashchilariga butunlay bosim o'tkazishiga imkon beruvchi mutlaq hukmronlik bilan bog'liq bo'lishi shart emas, ammo xo'jalik yurituvchi subyektning boshqalar bilan hisoblashmasdan mustaqil harakatlanishi uchun yetarli bo'lishi kerak.

SHuningdek, firmalarning ustun mavqeni e'tirof etishda **konsentratsiyalar** mezonlarining roli Rim Shartnomasining 82 -moddasida belgilangan. Unga muvofiq, firma ustun mavqe deb e'tirof etilishi uchun bozor ulushining chegaraviy qiymati

belgilanadi. AQSH raqobat qonunchiligidagi savdo aylanmasidagi minimal ulush bitta firma uchun 33%, uchta firma uchun mos ravishda 50%, beshta firma uchun 67%dan yuqori etib belgilangan. Bu holatda bozorda raqobat muhiti yo'q deb hisoblanib, undagi firmalarning harakatlarini tahlil etish zaruriyati tug'iladi. Bozor ulushlarining bunday taqsimlanilishi, EI va boshqa mamlakatlar uchun asos hisoblanadi. Umumiy holatda *EI mamlakatlari uchun bu ko'rsatkich 40%ni tashkil etadi. Istisno holatlarda, bu ko'rsatkich 25% (Fransiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya) dan 40% (SHvetsiya, Polsha, Litva)gacha bo'lishi mumkin.* Ushbu qonunga muvofiq yakka tartibdagi va jamoa tartibidagi ustun mavqeni suiste'mol qilinishi man etiladi.

Insofsiz raqobat ustidan nazorat olib borish va uni to'xtatish vakolatlari to'liqligicha EI a'zo mamlakatlarning milliy qonunchiliklariga yuklatiladi.

Patent qonunchiligini Yevropa tizimidagi mamlakatlar ichida Buyuk Britaniya nazoratining ikkita tizimi bo'lgan mamlakatlarning yorokin nomoyondasi. Ulardan birinchisi haqqoniy savdo va raqobat qonunlariga asoslangan bo'lib, asosiy rolni haqqoniy savdo bo'yicha tashkilot, monopoliya bo'yicha komissiya davlat, savdo va sanoat kotibiyati uynaydi. Cheklangan savdo amaliyoti Qonunchiligida ko'rsatilgan ikkinchi nazorat tizimida esa asosiy rolni cheklangan amaliyot sudiga olib borishadi. Umuman olganda, qonunchilik Amerika antetrestlaridan liberalrok,, chunki an'anaviy britan siyosati savdo erkinligiga va xo'jalik yurituvchi subyektlarni xo'jalik faoliyatiga bevosita davlat aralashuvini minimallashtirishga asoslangan. Hukumron holatidan suistemol qilinishi haqidagi ma'lumotlar to'planadi va tahlil qilinadi. Barcha tarmokdagi monopol vaziyat haqidagi ishlarni monopoliya bo'yicha komissiyaga topshirish, kartel shartnomalarini cheklangan amaliyot bo'yicha sudiga topshirish, qayta sotiluvchi narxlarni qo'yish va sotishga ta'luqli ishlarni ko'zg'atish.

Bozorlar tuzilmasida qo'llaniladigan raqobat to'g'risidagi qonun korporatsiyalar o'rtasidagi qo'shib olish (korporativ tranzaksiyalar), xo'jalik birlashmalari tashkil qilish va aktivlar transfertlari bo'yicha bitimlarga aralashadi. Ushbu aralashish tranzaksiyalar o'zaro raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilarni mustaqilligini susaytirish va iqtisodiy bozorlardagi konsentratsiyalashuvni yuqori darajalarga ko'tarishda sodir bo'ladi. Tarixan, Germaniya va AQSHda qo'shib ketish to'g'risida

oldindan habar berish va iqtisodiy bozorlarda yuqori konsentratsiyalashuvga olib keluvchi korporativ tranzaksiyalarni man qilish talablari orqali faol aralashuv amalga oshirilgan, boshqacha qilib aytganda, yirik iqtisodiy subyektlar xalqaro bozorlarda raqobatlasha oladi degan nuqtai nazardan, o'rganilgan qonunchiliklar bozor tuzilmasi ustidan yetarli darajada nazoratni amalga oshirmaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Hozirgi davrda Rossiya Federatsiyasining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi qanday kechmoqda?
2. Rossiya Federatsiyasining monopoliyaga qarshi xizmati qanday ataladi?
3. Rossiya Federatsiyasining monopoliyaga qarshi qanday qonunchiligi mavjud?
4. Monopoliyaga qarshi faoliyatni tartibga solishning qanday usullari bor?

5-bob. IQTISODIY KONSENTRATSIYA VA UNI TARTIBGA SOLISH

5.1. Iqtisodiy konsentratsiyaning mohiyati

5.2. Qo'shib olish va birlashish jarayonlarini tartibga solish

5.3. Xorijiy davlatlarda iqtisodiy konsentratsiyani tartibga solish

Korporatsiyalarning muvofaqqiyatli rivojlanishining muhim sharti va bir vaqtning o'zida ushbu jarayonning natijasi bu ularni umumiyashtirish darajasining doimiy o'sishi bilan bog'liq. Mazkur umumiqsodiy qonunning amal qilishi to'xtovsiz va doim yiriklashib boradigan konsentratsiga va kapitalning markazlashishiga, ishlab chiqarishning monopoliyalashuvga olib keladi.

Hozirda ishlab chiqarishni progressiv rivojlantirish, eng zamonaviy texnologik yutuqlarni qo'llash uchun resurslarni markazlashtirish kerak bo'ladi. Bitta korxona bozor segmentini ushlab turish, bozor raqobatiga bardosh berish uchun resurga ham, intellektual kuchga ham ega emas. Bozor segmentini ushlab turishning texnologik darajasi faqat o'zlarining kuchlari va resurslarini birgalikdagi texnologik majmuada birlashtirgan korxonalar guruhi dorasida saqlanadi.

Jahon iqtisodining rivojlanishi ishlab chiqarish va kapitalning bir davlat milliy chegaralari doirasida markazlashuvi va konsentratsiyasi chegarasidan chiqib, internatsional darajaga chiqishi bilan tavsiflanadi. Aksariyat bozorlar raqobat va monopoliya o'rtasidagi oraliq holatni egallaydi.

Yirik korxonalar kichiklari oldida hal qiluvchi ustunliklarga ega. Korxona qancha yirik bo'lsa ishlab chiqarishni yaxshilash imkoniyati ko'proq bo'ladi, yangi texnikalarni kiritishi, texnologik yangilanishlarni kiritish imkoniga ega bo'ladi va shu bilan mahsulot ishlab chiqarishdagi sarf xarajatlarni kamaytiradi.

Yirik korxonalar kichiklariga nisbatan kreditlardan kengroq foydalanishi mumkin. Yirik korxonalar ishlab chiqarish binolarini barpo etish va saqlash, xom ashyo va materiallarni sotib olish va etkazish, tayyor mahsulotlarni sotish bilan bog'liq xarajatlarni tejash yo'li orqali ishlab chiqarishdagi sarf xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Erkin raqobatni to'laqonli xukmronligida amal qiladigan

kapitalizmning iqtisodiy qonunlari natijasi o‘laroq kuchsiz korxonalar tubga sho‘ng‘ib ketadi, yirik o‘yinchilar esa suv yuzasiga qalqib chiqadi.

Hozirgi davrda iqtisodiy rivojlanish kapitalni konsentratsiyalash va markazlashtirishni taqozo qiladi. Kapitalni konsentratsiyalash va markazlashtirish ishlab chiqarishni konsentratsiyalash, yirik korxonalarning o‘rni va ahamiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Yetarli darajada rivojlangan ishlab chiqarishni konsentratsiyasi monopoliyani keltirib chiqaradi. SHunday qilib, monopoliyalarga o‘tish ishlab chiqarishni konsentratsiyalash bilan tayyorlangan, ishlab chiqarishni konsentratsiyalash esa o‘z o‘rnida erkin raqobat asosida rivojlangan.

Konsentratsiya iqtisodiy kategoriya sifatida xo‘jalik yurituvchi sub’etlarni maqsadli tarzda o‘z bizneslarini kengaytirish va mustahkamlashni namoyon qiladi. U ishlab chiqarishning texnik – tashkiliy sharoitlarini o‘zgarishini natijasi sanaladi va u ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etishni va mulkiy munosabatlarni o‘zgarishini namoyon qiladi. Konsentratsiya ishlab chiqarish hajmlari(masshtab)ni kengaytirish jarayonlarini obektiv namoyon qiluvchi jarayon hisoblanadi. Keskin raqobat kurashi ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarish jarayonlarini texnik-texnologik takomillashtirish, korxonani kengaytirishga majbur qiladi, bu esa ishlab chiqarishning yangi manbalarini jalb qilishni taqozo etadi. Ularning aksariyati esa yirik ishlab chiqarishda samaradorlikka erishadi.

Iqtisodiy konsentratsiya uzoq yillardan mavjud hisoblanadi. Lekin bu boradagi eng katta o‘zgarishlar 90 yillarnin 1- yarmidan 2000- yillarning o‘rtalarigacha kuzatilgan. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy konsentratsiya jarayonlarini rivojlanishiga quyidagi omillar o‘z ta’sirini o‘tkazgan:

- fan – texnika taraqqiyoti, AKT jadallik bilan rivojlanishi, NIOKR xarajatlari va tavakkalchiligini ortishi;
- global iqtisodiy makon tashkil qilinishi jarayoni, raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun samarli strategiyalar ishlab chiqish zarurligi;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlarni liberallasuvi.

Bu bosqichda jahon iqtisodiyotida konsentratsiya kelishuvlari ham son ham summa bo‘icha oshib bordi (bir davlat ichidagi kompaniyalar o‘rtasida yoki alohida

joylashgan davlatlar o'rtasida). YUNKTAD mahlumotlariga ko'ra xalqaro qo'shib olish va birlashuvlarning umumiy qiymati 1994- y. 127 mlrd. AQSH doll. tashkil etgan bo'lsa, 2000- yil 9- braobarga ortib 1144 mlrd AQSH doll. ga etgan. Mega kelishuvlar (1mlrd. doll. ortiq) soni 1994- y. 24 (51 mlrd. AQSH doll.) dan 2000- y. 175 (866 mlrd. AQSH doll)ga ortgan. Bu jarayonda eng katta hissa AQSH TNK, keyin Buyuk Britanii, Fransiya va Germaniya hissasiga to'g'ri keladi (90%). 2007 yilda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hajmi dunyo bo'yicha tarixiy rekord 2 trln. AQSH doll.ni tashkil qildi. Ularning 43 foizi rivojlanayotgan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi (Xitoy, Rossiya). 2007- yildan keyin qo'shib olish va birlashshi jarayonlari kamayib bordi. MDH davlatlariga bu holat 2008- yillar oxiri va 2009- yillarning boishda sezilarli bo'ldi. Bunga sabab jahon fond birjalaridagi holat va korporativ daromadni kamayib ketishi hisoblanadi. Masalan 2008- yilda tog' – kon sanoatida avvaldan belgilangan qo'shib olish va birlashish jarayotnlarining atigi 55 foizi amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi 2012- yil 6- yanvardagi № ZRU-319- sonli Qonuniga asosan iqtisodiy konsentratsiya – xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustunligiga olib keladigan, tovar yoki moliya bozoridagi raqobatning holatiga ta'sir ko'rsatadigan bitimlar tuzish va (yoki) boshqa xarakatlarni sodir etish hisoblanadi (4-m. 3-q.).

Iqtisodiy konsentratsiya ostida avvalam bor tijorat tashkilotlarni muayyan shartlarda tashkil etilishi va qayta tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lgan bitmlar, muayyan shartlarda aksiyalar va ulushlar (aktivlarning miqdori, sotilgan tovardan foyda va h.k.) bilan bog'liq bitmlar va raqobatning holatiga ta'sir ko'rsatuvchi ayrim boshqa bitmlar.

Iqtisodiy konsentratsiyaning dastaklari (instrument) qo'shib olish va birlashish hisoblanadi. Birlashish deganda yuridik shaxs - kompaniyalar aksiyalarini nazorat paketi, ulushi sotib olish, aktivlarini va mol – mulkini birlashtirish orqali uni ustidan nazorat o'rnatishga aytiladi.

Qo'shib olish va birlashish ([angl. mergers and acquisitions, M&A](#)) — biznesni va kapitalni kengaytirish maqsadidagi makro va mikroiqtisodiyot darajasidagi

iqtisodiy jarayon hisoblanadi, buning natijasida bozorda yirik kompaniyalar paydo bo'ladi.

Birlashish — bu ikki yoki undan ortiq xo'jalik yurituvchi subektlarni birlashishi natijasida yagona iqtisodiy birlikni kelib chiqishidir. Birlashish - bu shunday jarayonki unda kompaniyalar mustaqil yuridik shaxs yoki soliq to'lovchi maqomini yo'qotadi. Birlashish natijasida tuzilgan kompaniya barcha aktivlarni boshqarish va birlashmaga qo'shilgan kompaniya majburiyatlari ustidan nazoratni o'z qo'lga oladi. Aktivlarni birlashishi – kompaniyalar birlashishi jarayoni, kompaniya egalari o'z aktivlarini yangi birlashmaga nizom jamg'armasiga ulush sifatida kiritadi va ular ustidan nazoratni yangi kompaniyaga topshiradi, kompaniya faoliyati va tashkiliy – huquqiy shakli saqlanib qoladi.

Birlashish – kompaniyalar birlashmasi bo'lib unda birlashayotgan kompaniyalardan biri o'z faoliyatini davom ettiradi, boshqalari esa o'z mustaqilligini yo'qotadi va yuridik shaxs sifatidagi faoliyatini to'xtatadi. Bosh kompaniyaga birlashtirilgan kompaniyaning barcha huquq va majburiyatlari beriladi.

Qo'shib olish — qo'shib olinayotgan kompaniyaning nizom jamg'armasining 30 foizdan ortiq ulushni sotib olish yo'li bilan xo'jalik yurituvchi subyekt ustidan nazoratni o'rnatish bo'yicha kelishuv hisoblanadi. Qo'shib olish biznesni sotib olish kelishuvi, bunda qo'shib oluvchi kompaniya o'ziga boshqa kompaniyani qo'shib oladi yoki aksiyalarning nazorat paketini qo'lga kiritish bilan cheklanadi va qo'shib olingan kompaniya sho'ba korxonasi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Qo'shib olishda nazorat bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tadi. Ba'zi holatlarda esa nazorat bilan birga qo'shib olingan kompaniya boshqaruvchilari ham o'zgartiriladi. Qo'shib yuborishni nazorat qilishdan asosiy maqsad qo'shib yuborish natijasida ustun mavqe yuzaga kelishi yoki rivojlanishi mumkin. Bu tufayli esa iste'molchilar sog'lom raqobat natijasida erishiladigan ko'plab yutuqlardan mahrum bo'lishlari mumkin, xususan, past narxlar, mahsulotning yuqori sifati, tovarlar va xizmatlarning keng tanlovi va innovatsiyalar. Qo'shib yuborish natijasida esa kompaniya tegishli bozordagi narxni muvofiqlashtirishi va oshirishi mumkin

Birlashish bilan qo'shib olish o'rtasidagi farq to'g'risida fikr yuritilganda birlashish bir xil hajmdagi kompaniyalar orasida amalga oshiriladi. Lekin ikkita bir xil kompaniya bo'lmaydi, shuning uchun ayrim iqtisodchilar birlashish va qo'shib olish orasidagi farqni quyidagicha baholaydi: birlashishda ikki kompaniya birlashadi va menedjerlar bir birini o'rnini to'ldiradi, qo'shib olishda esa ulardan biri ustun mavqega ega bo'ladi.

Kompaniyalarni birlashishi va qo'shib olish jarayonlarni amalda oshirishda quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- iqtisodiy o'sishga intilish;
- ishlab chiqarish hajmini oshirish — bunda ikki yoki bir necha kompaniya aktivlari birlashganda umumiy natija ularni alohida faoliyat ko'rsatgandagidan samarali bo'ladi (ishlab chiqarish hajmi ortishi);

- diversifikatsiya;
- menedjerlarni shaxsiy motivlari;
- boshqaruv sifatini oshirishi (samarali boshqaruvga erishish);
- monopoliya erishishga intilish;
- qisqa vaqt davomida optimistik moliyaviy natijalarni ko'rsatish.

Iqtisodiy konsentratsiyaning quyidagi turlari alohida ko'rsatiladi:

- Gorizontal birlashish – bu bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchilar ikki yoki undan ortiq kompaniyani birlashishi. Uning maqsadi: raqobatbardoshlikni oshirish va boshqalar;

- Vertikal birlashish – bir kompaniya ikkinchisiga mahsulot(xomashyo) yetkazib beruvchi sanaladi. Maqsad: mahsulot tannarxini kamaytirish, rentabellikni oshirish.

Vertikal konsentratsiyaning maqsadi bozorda salmoqli o'ringa ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt ishtirokchilari tomonidan bozorga boshqa subyektlarning kirishiga to'sqinliklar yaratish bo'lishi mumkin, chunki boshqa subyektlar ishtiroki ularga bozorda o'z mavqeidan foydalangan xolda katta miqdorida foyda olishlariga to'sqinlik qilishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib vertikal konsentratsiya mavjud bozorlarga raqobat munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ayniqsa

bozorga kirish uchun to'siqlar yaratadi. Ushbu xavfga qarshi kurashish, ko'rsatilgan salbiy oqibatlariga qarshi kurashish monopoliyaga qarshi kurashish organ raqobatga zarar etkazishi mumkin bo'lgan, vertikal iqtisodiy konsentratsiyani amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan qonunchilikning maqsadini tashkil qiladi.

Parallel birlashish – bir biriga bog'liq tovarlar ishlab chiqaruvchilarni birlashishi. Masalan kompyuter i/ch kompaniya bilan uni ma'lum qismlarini ishlab chiqaruvchi kompaniyani birlashishi Afzalligi: i/ch xarajatlarini optimallashtirish, yangi kompaniya rentabelligini oshirish.

Konglomerat birlashuv – ishlab chiqarish va sotish faoliyati bir biri bilan bog'liq bo'lmagan, (raqabatchi, iste'molchi, yetkazib beruvchi emas) bir tarmoqda faoliyat ko'rsatmaydigan kompaniyalarning birlashuvi hisoblanadi. Ushbu konsentratsiya gorizontaal va vertikal turdagi konsentratsiya bilan qamrab olimgan barcha boshqa hollarni o'z ichiga oladi. Bu konsentratsiya ishtirokchilari:

a) o'zaro shartnomaviy xo'jalik munosabatlarida bo'lishmaydi;

b) bir tipdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi, lekin geografik joylashuvi nuqta'iy nazaridan raqabatchi bo'la olmaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlari hisoblanadi;

v) mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki sotish bilan funksional bog'liq bo'lgan xo'jalik subyekti hisoblanadi.

Iqtisodiy konsentratsiya turli hil ko'rinishlarni farqlab olish nafaqat nazariy, balki ko'proq amaliy jihatdan muhimdir, chunki ular o'rtasidagi sezilarli farq ularni monopoliyaga qarshi kurashish organlari tomonidan faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat berish yoki rad qilish masalasini hal qilishda har xil yondashuv asosida bo'lishi kerak. Raqobatga eng katta xavfni gorizontaal konsentratsiya to'g'diradi, chunki u xo'jalik subyekti maqomini bozorda kuchaytirishga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ko'p davlatlarning qonunchiligi birinchi navbatda ushbu ko'rinishdagi konsentratsiyani tartibga soladi.

Bozorda ushbu bitmlar va holat xarakati natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan o'ziga xos shartlar va sharoitlar mavjudligi, o'zining salmoqli mavqeini

suiste'mol qilishi, shuningdek, bunday suiste'molchilikni paydo bo'lishini oldini olish.

Bozorda xo'jalik yurituvchi subyektning (shaxslar guruhi) salmoqli o'rnini vujudga kelishi yoki kuchayishiga yo'l qo'ymaslik, agarda bu borada raqobatni cheklashga va bartaraf qilishga olib kelishi mumkin bo'lsa.

Monopoliyaga qarshi kurashish nazorati dastlabki va kelgusi shakllarda bo'lishi mumkin. Monopoliyaga qarshi kurashish nazorati qo'shib yuborilgunga, qo'shib olishga, tashkil etishga, bitm tuzishga yoki davlat nazorati obyekti hisoblangan boshqa xarakat sodir etishga qadar amalga oshiriladi va monopoliyaga qarshi kurashish organlari tomonidan raqobat to'g'risidagi Qonunga muvofiq iltimosnomada ko'rsatilgan xarakatlarni bajarishga ruxsat berish haqidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqishdan iborat bo'ladi. Bu holatda monopoliyaga qarshi kurashish organ ruxsati mavjudligi iltimosnomada ko'rsatilgan xarakatlarni amalga oshirishning zarur sharti hisoblanadi, bu esa davlat nazoratidagi xarakatlarni amalga oshirishga ruxsat beruvchi tartib o'rnatilganligini anglatadi.

Kelgusi nazorat monopoliyaga qarshi kurashish organ tomonidan xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sodir etilgan faktlar to'g'risida xabarnomalarni ko'rib chiqishdan iborat.

Kapitalning konsentratsiyasi yirik korxonalarning ahamiyati va roli va markazlashtirilishi ishlab chiqarish konsentratsiyasi bilan uzviy bog'liq.

Ishlab chiqarish konsentratsiyasi rivojlanishning yuqori pog'onasiga etishi natijasida monopoliya vujudga keladi. Shu tariqa, monopoliyaga ishlab chiqarish konsentratsiyasi orqali o'tilgan, ishlab chiqarish konsentratsiyasi esa, erkin raqobat asosida rivojlangan.

Ishlab chiqarish konsentratsiyasi ayrim hollarda birlashtirish bilan bog'liq bo'lib, odatda bir korxonada xar xil yoki aralashgan ishlab chiqarish sohalari mujassamlashgan bo'ladi. Turli xil ishlab chiqarish sohalarini birlashtirish yirik ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshiradi. Dastavval, birlashtirish ishlab chiqarishni arzonlashtiradi, xom-ashyodan foydalanishning ratsional va kompleks imkoniyatlarini oshiradi, jihozlardan yanada yaxshiroq foydalanish imkoniyatlarini

beradi. Keyinchaliq, birlashtirish ishlab chiqaruvchi korxonalarini savdogarlar va xom-ashyo egalarining daromadlaribilan bog‘liq muammolardan xalos etadi. Va nihoyat, korxonani birlashtirish bir turdagi mahsulotlardan olingan daromadlar bilan boshqa turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarni qoplash imkoniyatiga ega. Bu esa, ularga raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi.

Birlashtirish bilan bir qatorda, ishlab chiqarish va konsentratsiya shakli zamonaviy kapitalizm sharoitida diversifikatsiyani hosil qiladi.

Diversifikatsiya (lot. –diversificatio –o‘zgartirish, xar hillik) –bu xo‘jalik faoliyatini yangi sohalarga yoyish, kengaytirish demakdir (ishlab chiqarish mahsulotlari assortimenti, ko‘rsatilayotgan xizmatlar turi, faoliyatning geografik sohalari va hokazolarga yoyish, kengaytirish.). Tor ma’noda, diversifikatsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar yoki ularning asosiy vazifalaridan mustaqil ravishda korxonalarning tarmoqlashuvidir. Diversifikatsiya natijasida korxona ko‘p tarmoqli murakkab kompleksga aylanib boradi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda diversifikatsiya AQSH, shuningdek Angliya, G‘arbiy Germaniya va boshqa kapitalistik davlatlarda keng quloch yozdi.

Diversifikatsiya natijasida korxona nafaqat aralash turdagi, balki boshqa mahsulotlarning alohida turlarini ishlab chiqaradi. Mahsulotlarning detallari yoki qismlarini ishlab chiqaruvchi korxona, alohida tayyor mahsulotlar uchun detallar ishlab chiqarishga o‘tadi.

Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlab chiqariladigan mahsulotlar nomenklaturasini ko‘paytiradi. Bozor talabining muallaq bo‘lmagan shartlarida diversifikatsiya bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishdan boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tishga imkon yaratadi. Bu esa diversifikatsiyaning asosiy xususiyati-ya’ni har xillikdan ta’sirchanlikka o‘tishga olib keladi.

Bunday ta’sirchanlikdan ko‘zlangan maqsad, mahsulotlarning bir qancha turini bitta korxonada ishlab chiqarish, katta bo‘lmagan ixtisoslashgan korxonalarda ishlab chiqarishdan ko‘ra afzalroq sanaladi.

Monopoliyaga qarshi siyosat qonunchilikka asoslanib, raqobatni himoya qilishning muhim elementi bo‘lib hisoblanadi. U bevosita va operativ xatti-harakatlar

tarzidagi raqobatga xavf soluvchi tahdidlarni bartaraf qiladi, shuningdek, ularni paydo bo'lishini oldini oladi.

Monopoliyaga qarshi chora – tadbirlar – davlat tomonidan ta'minlanadigan iqtisodiy, ma'muriy va qonuniy choralar yig'indisi bo'lib, bozor raqobatini ta'minlash va bozor raqobatining normal mexanizmiga xavf soluvchi tahdidlarni oldini olish vositalari kompleksi hisoblanadi. Antimonopol rejim konsentratsiya darajasini tartibga solish va ishlab chiqarishni monopolizatsiya qilish, korxonalarning strategiyalari va yo'nalishlari, tashqi iqtisodiy faoliyat, narx va soliq bilan bog'liq tartibotni o'z ichiga oladi.

Davlatning monopoliyaga qarshi siyosatidan iborat ta'sir choralari kompleksiga asosan, raqobat bozorida yuqori moddiy holatdagi fuqarolarning erkin tarzda tovarlarolish va xizmatlardan foydalanishni taqozo qiluvchi umumiy konseptual vakillik o'rnatilgan. Shuningdek hisobga olish lozimki, agar shu tariqa amalga oshiriladigan barcha shartnomalar narx bo'yicha tuziladigan bo'lsa, jamiyat raqobat taraflarining narxlarni ko'tarish yoki pasaytirishga qaraganda ko'proq moddiy afzalliklarga ega bo'ladi. Raqobat bozori shu tariqa, umumiy ishlab chiqarishni universal tartibga soluvchi sifatida maydonga chiqadi. Shu o'rinda, tovar va xizmatlar bozorida qancha miqdorda nima ishlab chiqarishni iste'molchining o'zi hal qilishi bilan bog'liq savol tug'iladi.

Antimonopol qonunchilikning qayta ko'rib chiqilishi va qabul qilinishi-davlat iqtisodiy siyosatining eng asosiy moddalaridan hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda bu qonunchilikning o'ziga xos xususiyati shundaki, bozor mexanizmi kabi oligopoliyani himoya qilishga olib keladi. Monopoliyaga qarshi kurashning ikki xil shakli mavjud bo'lib, ular:

- monopoliyani vujudga kelishini ogohlantirish;
- monopol hokimiyatdan foydalanishni qisqartirish.

Iqtisodiyotda monopolizatsiyaga qarshi kurash ishlab-chiqarish-savdo faoliyatida firmalarning yiriklashib ketishi, qayta tashkil etilishi yoki bo'linishini ta'qiqlash orqali ham amalga oshiriladi. Turli xil davlatlarning xar xil

antimonopolistik qonunchiligiga qaramasdan, u umumiy maqsadlar va xususiyatlarga ega. Bularga:

- raqobatni rivojlantirish;
- bozorda asosiy o‘rin egallagan firmalarning faoliyatini nazorat qilish;
- iste’molchilarning manfaatlarini himoya qilish;
- kichik va o‘rta biznes shakllanishiga sharoit yaratish.

Bozorlarni hududiy bo‘lib olish, raqobatchilarga chora qo‘llash, sotib oluvchini muayyan manbalarga biriktirib qo‘yish, narxlar va chegirmalarni o‘zaro kelishgan holda belgilash, taklif xarakteridan kelib chiqib manipulyasiya maqsadida ishlab chiqarish kvotalarini belgilash, raqobatchi firmalarning yagona direktorlarini tayinlash subyektlarning noqonuniy xatti-harakatlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunida iqtisodiy konsentratsiyaga yo‘l qo‘ymaslik masadida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga talablar qo‘yilgan. Ularga taaluqlilari-tender savdolariga, birja savdolariga, xo‘jalik subyektlarini tashkil qilish, tugatish, qo‘shib olishga, aksiyalarga va boshqa mulkiy huquqlarga egalik qilishga nisbatan antimonopol talablardir.

Qolaversa, qonunda ba’zi faoliyat turlari uchun Raqobatga qarshi kurash qo‘mitasidan ruxsat olish tartiblari mustahkamlangan. Qonunning 18-moddasiga ko‘ra, Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning birlashmalarini tashkil etishga, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborishga, qo‘shib olishga doir harakatlarni amalga oshirishda va ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish bo‘yicha bitimlar tuzishda shaxslar yoki shaxslar guruhlar bu harakatlar sodir etilguniga (bitimlar tuzilguniga) qadar monopoliyaga qarshi organga:

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunida iqtisodiy konsentratsiyaga yo‘l qo‘ymaslik masadida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga talablar qo‘yilgan. Ularga taaluqlilari-tender savdolariga, birja savdolariga, xo‘jalik subyektlarini tashkil qilish, tugatish, qo‘shib olishga, aksiyalarga va boshqa mulkiy huquqlarga egalik qilishga nisbatan antimonopol talablardir.

Qolaversa, qonunda ba’zi faoliyat turlari uchun Raqobatga qarshi kurash qo‘mitasidan ruxsat olish tartiblari mustahkamlangan. Qonunning 18-moddasiga

ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlarning birlashmalarini tashkil etishga, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishga, qo'shib olishga doir harakatlarni amalga oshirishda va ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish bo'yicha bitimlar tuzishda shaxslar yoki shaxslar guruhlarini bu harakatlar sodir etilguniga (bitimlar tuzilguniga) qadar monopoliyaga qarshi organga:

- taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqishda ularda bayon etilgan axborotning ishonchsizligi yoki yolg'onligi aniqlansa, arizachiga oldindan rozilik berishni rad etishga haqli;

- monopoliyaga qarshi organ harakatlarni sodir etishga (bitimlar tuzishga) oldindan rozilik berishga va buni raqobatni ta'minlashga qaratilgan talablarni bajarishga bog'liq qilib qo'yishga haqli.

Bunda mazkur talablar, shuningdek ularni bajarish muddatlari monopoliyaga qarshi organning xo'jalik yurituvchi subyektlar birlashmalarini tashkil etishga, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborish, qo'shib olish hamda ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) va boshqa mulkiy huquqlarni olish bo'yicha bitimlar tuzishga oldindan rozilik berish to'g'risidagi qarorida ko'rsatilishi kerak. Mazkur harakatlarning sodir etilishi (bitimlar tuzilishi) tovar yoki moliya bozorida tegishli xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqei yuzaga kelishiga yoki kuchayishiga va (yoki) raqobatning cheklanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan taqdirda, bu harakatlarni sodir etish (bitimlar tuzish) to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar monopoliyaga qarshi organning talabiga ko'ra raqobatning zarur shart-sharoitlarini tiklash chora-tadbirlarini ko'rishi shart.

Monopoliyaga qarshi organ tovar yoki moliya bozorida hatto xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqei yuzaga kelishi yoki kuchayishi va (yoki) raqobatning cheklanishi, noxush oqibatlar yuz berishi mumkin bo'lgan taqdirda ham, agar xo'jalik yurituvchi subyektlarning birlashmalarini tashkil etish, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborish, qo'shib olish va ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) hamda boshqa mulkiy huquqlarni olish bo'yicha bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik va (yoki) jismoniy

shaxslar o'z harakatlari (bitimlari) iste'molchilarga sezilarli darajada naf keltirishini isbotlab bersa, harakatlarni sodir etish (bitimlar tuzish) uchun oldindan rozilik berish haqidagi arizani qanoatlantirishga haqli.

Monopoliyaga qarshi organning oldindan berilgan rozilgisiz sodir etilgan, tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqei yuzaga kelishiga yoki kuchayishiga va (yoki) raqobatning cheklanishiga olib keladigan harakatlar (tuzilgan bitimlar) sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Qonun shuningdek, jismoniy shaxslarning xo'jalik subyektlari boshqaruv organlaridagi ishtirokini (19-modda) mustahkamlaydi. Unga ko'ra, jismoniy shaxs tovar yoki moliya bozoridagi aktivlarining jami balans qiymati oxirgi hisobot davrining so'nggi holatiga ko'ra eng kam ish haqining yuz ming baravaridan ortiq bo'lgan yoki oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olgan jami tushumi eng kam ish haqining yuz ming baravaridan ortiq bo'lgan yoxud xo'jalik yurituvchi subyektlardan biri tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan ikki va undan ortiq xo'jalik yurituvchi subyektning ijro etuvchi organlarida yoki kuzatuv kengashlarida ishtirok etgan taqdirda, mazkur jismoniy shaxs ijro etuvchi organlarga yoki kuzatuv kengashlariga tayinlanganidan yoxud saylanganidan keyin o'n besh kalendar kun ichida monopoliyaga qarshi organni bu haqida xabardor qilishi kerak. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlar shu muddat davomida monopoliyaga qarshi organga joriy yildagi davrda va jismoniy shaxs ularning ijro etuvchi organi yoki kuzatuv kengashi tarkibiga tayinlangan yoxud saylangan yildan oldingi yilda ishlab chiqarilgan hamda realizatsiya qilingan tovarlarning turlari va hajmlari to'g'risida axborot taqdim etadi.

Agar monopoliyaga qarshi organ ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda jismoniy shaxsning xo'jalik yurituvchi subyektlarning ijro etuvchi organlaridagi yoki kuzatuv kengashlaridagi ishtiroki raqobatni cheklayotganligini aniqlasa, u holda monopoliyaga qarshi organ raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish masalalari ham qonunda o'z ifodasini topgan. Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etish yuzasidan ilgari qo'llanilgan choralar samarasiz bo'lgan taqdirda, monopoliyaga qarshi organ xo'jalik yurituvchi subyektni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish haqidagi da'vo bilan sudga murojaat etadi, bo'lish yoki ajratib chiqarish xo'jalik yurituvchi subyekt negizida ikki yoxud bir nechta alohida xo'jalik yurituvchi subyektni tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish quyidagi shartlarning barchasi jam bo'lganda amalga oshirilishi mumkin:

- bo'linayotgan yoki ajratib chiqarilayotgan tarkibiy bo'linmalarning tashkiliy va hududiy jihatdan ajralib chiqish imkoniyati mavjud bo'lganda;

- uning tarkibiy bo'linmalari o'rtasida o'zaro uzviy texnologik bog'lanish mavjud bo'lmaganda;

- bo'lish yoki ajratib chiqarish natijasida tashkil topgan tarkibiy bo'linmalarning tovar yoki moliya bozorida mustaqil faoliyat ko'rsatish imkoniyati mavjud bo'lganda.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Iqtisodiy konsentratsiyaning dastaklari nimalardan iborat?
2. Qo'shib olish va birlashish jarayonlari qanday tartibga solinadi?
3. Bozor konsentratsiyasi qanday usullar yordamida aniqlanadi?
4. Iqtisodiy konsentratsiyaning afzalligi va muammoli jihatlarini aytib bering.

6-bob. TABIIY MONOPOLIYANI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ROSSIYA FEDERATSIYASI TAJRIBASI

6.1. Rossiya iqtisodiyotida tabiiy monopoliyalarning o'ri.

6.2. Tabiiy monopoliyalarni tartibga solishning samaradorligi.

6.3. Monopoliyaga qarshi faoliyatni tartibga solishning dunyo bo'yicha tendensiyalari.

Rossiyada monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimi hozirgacha kerakli darajada samarali amalda emas. Aksincha, ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha davlat xokimiyatining sustlashgani sababli Rossiyada korxonalar, tarmoqlar monopolizmi ko'p hollarda xatto kuchaydi, bu esa iqtisodiyotdagi salbiy jarayondir. Buning natijasida Rossiya bozorlari ahvolini o'rganuvchi xalqaro konsalting kompaniyasi mamlakatda har yili YAIMni 8%dan kam bo'lmagan holda o'sishini ta'minlashga hamma narsa borligi, lekin raqobatning teng bo'lmagan sharoitlari (monopolizm, soliq imtiyozlari, davlat subsidiyalari va boshqalar) bunga to'siq bo'layapti degan xulosaga keldi. Rossiyaning monopoliyaga qarshi tartibga solish amaliyoti ko'proq Yevropa modeliga intiladi. Bu Rossiya monopoliyaga qarshi qonunchiligida va shuningdek monopoliyaga qarshi organlarning vakolati va amaliy faoliyatida o'z aksini topmokda. Rossiyada monopoliyaga qarshi tartibga solish faoliyatining boshlang'ich nuqtasi 1991 yilda "Raqobat va tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida" RSFSR qonunining qabul qilinishi bo'ldi. 1995 yilda sezilarli darajada qayta ishlab chiqilgan bu qonun Rossiya huquq tizimida aniq ifodalangan bozor rasmiy hujjati bo'ldi. Bu erda shuni ta'kidlash joizki miqdoriy jihatdan mamlakat monopoliyaga qarshi xizmati faoliyatini qat'iy belgilovchi rasmiy hujjatlar ro'yxati unchalik ko'p emas. Rossiya monopoliyaga qarshi qonunchiligi RF Konstitutsiyasi, yuqorida qayd qilingan qonun, uning asosida chiqariladigan federal qonunlar, RF Prezidenti farmonlari, xukumat qarorlari va farmoyishlaridan iboratdir. Har bir mamlakatda iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimining eng muhim elementi – bu monopolist faoliyati tartibga solinishi lozim

bo'lgan subyekt sifatida tushinishdadir. Rossiyaning monopoliyaga qarshi qonunchiligida monopolistning mohiyati va miqdoriy kriteriyalari raqobat to'g'risidagi qonunda markaziy tushuncha bo'lgan - "ustun vaziyat" tushunchasi orqali aniqlanadi. Ustun vaziyat – bu xo'jalik subyektiga yoki bir necha xo'jalik subyektlariga tegishli bozorda tovar aylanishi sharoitlariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishga yoki unga boshqa xo'jalik subyektlarining kirishini qiyinlashtirishga imkon beradigan uning (ularning) alohida vaziyatidir. Hozirgi vaqtda Rossiyada agar xo'jalik subyektining aniq tovar bozoridagi hissasi 65% va undan ortiq bo'lsa, uning vaziyati ustun deb tan olinadi. Ayrim hollarda monopoliyaga qarshi organning qaroriga binoan xo'jalik subyektining bozordagi hissasi 65%dan kam bo'lgan holda ham uning vaziyati ustun deb tan olinishi mumkin. Biroq, xo'jalik subyektining aniq tovar bozoridagi hissasi 35%dan yuqori bo'lmagan taqdirda uning vaziyati ustun deb tan olinishi mumkin emas. Xo'jalik subyektining monopolist sifatida hamma qayd qilingan miqdoriy ta'riflari o'rnini bosuvchi yoki o'zaro almashinuvchi tovarlari bo'lmagan tovar bozorlariga tegishlidir. Monopolistning miqdoriy chegaralarini aniqlash boshqa tovarlar bozorlariga nisbatan jiddiy va birgina echimni talab qilmaydi.

Rossiyada taqiqlanishi lozim bo'lgan monopolistik faoliyatning turlaridan biri deb raqobatdosh xo'jalik subyektlarining kelishuvi, agar ularning aniq tovar bozoridagi hissalar hammasi bo'lib 35%dan yuqori bo'lishi mumkin bo'lsa va bunday bitimlar kelishilgan narxlar belgilash, bozorlarni bo'lib olish, boshqa sotuvchilarning bozorga kirishlarini cheklash orqali raqobatni cheklashga olib kelsa, hisoblanadi. SHu bilan bir qatorda ayrim hollarda 35% lik cheklashni oshib o'tadigan bitimlarga, agar xo'jalik yurituvchi subyektlari bu bitimdan bo'ladigan ijobiy samara bozorga keltirilish imkoni bo'lgan salbiy natijalardan yuqori bo'lishini isbot qilsalar, ruxsat beriladishlab chiqarishamasi, hozirgi Rossiya qonunchiligidagi bunday "erkinliklar"ni o'rinli deb hisoblab bo'lmaydi.

Dunyo mamlakatlarida yetkazib beruvchining ustun vaziyatini aniqlab beruvchi turlicha chegaraviy qiymatlar belgilangan. Germaniyada bu bozorning 1/3 bir korxona uchun, yarmidan ko'prog'i – ikki korxona, 2/3 – uch korxona uchun;

Yaponiyada yarmidan ko'prog'i – bir korxona uchun, 3/4 - ikki korxona uchun. Buyukbritaniya va Fransiyada eng past “bosqich” – bozorning 1/4 bir korxona uchun. Har qanday monopoliyaga qarshi tizimning elementlaridan biri – yo'l qo'yilishi mumkin bo'lmagan novijdon raqobat shakllarining ro'yxati. Rossiyada bo'larga quyidagilar kiradi:

- boshqa xo'jalik subyektiga zara keltiradigan yoki uning amaliy obro'siga putur etkazadigan yolg'on, noaniq yoki noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatish;
- iste'molchilarga tovarning ishlab chiqarish tabiati, usuli va joyi, uning sifati va iste'mol xossalari to'g'risida xato ma'lumot berish;
- xo'jalik subyekti tomonidan reklama jarayonida u ishlab chiqarayotgan yoki sotayotgan tovarlarni boshqa xo'jalik subyektlarining tovarlari bilan notug'ri solishtirish;
- egasining roziligisiz ilmiy-texnik, ishlab chiqarish yoki savdoga oid ma'lumotlarni, shu jumladan, tijorat sirlarini olish, ishlatish, oshkor qilish;
- o'zboshimchalik bilan firma nomi belgisini, tovar belgisini va shuningdek boshqa xo'jalik subyekti tovarining shaklidan, o'ramasidan, tashqi bezagidan nusxa ko'chirish.

Monopoliyaga qarshi tartibga solish davlat siyosatini o'tkazish ijro xokimiyatining federal organi – Rossiya Federatsiyasi Prezidenti xuzuridagi monopoliyaga qarshi federal xizmat (FAS) orqali amalga oshiriladi. FAS quyidagi asosiy vazifalarni hal qiladi:

- monopollik faoliyati va nohalol raqobatni ogohlantirish, cheklash va to'xtatish;
 - raqobat va tadbirkorlikni rivojlantirish asosida, bozor munosabatlarini shakllantirishga ko'maklashish;
 - monopoliyaga qarshi qonunchilikka rioya qilish ustidan nazorat o'rnatish;
 - tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatini o'tkazish;
- tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish.

Bu organ xo'jalik yurituvchi subyektlari ijrosi uchun majburiy bo'lgan monopoliyaga qarshi qonunchilik qoidalari bo'zishining to'xtatish, ularning

asoratlarini yo'qotish, ularning majburiy bo'linishi yoki ular tarkibidan tuzilmaviy bo'linmalarining ajratilishi, monopoliyaga qarshi qonunchilikka zid shartnomalarni bekor qilish yoki o'zgartirish, boshqa xo'jalik subyekti bilan shartnoma tuzish, monopoliyaga qarshi qonunchilikning bo'zilishi natijasida olingan foydani federal byudjetga o'tkazish haqidagi buyruqlarni berish huquqiga ega.

Garb mamlakatlarida monopoliya faoliyatini cheklash uchun, birlashmalarni majburiy tarqatib yuborish va aktivlarni majburiy sotish holatlari ma'lum. Lekin, bunday choralar o'ylanmasdan qo'llanmasligi zarur. Har qanday yirik ishlab chiqarish ham, bo'linishga moyil emas. Tarkibiy qismlari texnologik tomondan qat'iy bog'liq bo'lgan bir butun birlashgan korxonani buzish zararlidir. FAS davlat nazoratini monopoliyaga qarshi qonunchilik talablariga javobgarlik asosida, tijorat tashqilotlari va ularning birlashmalarini qayta tashqil etish yoki faoliyatini tugatish orqali amalga oshiradi. Bundan tashqari, bu organ tijorat tashqilotlarining ustav kapitalida aksiyalar yoki ulushlar sotib olishda monopoliyaga qarshi qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilishi majbur. Monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimi shuningdek, monopoliyaga qarshi qonunchilik bo'zishida javobgarlik choralari ko'rishni o'z ichiga oladi. Rossiyada bu asosan ma'muriy-tashqiliy ta'sir ostidagi choralar bo'lib, ba'zi hollarda bundan ham qat'iyroq choralar ko'riladi.

Har bir mamlakatda monopoliyaga qarshi qonunchilik o'ziga xos xususiyatlarga ega, lekin, barcha holatlar uchun umumiylari ajratiladi: kompaniyalarning birlashishini nazorat qilish, tadbirkorlar (kartellar)ning kelishuvlarini taqiqlash, nohalol raqobatni to'xtatish. Korxonalarning birlashishi raqobatni yo'qotish va bir vaqtda ishlab chiqarishning bir erga to'planishi va uning samarasini oshirish omili bo'lib hisoblanadi. Biroq, raqobat ko'rashida firma quvvatini o'stirish, firmalarning mexanik birlashishidan ko'ra oqilonaroq deb e'tirof etiladi. SHu sababli, birlashishda qat'iy reglamentatsiya olib boriladi.

Buyuk Britaniya va Fransiyada birlashishda bozorning 25%lik ulushi, shuningdek, aktivlarning aniqlangan kattaligi ortib ketmasligi kerak. AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliyada birlashish haqidagi shartnomalar davlat ma'muriyati ruxsatnomasiz haqiqiy emasdir. Buyuk Britaniya, Fransiya va

Germaniyada faqatgina aktivlar qiymati va sotuv hajmi bo'yicha yirik bo'lgan firmalar birlashuvi tekshiriladi. AQSH, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Portugaliya, Avstraliya, Kanadada kartellar to'liq taqiqlangan. Bunda, kelishuv paytining o'zi qonunni buzish deb hisoblanadi. Kelishuv dalili isboti natijasida, monopol foydaning uch barobar miqdorida jarima undiriladi. AQSHda noqonuniy kartelda ishtirok etish qattiq jazoli jinoyat hisoblanib, shuningdek, ta'minot va sotuv faoliyatli birlashmalar chiqimlarni pasaytirsam ham, noqonuniy deb hisoblanadi.

Rossiya monopoliyaga qarshi qonunchiligi bo'yicha, raqobatni cheklashga yo'naltirilgan har qanday shakldagi xo'jalik yurituvchi subyektlari orasidagi bitim haqiqiy emas deb e'tirof etiladi. Hokimiyat va boshqaruv organlariga raqobatni cheklovchi aktlar, harakatlar va kelishuvlarni amalga oshirish taqiqlanadi. Ular ishlab chiqarishni monopolizatsiya va tovarlarni realizatsiya qilish maqsadida, davlat boshqaruvining yangi tuzilmalarini yarata olmaydilar. Ijro hokimiyatining federal va mintaqaviy organlari, o'zini-o'zi boshqaruvchi mahalliy organlari faoliyatlarining xo'jalik yurituvchi subyektlari faoliyati bilan qoplanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Monopoliyaga qarshi organ xo'jalik subyektlariga nisbatan, xo'jalik subyektlarini qayta tashqil qilish yoki faoliyatini tugatishni amalga oshirishda monopoliyaga qarshi talablarga rioya qilishi, xo'jalik subyektlarining ustun vaziyatiga olib boruvchi aksiyalar sotuvi va sotib olinishini nazorat qilish huquqiga ega. U hokimiyat va boshqaruv organlariga nisbatan, quyidagilar bo'yicha tavsiyalar yo'llaydi:

- imtiyozlar berish (kredit, soliq imtiyozlari va boshqalar);
- o'z ustun holatini suiiste'mol qiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlari tovarlarining belgillangan narxlarini o'rnatish;
- eksport-import operatsiyalari, faoliyat turlarini litsenziyalash, bojxona tariflarini o'zgartirish;
- chet el investitsiyasini jalb etish, erkin iqtisodiy hududlarni yaratish rivojlantirish;
- majburiy litsenziyalashni kiritish, monopoliyaga qarshi qonunchilikni bo'zuvchi xo'jalik subyektlari eksport-import operatsiyalarini taqiqlash (to'xtatish).

FAS (Rossiya Federatsiyasi Prezidenti xuzuridagi monopoliyaga qarshi federal xizmat) monopoliyaga qarshi qonunchilik bo'zishini to'xtatish, qonunga zid shartnomalarni bekor qilish, xo'jalik subyektlarini majburiy ravishda bo'lib yuborish, noqonuniy qabul qilingan aktlarni hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan bekor qilish haqida bajarilishi majburiy bo'lgan dalolatnomalarni berish huquqiga ega. Shuningdek, FAS monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish va dalolatnomalarni bajarilmagani uchun jarima solish to'g'risida qaror qabul qilish, sudga yoki arbitrajga da'volar va arizalar bilan murojaat qilish, proko'raturaga monopoliyaga qarshi qonunchilikning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar alomatlari bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atish uchun materiallar (ma'lumotlar) yuborishi mumkin.

Hududiy boshqarmalar monopoliyaga qarshi umumiy davlat siyosatini, iste'molchilar huquqini himoya qilishni amalga oshiradilar, novijdon raqobat va reklamani oldini oladi. Ular monopoliyaga qarshi qonunchilikni bo'zuvchi korxonalarga qarshi choralar ko'rish bo'yicha katta vakolatlarga egadirlar. Monopoliyaga qarshi organning vakolatiga ega shaxslar barcha kerakli hujjatlar bilan tanishish uchun vazirliklarga, boshqa organlarga va, shuningdek, korxonalarga, birlashmalarga, tashqilotlarga, muassasalarga to'siqsiz bemalol kirish huquqiga egadirlar. Xo'jalik subyektlari, boshqaruv organlari va ularning mansabdor shaxslari ishonchli hujjatlar, yozma va og'zaki tushintirishlar va boshqa ma'lumotlarni berishga majburdirlar. Biroq, qonunchilikning nomukammalligi sababli FAS davlat boshqaruvi organlari strukturalari o'z funksiyalarini xar doim ham samarali bajara olmaydilar. Bozorlar, monopolistlar to'g'risida ma'lumotlar olishda muammolar tug'iladi, bu esa raqobatchilik to'g'risidagi qonunning bo'zishidir. Qoida bo'yicha narxlarni (tariflarni) tartibga solish davlat me'yorlarini (normalarini) bo'zuvchi tashqilotlar javobgar bo'ladilar, ulardan ortiqcha tushgan kirimning butkul summasi va shu miqdorda jarima, qayta buzishga yo'l qo'yilganda ikki hissa ko'p jarima undirib olinadi. Lekin jarimalarni undirish mexanizmi yaxshi yo'lga qo'yilmagan, samarali ishlamaydi.

Aytib o'tilgandek, monopoliyaga qarshi siyosat kapitalni bir joyga to'plash jarayoniga davlat aralashuvini ko'zda tutadi. Ammo, Rossiya voqeligi sharoitida

korxonalar qonunni chetlab o'tishga muvaffaq bo'layaptilar. Kapital bir boshqaruv ostida aktivlarni birlashtirmasdan to'planishi mumkin. Bunga alyuminiy kartelining vujudga kelishi misol bo'la oladi. Jahonni qamrab olgan global iqtisodiy integratsiya ham monopoliyaga qarshi siyosatni o'tkazishni qiyinlashtiradi bunda ochiq bozorda kapital o'ziga foydali ravishda, xalqaro raqobat talab qilganidek, to'planadi.

Rossiya Federatsiyasi ijroiyl xokimiyati va Rossiya subyektlarining monopoliyaga qarshi siyosati faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha muhim organi bu Monopoliyaga qarshi siyosat bo'yicha muassasalararo komissiyadir. Komissiya bozorlar ahvolini raqobatni rivojlantirish maqsadida tahlil qiladi, demonopollashtirish va raqobat maslalariga dahldor me'yoriyl aktlar loyihalari ekspertizasini tashqil etadi, Demonopollashtirish va raqobatni rivojlantirishning federal, tarmoq, hududiy dasturlari bajarilishini nazorat qiladi. Komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlar vaqillari komissiya tarkibiga kirgan Rossiya Federatsiyasi ijroiyl xokimiyati organlari va Rossiya Federatsiyasi subyektlari hamda ularga qarashli korxonalar uchun majburiyl dir. Rossiya Davlat statistik qo'mitasi tomonidan Rossiya Federatsiyasi bozorida aniq bir tovar bo'yicha hissalarl umuman 35%dan (mahsulot kelib tushishini hisobga olib) yuqori bo'lgan birlashmalar va monopolist korxonalarning davlat reestri olib boriladi. O'z navbatida, Rossiya FAS reestrqa kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi, unga o'zgartirishlar kiritadi, bu haqida birlashmalar, monopolist korxonalarni xabardor qiladi, shuningdek, Rossiya Davlat Statistika qo'mitasi, Rossiya Iqtisodiy Rivojlanish vazirligi, Rossiya Moliya vazirligi, hokimiyat va boshqaruv mahalliy organlariga axborot beradi. Reestrda ko'rsatilgan korxonalarga nisbatan, monopoliyaga qarshi qonunchilikda ko'zda tutilgan choralar ko'riladi. Shu vaqtning o'zida, ushbu vazirlik tasdiqlangan shakl bo'yicha, ariza asosida xo'jalik subyektlarni reestrda chiqarib tashlashi mumkin.

Rossiya Federatsiyasi hukumati narxlarni ichki bozorda tartibga solinishi lozim bo'lgan tovarlar (xizmatlar) ro'yxatini tasdiqlaydi. Tartibga solishni ijroiyl xokimiyatning federal organlari va Rossiya Federatsiyasi subyektlarining ijroiyl xokimiyatlari organlari amalga oshiradilar. Tartibga solinadigan narxlar tashqiliyl huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar hamma tashqilotlar tomonidan

qo'llaniladi. Korxonalarga yetkazib beriladigan tabiiy monopoliyalar subyektlarining mahsulot (xizmat) narxlari (tariflari) ularning oshishi Rossiya iqtisodiy rivojlanish vazirligi tomonidan bashorat qilingan sanoat mahsuloti ishlab chiqaruvchilari (engil va oziq-ovqat sanoati mahsulotidan tashqari) narxlarining oshishidan yuqori bo'lmasligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tabiiy monopoliyalarning ayrim sohalarini tartibga solish ijroiylar xokimiyatning maxsus organlari tomonidan amalga oshiriladi. Temir yo'l orqali yuk tashish, Rossiya Federatsiyasining borish qiyin bo'lgan rayonlariga yuk tashish, transport terminallari, dengiz va daryo portlari hamda aeroportlar tomonidan xizmat ko'rsatish, hammabop elektr va pochta aloqa xizmatidan foydalanish Rossiya Federatsiyasi Federal monopoliyaga qarshi xizmat tomonidan nazorat qilinadi. Ijroiylar xokimiyat organlari davlat tomonidan tartibga solish jarayonida hosil bo'ladigan iqtisodiy vaziyatlarni tahlil etadilar va bashorat qiladilar; tabiiy monopoliyalar subyektlariga majburiy bo'lgan xarajatlarni hisobga olish qoidalarini belgilaydilar; davlat tomonidan tartibga solishning meyoriy-huquqiy bazasini ishlab chiqadilar; narxlarni tartibga solishni amalga oshiradilar, investitsiya siyosatini uning tariflarga ta'siri qismida nazorat qiladilar; xizmatlar bozorining shakllanishini tartibga soladilar; tartibga solish amalga oshiriladigan tabiiy monopoliyalar subyektlarining reestrini olib boradilar; qonunchilik bo'zilgan holda ularga bajarilishi majburiy bo'lgan dalolatnomalar yuboradilar; tabiiy monopoliya subyektiga jarima solish to'g'risida qaror qabul qiladilar.

Yuqorida aytib o'tilgandek, tabiiy monopoliyalar bilan bir qatorda davlat monopoliyalari deb ataladigan faoliyat sohalarini bozor raqobati sohasidan chiqarilgan. Mamlakatda davlat monopoliyalari subyektlari sifatida asosan aniq faoliyat turlarini amalga oshirish litsenziyalariga ega bo'lgan davlat unitar korxonalari bo'ladilar. Davlat monopoliyalari turlariga quyidagilar kiradi: mamlakat Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladigan pul-emissiya faoliyati, tashqi iqtisodiy faoliyatning ayrim turlari (ayrim tovarlar eksporti va importi), ko'pincha alkohol mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish va boshqalar. Davlat monopoliyasi rejimi alohida hosiylatga ega, uning turlari va chegarasi maxsus qonunlar bilan belgilanadi. SHunday qilib,

monopoliyaga qarshi siyosat davlat tomonidan tartibga solishni ta'minlagan holda monopoliyalarning bir necha turlarini saqlab qolishni ko'zda tutadi. Har qanday monopoliyaga qarshi siyosatning mohiyati va ma'nosi katta ko'lamdagi iqtisodiyot foydasini ishlatish va raqobatning susayishi bilan bog'liq bo'lgan imkoni bor salbiy oqibatlarning ta'sirini kesishdadir. Shu ikki yondashishning birligi aynan amaliy jihatdan eng qiyin echiladigan, vaziyatga qarab o'zgaradigan huquqiy va iqtisodiy masalani tashqil qiladi. Tabiiyki, RFda monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimi shu sohada boy xorijiy tajribani hisobga olgan holda shakllanadi, lekin qator o'ziga xos xususiyatlarga egadir. U Rossiyada barqaror bozor aloqalari endigina shakllanish bosqichida bo'lgan, bozor iqtisodiyotining faqat asoslari yaratilgan, davlat-ma'muriy monopolizmi to'liq bartaraf qilinmagan sharoitlarda shakllanayapti.

Bozor iqtisodiyotida har kimning faravonligi bozorda o'ziga qarashli tovarni: o'z ishchi kuchini, malakasini, o'zi ishlagan buyumni, xususiy er uchastkasini yoki tijorat operatsiyalarini tashqillashtirish mahoratini va shu kabalarni qanchalik muvaffaqiyatli sotilishi bilan aniqlanadi. Xo'jalik subektlari ixtiyorida bo'lgan monopolistik xukmronligi darajasiga bog'liq ravishda quyidagi bozor modellarini ajratib ko'rsatishadi. Monopolizmning iqtisodiyotdagi bu va boshqa salbiy tomonlari davlatlarni monopoliyaga qarshi siyosatni ishlab chiqishga va qo'llashga majbur qiladi. Ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlari tufayli, raqobatning yo'qligidan, bozor talabini qondira oluvchi tovarlar va narxlar keskin o'zgarganda, o'rnini boshqa tovarlar bosa olmaydigan turg'un talabga ega bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Rivojlangan davlatlarda monopoliyani tartibga soluvchi qonunchilikning vujudga kelishi va takomillashuvi qanday kechdi?
2. Gorizontall cheklashlarni tartibga solishning samaradorligi nimada deb o'ylaysiz?
3. Monopoliyaga qarshi faoliyatni tartibga solishning dunyo bo'yicha tendensiyalarini izohlab bering.

7-bob. QOZOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINI MONOPOLIYAGA QARSHI
FAOLIYATINI BOSHQARISH TAJRIBASI

7.1. Qozog‘iston Respublikasining monopoliyaga qarshi qonunchiligi.

7.2. Xo‘jalik subyektlarining monopoliyaga qarshi faoliyatini tartiblashtirish va narx siyosati.

7.3. Qozog‘iston Respublikasida iste’molchi huquqini himoyalashning qonuniy asoslari.

Qozog‘iston Respublikasida Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish agentligi va Raqobatni himoyalash agentligi (Monopoliyaga qarshi agentlik) davlat organi monopoliyaga qarshi organ sifatida e’tirof etiladi. Qozog‘iston Respublikasida monopoliyalarni tartibga solish va raqobat sohasida “Nohalol raqobat to‘g‘risida”gi qonun (1998), “Raqobat va monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risida”gi qonun (2006) kabi qonunlar qabul qilingan.

Iqtisodiyoti bozor prinsiplariga asosan qurilayotgan barcha mamlakatlarda monopoliyaga qarshi boshqaruv ishlari olib boriladi. Ma’muriy va iqtisodiy choralardan tashqari davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilarning bozorni monopoliyalashtirishga qarshi yuridik choralar ham qo‘llaniladi. SHu tariqa, antimonopol boshqaruvi iqtisodiy, ma’muriy va qonuniy aktlar majmuasi sifatida namoyon bo‘lib, bozorda raqobatchilikka sharoit yaratishi va ishlab chiqaruvchilarning bozorni monopoliyalashtirish borasida harakatlarini cheklashni ko‘zda tutadi.

Qozog‘iston Respublikasida antimonopoliyaga taaluqli qonunlarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish iqtisodiy munosabatlarni yangilashni iqtisodiyotni boshqarishning tegishli tarkibini (strukturasini) yaratishni talab qilmoqda. SHu sababli respublikada bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda yangi davlat tuzilmalari tashkil etildi. Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining 1996- yil

15- maydagi farmoniga asosan moliya vazirligi monopoliyaga qarshi va narx siyosatini yoritish bosh boshqarmasi asosida tashkil etilgan. Monopoliyadan qarshi organ hamda uning joylardagi hududiy boshqarmalari bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib tuzilgan davlat tuzilmasi hisoblanadi. Chunki markazlashga rejalashtirish davrida tarkib topgan xalq xo'jaligining tarkibiy tizimida, nafaqat yakkahokim holatidagi korxonalar, balki shunday imkoniyatga ega bo'lgan xalq xo'jaligining turli tarmoqlari ham shakllangan. Shu sababli respublika va mahalliy tovar bozorlarida monopolistik mavqega ega bo'lgan korxonalar faoliyatini nazorat qilish va bu tarmoqlarda raqobat muhitini yaratish bugungi kunda muhim vazifa hisoblanadi.

Qozog'iston monopoliyaga qarshi organiga shu vazifalar yuklatilgan bo'lib monopoliyaga qarshi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, raqobatni va tadbirkorlikni rivojlantirish asosida bozor munosabatlarini shakllanishiga ko'maklashish hisoblanadi.

Monopolistik mavqedagi xo'jalik subyektlari tomonidan tovar va moliya bozorlarida ustunlik mavqeining suiste'mol qilinishi oldini olish va bunga yo'l qo'ymaslik, nohalol raqobatga va iste'molchilar manfaatlarini kamsitilishiga barham berish chora-tadbirlarini ko'rish monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida monopol mavqedagi korxonalarning o'z mahsulotlariga yuqori narx belgilash orqali iste'molchilarga o'z tayziqini o'tkazishi, monopoliyaga qarshi qonunni buzishning asosiy ko'rinishi hisoblanadi. SHu sababli, Qozog'iston hukumatining 1996 yil 19 sentyabrdagi 323 - sonli qaroriga asosan korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot ulushi, shu mahsulot bo'yicha respublika yoki mahalliy tovar bozor hajmida sanoat mahsulotlari bo'yicha 65 foizdan, oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha 35 foizdan oshganda monopolistik mavqedagi korxona sifatida davlat reestriga kiritilib, ishlab chiqarilayotgan monopol turdagi mahsulotlar narxlarini korxona mahalliy reestriga kiritilganda viloyat moliya boshqarmasiga, respublika davlat reestriga kiritilganda Moliya Vazirligiga e'lon qilib, moliya organlari tomonidan narxlarni asosligini ko'rib chiqilib ro'yxatga olingandan keyin qo'llash tartibi joriy etilgan. Narxlarni e'lon qilishning belgilangan

tartibi buzilganda, monopolist korxona tomonidan ro'yxatga olingan narxlar o'rtasidagi farq undirib olinadi. 1997- yil 1- yanvardan boshlab esa shu miqdordagi jarima ham qo'llanadi.

Qozog'iston Respublikasining "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi Qonuni tovar bozorlarida monopolistik faoliyat va insofsiz raqobatning oldini olish, uni cheklash, to'xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilab, raqobat munosabatlarining shakllanishi va samarali amal qilishi uchun sharoitlar ta'minlashga qaratilgan.

Ushbu qonun Qozog'iston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan chet ellik shaxslar, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari qatnashadigan tovar bozorlaridagi raqobatga ta'sir ko'rsatuvchi munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Qozog'iston Respublikasining qonun hujjatlarida quyidagi sohalarda tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyatini bevosita davlat tomonidan tartibga solish nazarda tutilishi mumkin:

- neft, gaz kondensati, tabiiy gaz va ko'mir qazib chiqarish:
- neft, neft mahsulotlari va gazni magistral quvurlar orqali uzatish:
- elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish va uzatish:
- temir yo'llarda yo'lovchi, bagaj va yuk tashish:
- port va aeroportlarning xizmatlari:
- hamma uchun mo'ljallangan elektr va pochta aloqasi xizmatlari:
- suv quvurlari va kanalizatsiya xo'jaligi xizmatlari.

Qonunda monopoliyaga qarshi davlat organlarining vazifalari, faoliyat yo'nalishlari, vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Monopoliyaning salbiy tomoni sifatida quyidagi jixatlarni ko'rsatish mumkin:

1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi. Bu holat monopoliyalarning yuqori foyda ketidan quvib, sun'iy ravishda ishlab chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko'tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo'lmagan turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali

namoyon bo'ladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi.

Monopoliyalar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatlar erkin hamda oqilona tanlov imkoniyatidan mahrum bo'ladi, monopoliyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanmagan shart-sharoit va narxlari tazyiqiga chiday olmaydi, ish faolligini pasaytirib, ba'zi hollarda xonavayron bo'ladilar. Oqibatda ishlab chiqarish qisqarib, ishsizlik va inflyasiya o'sadi, xo'jalikning izdan chiqishi kuchayadi. Jamiyat boyligi resurslarning oqilona raqobatli-bozor taqsimoti sharoitida qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan miqdoriga qaraganda kamayib ketadi;

2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi. Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foyda olinishi bilan bog'liq bo'lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi;

3) iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi. Bunday holatning vujudga kelishi monopolistlarning raqobatchilar bosimini sezmasliklari hamda aksariyat hollarda yuqori foydani qo'shimcha urinishlarsiz o'zlarining bozordagi hukmronliklari hisobiga olishlari mumkin. Bu esa ularni ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish, mahsulot sifatini oshirish, uning assortimentini kengaytirish, FTTni rivojlantirish va xaridorlar manfaatlari to'g'risida qayg'urish kabi xatti-harakatlardan qaytaradi;

4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi. Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to'sqinlik qilib, nisbatan kuchsiz bo'lgan korxonalarni o'zlariga bo'ysundirishlari, jamiyatga o'z ishchilarining mehnatiga pasaytirilgan miqdorda haq to'lash, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarish, o'ta darajada oshirib yuborilgan sotish narxlari (yoki pasaytirilgan xarid narxlari), o'z mahsulotini iste'mol qilishga bilvosita usul orqali majburlash kabi o'zlarining kamsituvchi shartlarini ko'ndalang qo'yishlari mumkin.

Bundan ko'rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatishi, taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lishi ham mumkin. SHunga ko'ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo'llanilib, bu monopoliyaga qarshi siyosat

deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini monopoliyaga qarshi qonunchilik tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Qozog'iston Respublikasining monopoliyaga qarshi qanday qonunchiligi mavjud?
2. Monopoliyaga qarshi faoliyatning qanday vazifalarini bilasiz?
3. Xo'jalik subyektlarining monopoliyaga qarshi faoliyatini tartiblashtirish va narx siyosati haqida gapirib bering.
4. Qozog'iston Respublikasida iste'molchi huquqini himoyalashning qanday qonuniy asoslari mavjud?

8-bob. MONOPOLIYAGA QARSHI FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISHNING RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI

- 8.1. AQSHda raqobatni qo'llab- quvvatlash va ishlab chiqarish siyosati.
- 8.2. AQSHda monopoliyaga qarshi faoliyatni tartibga solishning ilg'or tajribasi.
- 8.3. Germaniyada raqobatchilik siyosatini tartibga solish.
- 8.4. Buyuk Britaniya raqobatchilik siyosatining xususiyatlari.

Raqobat to'g'risidagi hozirgi qonunning ajdodi sifatida butun dunyo miqyosida AQSHning monopoliyaga qarshi qonuni amaldagisi sifatida esa, 1890- yilda AQSH Kongressi tomonidan qabul qilingan Shermanning trestlarga qarshi qonuni hisoblanadi. Biroq, Amerikaning raqobat to'g'risidagi qonuni Sherman qonuni bilan cheklanib qolmagan va raqobat to'g'risida bir qator qonunlarni qabul qilish orqali rivojlanib kelgan. Keyinchalik, ushbu qonuning g'oyalari va maqsadi bir qator kapitalistik mamlakatlarga taqlid qilish uchun misol bo'ldi. SHu munosabat bilan, iqtisodiy fikr nazariyasini rivojlanishi bilan yanada takomillashib borgan Amerikaning raqobat to'g'risidagi qonuni evolyusiyasi tarixini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1980- yilda Sherman qonuni qabul qilinishidan oldin, Amerika sudlari Umumiy Huquqni qo'llaganlar. Umumiy Huquq raqobatga ko'rsatadigan samarasi va asoslanganligiga qaramasdan, raqobatchilar o'rtasidagi barcha kelishuvlarni (kontraktlar) umuman taqiqlaganlar. Ular, jamiyat manfaatlariga zid bo'lgan, va monopollashish yoki tovarlarni olib qo'yishda namoyon bo'ladigan trestlarni man qilishga uringanlar.

1890- yilda AQSH Kongressi Sherman (qonunni ko'rib chiqish uchun kiritgan kongressmenning nomidan olingan) Qonunini qabul qildi. Ushbu qonun "bir nechta shtatlar, yoki xorijiy millatlar o'rtasida har xil kelishish (kontrak), trest shaklida birlashish yoki o'rtasida savdo-sotiqni yoki tijoratni cheklash maqsadida kelishib olishlar"ni taqiqlaydi. SHerman qonuni uni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni va

zarar ko'rgan shaxslarga uch barobar miqdorda kompensatsiya to'lashni taxmin qilgan.

XX asrning dastlabki dekadalarida sudlar Sherman qonunini mayda raqobatchilarni yirik hamkorlar tomonidan insofsiz raqobatlashuvidan implitsit himoyalovchi (yaqqol emas) sifatida tushunganlar.

Chuqur Turg'unlik (depsinishlar) sodir bo'lgunga qadar, sudlar iqtisodiy tafakkurni klassik va neoklassik nazariyalariga muvofiq, ko'pchilik mayda firmalar o'rtasida atomistik raqobatni afzal ko'rganlar. Shu vaqtni o'zida, "to'g'ri yondashish qoidasi" tug'ildi, unga muvofiq faqat savdo-sotiqni asossiz cheklashi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar qoralangan. Xuddi shunday, atomistik raqobatga nisbatan hayrixohlik va iqtisodiy hukmronlikni xolding kompaniyalari qo'lida jamlanishi maqsadga muvofiq emasligi to'g'risdagi fikrlar 1914- yilda Kleyton Qonunini qabul qilinishi bilan yakunlandi. Ushbu qonun monopolistik faoliyatni, kamsituvchi shartlar, eksklyuziv dilerlik va boshqalar xillarini taqiqlaydi.

1914- yilda qabul qilingan yana bitta trestlarga qarshi qonun – Federal Savdo Komissiyasi (FSK) AQSH Hukumatiga bo'ysunmaydigan, mustaqil vakolatli organni tuzdi. U erkin va insofli savdo-sotiqni ilgari surishga javob bergan. FSK to'g'risidagi Qonunning 5 moddasi raqobatni insofsiz usullarini ... qonundan tashqari deb e'lon qilgan. Ushbu modda ta'siriga tushadigan xatti-harakatlar bir necha o'n yilliklar mobaynida kengayib borgan. Kongress ataydan ushbu qonundagi tushunchaga ta'rif keltirmagan, buning sababi FSK ushbu xatti-harakatlarni ko'rib chiqishida kengroq vakolatlarga ega bo'lishi va ularga nisbatan tez chora ko'rishi uchun shunday qilingan.

1936- yilda Kongress Robinson-Petman Qonunini qabul qildi, ushbu qonun ma'lum sharoitlarda narx sohasida kamsitishni taqiqlagan. Ushbu qonunning ta'siri "faqat Amerika Qo'shma SHtatlarida sotiladigan, iste'mol qilinadigan yohud qayta sotiladigan" tovarlar yoki mahsulotlarga taalluqli bo'lgan bitimlarga tegishli bo'lgan.

1970- yillar Xarta-Skotta-Rodinoni Trestlarga qarshi O'zgartirishlar to'g'risida qonunni qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu qonun agar bitim tomonlar hajmi va bitim hajmi sinov shartlarini qondirsa, u holda ushbu bitim to'g'risida oldindan

ma'lum qilish tartibini belgiladi. Bitim to'g'risida ma'lum axborotni ilova qilgan qolda tuzilgan bildirishnoma (buyurtmanoma) FSK yoki YUstitsiya Departamentini Trestlarga qarshi Boshqarmasiga topshiriladi. Trestlarga qarshi O'zgartirishlar to'g'risida qonun shuningdek Kleyton Qonunini 7 moddasiga binoan ko'rib chiqiladigan qo'shilib ketishlar to'g'risidagi bitimlar bo'yicha da'volar sonini keskin kamaytirgan.

XX asrning 70-yillari iqtisodiy nazariyaning CHikago maktabi keng tarqalgan davr bo'ldi. Ushbu maktab namoyondalari trestlarga qarshi qonunchilikni maqsadi iste'molchilarni manfaatlarini ko'zlagan holda raqobatchilarni emas, balki raqobatni himoya qilish deb ishonganlar. YAngi iqtisodiy tafakkurni paydo bo'lishi natijasida sudlar raqobat bilan bog'liq masalalar va xarajatlarni pasaytirishga qaratilgan ma'lum tartib-qoidalarini qayta ko'rib chiqa boshlaganlar. Masalan, sudlar "per se" doktrinasi ta'siriga tushadigan xatti-harakatlar ro'yxatini qisqartira boshladilar va ularni iqtisodiy tahlil qilishni boshladilar. Lekin narxlarni gorizontal cheklash yoki savdo-sotiqdagi insofsizliklar "per se" noqonuniy tarzda (yashirincha) qolgan.

Bozorlarni iqtisodiy tahlil qilishga boshqa yondashuvlar 1990 yillarda paydo bo'ldi. Ular yangicha iqtisodiy usullarni taklif qildilar va CHikago maktabi tomonidan taklif qilingan an'anaviy usullarni inkor qildi. Qisqasi, yangi tafakkur samaradorlikni oldinga surilishiga qarshi emas, lekin bozorlarni tahlil qilishda avval qo'llanilmagan emperik jihatlarni kiritadi.

Iqtisodiy nazariyani butun dunyo miqyosida tarqalishi va rivojlanishiga qaramasdan, AQSHning siyosiy, madaniy va iqtisodiy tarixi butun jahon miqyosida eng rivojlangan, noyob hisoblangan trestlarga qarshi yurisprudensiyani vujudga keltirdi.

Respublikada amalda bo'lgan monopoliyaga qarshi qonun "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida" deb ataladi . U 1996 yilda qabul qilingan va 1992- yilda qabul qilingan qonun o'rniga ishlab chiqilgan.

Shermanning trestlarga qarshi qonuni 1890- yil SHerman qonuni monopliya tashkil etishni yoki monopoliya tashkil etish yoxud savdo erkinligi cheklash maqsadida til biriktirishni qonunsiz dep topdi.Bu belgilangan narxlar,kim oshdi

savdolarida taklif kilinadigan narxlar to'g'risida va istemolchilarni taksimlab olish to'g'risida kelishib olishni nazarda tutadi. Firma mahsulotlari yoki xizmatlari yuqori sifatli bulgani uchun emas, balki raqobat kaysidir yullar bilan bostirilgani uchun uning bir uzi bu mahsulot va xizmatlarni yetkazib bergan xollarda qonunsiz monopoliya mavjud buladi. Sherman qonuni buzish jinoiy xatti xarakat xisoblanadi. YAKka tartibdagi xarakatlar 250 ming dollargacha va xar bir xolda 3 yilgacha kamok jazosi. Korparatsiyalar uchun 1 mln dollargacha jarima solishi mumkin.

Kleyton qonuni, 1914-yil Kleyton qonuni Fukoralik kodeksi hujjati bulib, jinoiy jazolarga olib bormaydi. U bir kancha istemolchilar uchun maxsus tariflar belgilash singari amaliy ishning ma'lum turlari raqobatni kamaytirs va manopoliyalar tashkil etishga moyil bulsa, bunday ishlarni takiklaydi. Bu qonunning bir modasi anna shunday qonunga zid faolyaitdan zarar kurgan odamlarning federal suda uzlaoui kurgan zararni uch baravar kilib, tulashni talab qilishlariga imkon beradi. Boshqa bir modda bosh prokurorlarga istemolchilar foydasiga da'vo kuzgatish imkonini beradi.

Xukumat savdo komissiyasining qonuni, 1914- yil Xukumat savdo komissiyasining konkniga muvofik maxsus tashkilot-trestlarga qarshi konknlarning tasirini kuchaytrish uchun xukumat savdo kossiyasi tuzilgan. Viler Li qonuni bilan 1938- yilda komissiya zimmasiga jamoatchilikni yolg'on va adashtiradigan reklamadan himoya qilishdek kushimcha masuliyat yuklatilgan

Sellar-Kefoverning kompaniyalar birlashishiga qarshi qonuni. 1950- yil dastlabki taxrirda Kleyton konkni fakat gorizontal birlashishlarga tallukli edi. Sellar-Kefoverkonkni kengaytiruvchi tuzatish bulib, u qonunga "raqobatni kamaytiradigan yoki monopoliyalar tashkil etilishiga olib boradigan" xar qanday birlashishni kiritishga karatilgandir.

Yevropa modeli amerika modelidan farqi o'laroq suiiste'molliklar ustidan nazorat qilish tamoyiliga tayanadi. Bunday bixevioristik (ingl. behaviorism – xulq-atvor, yurish-turish) deb nomlangan yondashish diqqatni tarmoq strukturasiga emas, balki ayrim xo'jalik subyektlarning fe'l-atvoriga qaratadi. Bu modelda har qanday

monopoliya emas, balki faqat ijtimoiy-iqtisodiy natijalari jamiyat uchun salbiy bo'lgan monopoliya g'ayriqonuniy deb ta'kidlaydigan idrokli yondashish qoidasidan foydalaniladi. Bunday yondashish har xil bozorlarda raqobat axvolini doimiy ravishda tahlil va nazorat qilishga qodir bo'lgan ma'muriy organlarning maxsus tizimini tashqil etishni talab qiladi. Zarurat tug'ilganda bu organlar to'zatis, yo'lga solish va taqiqlashning asosan ma'muriy choralarini qo'llaydilar. Keyingi o'n yilliklar davomida bu ikki model orasidagi farq kamayib bormoqda. SHu bilan birga bu yaqinlashish Yevropa modeli tomoniga qarab bormoqda, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlari faoliyatini monopoliyaga qarshi tartibga solish ularning nisbatan va absolyut katta-kichikligiga asoslangan holda emas, balki jamiyatga ular faoliyatining oqibatini hisobga olgan tarzda amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi tartibga solish o'zaro bog'langan ikki yo'nalishni o'z ichiga oladi: a) monopoliyaga qarshi qonunchilikni ishlab chiqish va qabul qilish; b) monopoliyaga qarshi tartibga solishni amalga oshiruvchi va monopoliyaga qarshi qonunchilikga rioya qilishni nazorat qiluvchi organlar tizimini shakllantirish.

Buyuk Britaniya va Fransiyada birlashishda bozorning 25 %lik ulushi, shuningdek, aktivlarning aniqlangan kattaligi ortib ketmasligi kerak. AQSH, YAponiya, Kanada, Avstraliyada birlashish haqidagi shartnomalar davlat ma'muriyati ruxsatnomasiz haqiqiy emasdir. Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyada faqatgina aktivlar qiymati va sotuv hajmi bo'yicha yirik bo'lgan firmalar birlashuvi tekshiriladi. AQSH, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Portugaliya, Avstraliya, Kanadada kartellar to'liq taqiqlangan. Bunda, kelishuv paytining o'zi qonunni buzish deb hisoblanadi. Kelishuv dalili isboti natijasida, monopol foydaning uch barobar miqdorida jarima undiriladi. AQSHda noqonuniy kartelda ishtirok etish qattiq jazoli jinoyat hisoblanib, shuningdek, ta'minot va sotuv faoliyatli birlashmalar chiqimlarni pasaytirsam ham, noqonuniy deb hisoblanadi.

Buyuk Britaniyaning qonunchiligiga ko'ra samarali va insofli raqobat iste'molchi uchun boylik va tanlash kafolati uchun zarur. Global bozorda raqobat Britaniya kompaniyalarini investitsiyalash va innovatsiyalarni joriy qilish uchun

rag'bat hisoblanadi. Raqobatbardoshlik mamlakat ichida ham, xorijda ham ichki bozordagi raqobat hisobiga ko'payadi. Shunday qilib, raqobat biznes uchun ham foydali. SHunday qilib, raqobatni himoyalashni siyosiy sababi quyidagicha:

- Sifatni yaxshilash va iste'molchilar uchun tanlash imkoniyatini ko'paytirish;
- Innovatsiyalar va investitsiyalashni joriy etish uchun rag'batlantirishni ta'minlash;
- Global bozorlarda Britaniya kompaniyalarini obro'sini ta'minlash. Ushbu maqsadlarning barchasi faqatgina raqobat orqali erishiladi. Lekin, raqobat to'g'risidagi qonunda mavjud bo'lgan istisnolarni berish mexanizmi, raqobatni cheklash yuqorida qayd etilgan siyosiy maqsadlarga erishish uchun zarurligini tan oladi.

Buyuk Britaniyaning monopoliyaga qarshi asosiy qonunlaridan biri "Halol savdo to'g'risidagi qonun" bo'lib, u 1973 yilda qabul qilingan. Buyuk Britaniya qonunchiligiga muvofiq, tovar bozorining bozorgi hissasi 25% bo'lgan korxona ustun mavqega ega hisoblanadi. Buyuk Britaniya monopoliyaga qarshi siyosatni olib boruvchi davlat organi Adolatli savdolar bo'yicha agentlik deb nomlanadi.

Germaniya Jahon milliy iqtisodiyotida YAIM hajmi bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. Huquqiy an'analari Yevropa kontinentida joylashgan mamlakatlar, jumladan Rossiya va O'zbekiston bilan o'xshash. O'z vaqtida Germaniyaning monopoliyaga qarshi qonunchiligi EH monopoliyaga qarshi qonunchiligini ishlab chiqish uchun boshlang'ich nuqta vazifasini bajargan

GFR "Raqobatni cheklashga qarshi qonun" hajmi katta va mazmunan teran bo'lgani bilan (ushbu qonun oltita bob va 131 moddadan iborat) mazkur qonunning maqsadini oydinlashtirmagan. Raqobatni cheklashni keltirib chiqaruvchi holatlarni ko'p sonli turlari va holatlari juda aniqlik bilan ta'riflanganligi sababli GFR sudlari va Federal kartel organi raqobat siyosati borasida barcha siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni chetlab o'tgan holda ushbu qonunga so'zsiz itoat qiladilar. Lekin ma'lum bir holatda raqobatni cheklanishi iqtisodiyot uchun yoki jamiyat uchun foyda keltirishi isbotlab berilsa, u holda Iqtisodiyot Vazirligi ushbu bitim/kelishuvlarga istisno tariqasida ruxsat berishi mumkin va bu qonunda qayd qilingan.

Shunga qaramasdan, qonunda kichik va o'rta biznes subyektlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratadi. Buning sababi nemislar kichik va o'rta biznes subyektlarini nemis iqtisodiyotining ishonchi poydevori, innovatsiyalar va bandlik uchun qulay deb hisoblaydilar. Shu sababli ushbu subyektlarga ma'lum darajalarda kartel bitimlarini tuzishga ruxsat berilgan, masalan, agarda ushbu bitimlar ularni yirik raqobatchilariga nisbatan egallagan pozitsiyalarini kuchaytirishga yordam bersa. Qonun shuningdek monopolistga nisbatan preferensiyalarni qo'llash orqali ustun mavqeni suiiste'mol qilishni qat'iyyan taqiqlaydi.

GFRning "Raqobatni cheklashga qarshi" qonuni Federal Iqtisodiyot Vazirligiga istisno holatlarda qonunning alohida normalaridan (8 modda) ozod qilishi mumkin. Intellektual mulk va patentlardan foydalanish huquqi ushbu huquqlar qanday taqdim qilingan bo'lsa shu holicha qonun ta'siridan ozod qilinadi (17 modda). Ba'zi bir monopoliyaga qarshi normalardan ozod qilingan va alohida tartibga solinadigan sohalarga: qishloq xo'jaligi, sug'urtalash, intellektual mulk sohasi, sport kiradi (Qonunning V moddasi). Telekommunikatsiyalar sohasidagi raqobat "telekommunikatsiyalar to'g'risida qonun"(1996 g.) va ushbu sohada maxsus vakolat berilgan organ tomonidan tartibga solinadi. Barcha turdagi mulk shakliga ega bo'lgan korxonalarga teng sharoitlarda yondashish Qonunning 130 moddasida qayd qilingan.

Qonunda bir-birini o'rnini bosadigan tovarlar to'g'risida xech nima deyilmagan. Lekin, tovar bozorlarini mahsulot chegaralarini aniqlash maqsadida iqtisodiy tahlil o'tkazilganda bir-birini o'rnini bosish tamoyilidan foydalaniladi. Bunda umum qabul qilingan ekonometrik qoidalardan foydalaniladi: qarama-qarshi egiluvchanlik, 5-10% test.

GFR "Raqobatni cheklashga qarshi" Qonunida ustun mavqega berilgan ta'rif ham ustun mavqeni mavjudligiga asos sifatida korxonaning moliyaviy hukmronligidan foydalanadi. Ta'rif shuningdek jamoa ustunligini ham hisobga oladi. (1) Xo'jalik yurituvchi subyekt ma'lum bir tovarni yoki tijorat xizmatini yetkazib beruvchi yoki sotib oluvchi sifatida ustun mavqega ega bo'lsa, u

1. u raqobatchilarga ega emas yoki raqobatlashishga tortilmagan; yoki
2. raqobatchilarga nisbatan sezilarli bozor pozitsiyasiga ega; ushbu maqsadda uning

bozor ulushi, moliyaviy hukmronligi, xom-ashyo resurslaridanyoki bozorlardan foydalanishi, uni boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan aloqalari, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarni bozorga kirishi uchun to'siqlar, ushbu qonun chegarasida yoki uni ta'sir doirasidan tashqarida xo'jalik yurituvchi subyektlarni haqiqiy yoki potensial raqobatlashni shakllantirishi, uni o'z tovarlari va tijorat joylashtirish imkoniyatlari, hamda bozorni qarama-qarshi tomonlarini boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'tkazish imkoniyatlari hisobga olinadi.

(2) ikkita va undan ortiq xo'jalik yurituvchi subyekt ustunlikka ega bo'ladi, qachonki ularni o'rtasida ma'lum tovarlar yoki tijorat xizmatlariga nisbatn sezilarli raqobat bo'lmasa va ular birgalikda taklif shartlarini qondirsalar (1). (3) xo'jalik yurituvchi subyekt ustunlikka ega bo'ladi, qachonki uning bozor ulushi $\frac{1}{3}$ ortiq bo'lsa. Bir nechta xo'jalik yurituvchi subyekt ustunlikka ega bo'ladi, agarda ular:

1. uchta va undan kam xo'jalik yurituvchi subyektni bozordagi birgalikdagi ulushi 50% etsa, yoki
2. 5 ta yoki undan kam xo'jalik yurituvchi subyektni bozordagi birgalikdagi ulushi $\frac{2}{3}$ etsa,
3. agarda xo'jalik yurituvchi subyekt ushbu sharoit ular o'rtasidagi raqobatni qo'llab-quvvatlashishini ko'rsatsa, yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarning soni qolgan raqobatchilar uchun ahamiyatga ega bo'lmasa.

Qonun matnida ta'rif berilmagan. CHamasi u kamsituvchi harakatlarni umumiy tushunchasiga kirib ketgan. Masalan, Qonunning 19 (4) moddasi quyidagilarni talab qilishni man qiladi: Haq to'lashni unchalik qulay bo'lmagan shartlari yohud boshqa shartlar, qachonki ustun mavqega ega bo'lgan korxona o'xshash bozorlardagi haridorlardan talab qilsa, va ushbu tabaqalanishga obyektiv sabab mavjud bo'lmasa.

Germaniyaning monopoliyaga qarshi qonuni raqobat siyosati maqsadlarida shaxslar guruhini (korxonalar) yagona korxona sifatida ko'radi. Biroq, shaxslar guruhi deganda Aksionerlik jamiyatlari to'g'risida qonunga va Qo'shma kompaniyalar to'g'risidagi qonunga talablari nazarda tutiladi:

36 (2) modda - Agar qatnashuvchi korxonalar nazorat qilinsa yoki korxonani Aksionerlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunning 17 moddasi doirasida yoki Qo'shma korxonalar to'g'risidagi qonunning 18 moddasi doirasida nazorat qilinsa, u holda ushbu tarzda affilirlangan korxonalar yagona korxona sifatida ko'riladi. Agar bir nechta korxona birgalikda boshqa korxonaga ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishi mumkin bo'lsa, u holda ularning har biri nazorat qiluvchi sifatida ko'riladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. AQSHda raqobatni qo'llab-quvvatlash siyosati qanday olib boriladi?
2. AQSHda monopoliyaga qarshi faoliyatni tartibga solishning ilg'or tajribasi nimadan iborat?
3. Yevropa Ittifoqida raqobatni qo'llab-quvvatlash siyosati qanday olib boriladi?
4. Yevropa Ittifoqida monopoliyaga qarshi faoliyatni tartib solishning qanday qonunchiligi mavjud?
5. Germaniyada raqobatchilik siyosatini tartibga solish qanday amalga oshiriladi?

9-bob. OSIYO MAMLAKATLARINING MONOPOLIYAGA QARSHI FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISH TAJRIBASI

- 9.1. Yaponiyaning raqobat va ishlab chiqarish siyosati.
- 9.2. Janubiy Koreyada raqobatni rag'batlantirishning usulari.
- 9.3. Yaponiyaning monopoliyaga qarshi qonunchiligi.
- 9.4. Janubiy Koreyaning monopoliyaga qarshi qonunchiligi.

Chet ellik kuzatuvchilarning tahliliga qaraganda, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda rejalashtirish katta o'rin tutadi. Erkin bozori mavjud bo'lgan, sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiyotni rejalashtirishda uzoq muddatli rejalashtirish tizimini Yaponiya hukumati ham quvvatlaydi.

G'arbda faqatgina Fransiya va SHvetsiya yaponcha uslubdagi iqtisodiy o'sishda «indekativ» rejalashtirishni tan oladi. Boshqa mamlakatlar, shu jumladan, Germaniya, Buyuk Britaniya va Kanada ham iqtisodni rivojlantirishning uzoq muddatli rejasiga ega. Bu reja tor sohani qamrab olgan, ya'ni xarajatlar rejalashtirilmadi CHet el kuzatuvchilarning fikricha, Yaponiyada hokimiyat organlari bilan xususiy sektor o'rtasida qalin munosabat o'rnatilgan. Bu munosabat mamlakatning yagona maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Yaponiyalik ko'pgina iqtisodchilari Yapon rejasini iqtisodiy o'sishni ko'rsatuvchi «dekoratsiya» deb ta'riflaydilar. Ular iqtisodiy faoliyat natijalari iqtisodiyotga, dasturda ko'rsatilgan holatda tatbiq etilmasligirni nazarda tutib iqtisodiy o'sish dasturiga boshqacha yondashishadi, rejani o'zgarib turuvchi reja tarzida tahlil etishadi.

YAponiya monopoliyaga qarshi kurash so'xsi bo'yicha katta tajribaga ega va dunyoda eng katta mahalliy iqtisodiyotga ega davlatdir. Quyida biz Yaponiya monopoliyaga qarshi kurash buymcha uziga xos tajribalarini ko'rib chikamiz :

- Yaponiya monopoliyaga qarshi kurashdagi raqobat siyosati avvalombor iqtisodiyotni rivojlantirishga, ichki raqobat tijoratda muhim omil

xisoblanib, mamlakatdagi raqobat jarayonini himoya qilish uchun qo'llanilib kelingan.

- Yaponiya raqobat siyosati eng jiddiy raqobat siyosita bulib, uni jaxonning boshqa mamlakatlari tarkatishga asos bulib xizmat kilgan. Shuningdek monopoliya bo'yicha eng dastlabki SHERMAN qonuni 1890- yilda kabul kilingan.

- Yaponiyaning raqobat to'g'risidagi qonunchiliklarida raqobatga to'siq bo'layotgan to'siqlarni boshqa qonunchiliklarga nisbatan qat'iy standartlar bo'yicha baholaydi.

Yaponiyaning iqtisodiy o'sish rejasida hokimiyat milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli istiqbolni ko'zlash nuqtai nazaridan qanday boshqarishi kerakligi to'g'risida ko'rsatmalar beriladi. Dasturda yozilishicha, iqtisodiy siyosat hokimiyat tomonidan alohida qo'llanilishi mumkin bo'lgan harakat bo'lib, bunda barcha dasturlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan, so'zsiz, qabul qilinadi.

Yaponiya hokimiyatining siyosatdagi maqsadlari vaqt o'tishi bilan asta-sekin o'zgardi: uzoq muddatli faoliyat davomida iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarga moslashib, o'z faoliyati yo'nalishini o'zgartirib bordi.

Mamlakat iqtisodiy o'sish masalasidan xalqaro hamkorlik va xalq farovonligini oshirish masalalari bilan shug'ullanishga o'tdi. Iqtisodiy dasturda farovonlik, atrof-muhitni ifloslantirishning oldini olish masalalari o'z ifodasini topdi.

Tarmoq ishlab chiqarish tuzilmalaridagi uzoq muddat o'zgarishlar, xususan, ishlab chiqarish tuzilmalardagi o'zgarishlar, chunonchi kimyo sanoati, og'ir sanoat, sanoatning boshqa tarmoqlariga asoslangan ishlab chiqarish tuzilmalari esa faol bilimni uzlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlari tahlil etiladi. Keyingi jadval ma'lumotlarida ishlab chiqarish tuzilmasidagi loyihalashtirilayotgan ma'lumotlar haqiqiy natijalar bilan taqqoslanib tahlil etiladi.

Yaponiya tajribasida iqtisodiyot tobora rivojlangan sari va uning tarmok konsentratsiyasi darajasining oshib borishi sababli, xukumatda bozor tuzilmasi ustidvn kuchli nazorat amalga oshirish tendensiyasi yuzaga kelgan. Jumldan iktisobiy bozor tuzilmasida qo'llaniladigan raqobat to'g'risidagi qonun

korparatsiyalar o'rtasida qo'shilib ketishlar va aktiv transferlari bo'yicha bitimlarga davlat aralashadi Chunki ushbu aralashish yirik korparayailarning o'zaro raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilarning mustaqiligini susaytiradi va raqobat muhitiga putr yetkazadi. Shuningdek Yaponiyaning monopoliga qarshi siyosat tajribasida qo'shilib ketish to'g'risida oldindan xabab berish va iqtisodiy bozularda yuqori konsentratsiyalashuvga olib keluvchi korparativ tranzaksiyalarni man qilish orqali, davlatning faol aralashuvi amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni samarali boshqarish asosida 1947- yil boshidan 1950- yillargacha Yaponiya hukumati iqtisodiyotni rejalashtirish dasturini ishlab chiqdi. Dasturni ishlab chiqishda Iqtisodiyotni barqarorlashtirish kengashi (IBK) muhim o'rin tutadi.

Normallashtirish jarayoni. Siyosiy tomondan olib borilgan yordam natijasida 1946- yilda Iqtisodiyotni Erkinlashtirish Kengashi (IEK) tashkil etildi. Ishlab chiqarish va baholarni nazorat qilishda muhim o'rinni egallagan IEK yo'riqnomasida shunday deyiladi: IEK Primer Ministri rahbarligida ish olib borib, muvaqqat dasturlarni ishlab chiqishda hamda iste'mol tovarlari muomalasi, mehnat, baho, moliya, savdo va banklarni qat'iylashtirib boshqa ministrlk va agentliklar bilan nazorat qilish markazlari orqali munosabat olib borishni yo'lga qo'yadi.

Normalashtirish vositasi – talab va taklifni boshqarish bo'yicha vaqtli qonunlar asosida, belgilangan mahsulotlarni taqsimlash yo'riqnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Bir qancha xom ashyolar, jumladan, po'lat va ko'mir ham normallashtirish tizimi mahsulidir. Vazirlik foydalanuvchilarning iste'molini hisobga olib, IEKga iste'mol bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi. IEK esa talab va taklifning navbatdagi chorak bo'yicha umumiy miqdorini hisoblab, «har bir sektor» o'rtasida ma'lumotlarni taqsimlaydi. Shunga asosan vazirlik rejasini normalashtirish sertifikatini bo'yicha iste'molchi soniga qarab chorak kvartal ishlab chiqadi.

XX asrning 70- yillarida Yaponiya da yangi iqtisodiy nazariyalar vujudga keldi. Okibatda monopoliyaga qarshi qonunchilikning asosiy maqsadi istemolchilarning manfaatlarini kuzlagan xolda ,raqobatchilarni emas balki raqobatni himoya qilishga qaratildi

Yangi iqtisodiy taffakurning paydo bo'lishi natijasida monopoliya qarshi organlar raqobat bilan boglik masalalarni qayta ko'rib chiqa boshladilar. Bozorlarni iqtisodiy taxlil qilishda, yangicha iqtisodiy usullarni taklif kildilar. Qisqasi yangi taffakur raqobatchilarni himoya qilishda iqtisodiy samaradorlikni oldinga sura boshladilar. Natijada mamlakatda iqtisodiy maqsadlarni baholash tendensiyasiga ega bo'ldilar. Bu asosan sanoat rirojlanishini va eksport o'sishini raqobatga nisbatan yuqori qo'yildi.

Yaponiya iqtisodiy rivojlanish rejasi uch tarkibiy qismdan iborat. Birinchi qism: Iqtisodiy siyosatning umumiy iqtisodiy maqsad va shartlari umumiy tartibda ifodalanadi. Shundan so'ng hokimiyatning iqtisodiy siyosatini batafsil ifodalovchi dasturdagi bajariluvchi ko'rsatkichlar aks ettirilgan miqdoriy prognoz ma'lumotlari keltiriladi. Har bir iqtisodiy dasturning birinchi qismi uzoq muddatli siyosatning maqsadi haqida tushuncha beradi.

Yaponiya hukumatining ikkinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy rejasi maqsadga asoslanib besh kategoriyaning o'z ichiga oladi

«Milliy daromadni ikkilantirish rejasi»da (1960- y) og'ir sanoat va kimyo sanoati uchun yuqori darajadagi o'sish sur'atlari loyihalashtirilgan. Bu rejada kimyo sanoati va og'ir sanoat tarmoqlarida o'rtacha yillik o'sish rejasi 1959-1970 yillarda 13,2 %ni tashkil etgani, bu esa umumiy ishlab chiqarish uchun sarflardan 11,3% ko'pligi haqida izoh berilgan.

Milliy daromad ishlab chiqarishni ikkilantirish rejasi. Ishlab chiqarish tizimi natijalari hamda loyihalashtirish. (1959-70 yillardagi o'rtacha yillik o'sish sur'ati, %)

	Loyihalashtirilgan	Haqiqatda
Ishlab chiqarish	11,3	14,8
Og'ir va kimyo sanoati	13,2	18,3
Temir va po'lat	10,4	16,8
Rangli metall	9,1	14,6
Mashinalar	14,6	,8

Kimyo mahsulotlari (buyumlari)	11,9	15,1
Neft va ko‘mir mahsulotlari (buyumlari)	11,9	18,5
Engil sanoat va boshqalar	7,4	9,6
Keramika, toshdan tayyorlangan buyumlar, loydan tayyorlangan buyumlar	9,9	12,3
Rezina mahsulotlari (buyumlari)	10,4	11,5
CHarm mahsulotlari	5,3	10,8
Sellilyuza va qog‘oz mahsulotlari	7,1	12,1
Yog‘och va yog‘och mahsulotlari	3,4	9,1
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,9	5,5
Tamaki mahsulotlari	3,2	8,3

Tegishli davr davomida ishlab chiqarishda haqiqiy o‘shish sur‘ati 14,8% ni, kimyo sanoati va og‘ir sanoatda 18,3 % ni tashkil etgan. Bu o‘rinda eslatib o‘tish kerakki, og‘ir va kimyo sanoatining istiqboldagi o‘shish sur‘atlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsada ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati dasturda kamaytirib ko‘rsatilgan edi.

Chunonchi, iqtisodiy o‘shish rejasida, 1970- yillarning 2-yarmida sanoatda mehnat unumdorligi o‘shishi yangi texnologiyalarni aktiv o‘zlashtirishdan iborat bo‘ldi, deyilsa, dasturda o‘rtacha istiqboldagi o‘shish sur‘ati 7,8 %ni, umumiy sanoat ishlab chiqarishi hamda mashinasozlik sanoati ishlab chiqarishida 10,7% ni tashkil etadi, deyiladi. Haqiqatda esa, shu davrda umumiy ishlab chiqarish hajmi 4,6%, mashinasozlik ishlab chiqarishi 9,3% ga o‘sdi.

Yaponiyaning iqtisodiy o‘shish rejasida iqtisodiyotning uzoq muddatga mo‘ljallangan zaruriy loyihalari ham mujassamlashgan. Iqtisodiy o‘shishning 1950-1960- yillarga mo‘ljallangan rejasi alohida-alohida bo‘lgan ko‘p loyihalardan tashkil topgan edi. Birinchi marta e‘lon qilingan iqtisodiy o‘shish rejasida – «Iqtisodiy mustaqillikning besh yillik rejasi» (1955) YAMM va uning elementlaridan tashkil topgan bo‘lib, istiqboldan, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi, sanoatdagi bandlik,

milliy byudjet hamda sanoat uchun foydalaniladigan fond qismlarini mujassamlashtiradi.

1960 yilda qabul qilingan «Milliy daromadni ikkilantirish rejasi» demografiya istiqboli, YAMM ishlab chiqarish komponentlari va talab, sanoatda bandlikning tarkibi, jamg'arma va investitsiyalar o'rtasidagi balans, byudjet daromad va xarajatlari, mehnat unumdorligi va to'lov balansi qismlardan tashkil topgan.

Iqtisodni rejalashtirishdan asosiy maqsad ishlab chiqarish faoliyati uchun asos yaratish yuqori darajadagi iqtisodiy o'sishga erishishdan iborat.

1970- yillardan iqtisodiy o'sish rejasidagi loyihalar miqdor jihatidan kamayib bordi.

«Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yangi 7-yillik rejasi» (1979 y) bir qancha loyihalarni o'z ichiga oladi, ya'ni: YAMM ga talab va daromad, davlat moliyasi ko'rsatkichlarini olardi. 1983- yilda qabul qilingan «1980- yillarda jamiyat va iqtisod normativlari va istiqboli» nomli YAMMning o'sishi, ishsizlik, inflyasiya darajasi ko'rsatkichlari o'rin olgan edi. Loyiha ma'lum sharoitlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan holatlarni ko'zda tutadi.«Global soha bo'yicha iqtisodiyotni boshqarish rejasi»da kichik loyihalarni tuzishda rivojlanishning bir qancha kichik sabablari mavjud:

Birinchidan, rejalashtirish maqsadi iqtisodiy o'sishdan kelib chiqib ijtimoiy masalalarni tahlil etadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy muhit tufayli iqtisodiy istiqbolni ko'rsatish birmuncha qiyinlashdi, xalqaro munosabatdagi o'lchov birliklari bo'limi, neft bahosi, valyuta kursi ko'rsatkichlari tebranib turibdi.

Uchinchidan, hokimiyat iqtisodiy istiqbolni ifodalovchi alohida ko'rsatkichlarni ko'rsata olmaydi, bu ko'rsatkichlar dastur bilan bir xil ko'rinishda tuzilgan bo'lishi kerak.

1980- yilgi (1983) «Iqtisodiyot va jamiyat Normativlari va istiqboli rejasi» da oldingi davr talabiga asoslanib iqtisodiy o'sishni amalga oshirish, tashqi balans kamomadini korriktirovka qilish, moliyaviy kamomadni bartaraf etish maqsadida davlat obligatsiyalarini chiqarishdan xalos bo'lishni hokimiyat o'z oldiga vazifa qilib

qo'ygan edi. SHu bilan birga, hokimiyat bu maqsadga erishishda barcha loyihalarning bajarilishiga ko'zi etmasdi.

Yaponiyada 1947- yilda iqtisodiyotda ustun mavqega ega bo'lgan "dzaybatsu" kabi konglomeratlarni tarqatilishiga sabab bo'lgan "Xususiy monopoliyalarni taqiqlash va adolatli savdoni ta'minlash to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. YAponiya qonunchiligiga muvofiq, tovar bozorining bir yirik ta'minotchining bozor hissasi 50% dan ko'p, yoki ikki yirik ta'minotchilarining bozor hissasi 75% dan ko'p foizini egallagan korxona ustun mavqega ega hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. YAponiyaning raqobat va ishlab chiqarish siyosati qanday amalga oshiriladi?
2. Janubiy Koreyada raqobatni rag'batlantirish qanday usulari asosida olib boriladi?
3. YAponiyaning monopoliyaga qarshi qanday qonunchiligini bilasiz?
4. Janubiy Koreyaning monopoliyaga qarshi qanday qonunchiligi mavjud?

10-bob. MDH MAMLAKATLARI UMUMIY IQTISODIY MAKONIDA RAQOBAT MUHITINI YARATISH

10.1. Mustaqil Davlatlarning Xamdo'stligi mamlakatlari umumiy iqtisodiy makoni: vazifalar va muammolar.

10.2. Hamdo'stlik mamlakatlarining kelishilgan monopoliyaga qarshi siyosati - raqobat muhitini yaratish omilidir.

10.3. MDH mamlakatlarining monopoliyaga qarshi siyosatining amaliy jihatlari.

MDH mamlakatlari o'rtasida 1993- yilda kelishilgan raqobatchilik sohasida hamkorlik qilish muvofiqlashtirishning asosiy tamoyillari Monopoliyaga qarshi muvofiqlashtirilgan siyosatni olib borish to'g'risidagi Shartnoma nomli hujjatda belgilangan. Ushbu Shartnomaga muvofiq, 1993- yilda yilda Monopoliyaga qarshi siyosat bo'yicha Davlatlararo Kengash tashkil etilgan.

MDH davlatlari monopoliyaga qarshi siyosati va uning amalga oshiruvchi organining asosiy vazifasi fakatgina davlatning monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati olib borish emas balki ushbu siyosat orqali mamlakatda erkin tadbirkorlik va xususiy biznesni davlat tomonidan xar tomonlama kullab-kuvvatlashdir. Buning natijasida MDH davlatlaridagi raqobat muhitini yaxshilashga karatilgan RF va boshqa MDH mamlakatlari uzining faol monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati va raqobat muhitini himoya qilishga karatilgan chora-tadbirlari tufayli bugungi kunda o'zaro integratsiyaning kengayishi bilan rivojlangan davlatlarining monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati bo'yicha samarali tajribalaridan foydalanmokda. Qisqa muddat ichida MDH davlatlarida monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati bo'yicha xalqaro talablarga javob beradigan barkaror qonunchilik bazasini yaratdi.

MDH mamlakatlarining monopoliyaga qarshi boshqaruv organlari

Davlatlar nomi	Monopoliyaga qarshi organlar
Azarbayjan Respublikasi	Monopoliyaga qarshi siyosat va tadbirkorlikni kullab-kuvvatlash davlat qo`mitasi.
Armaniston Respublikasi	Sanoat va savdo vazirligi.
Gruziya Respublikasi	Moliya vazirligi xuzuridagi monopoliyaga qarshi xizmat.
Kirgiziston Respublikasi	Prezident xuzuridagi raqobatni himoya qilish va rivojlantirish komissiyasi.
Moldava Respublikasi	Iqtisodiyot va isloxot vazirligi.
Rossiya Federatsiyasi	Federal antimonopoliya xizmati
Tojikiston Respublikasi	Iqtisodiyot va tashki iqtisodiy aloqalar vazirligi.
Belarusiya Respublikasi	Tadbirkorlik va investitsiya vazirligi.
O`zbekiston Respublikasi	Monopoliyaga qarshi kurashish qo`mitasi
Ukraina Respublikasi	Monopoliyaga qarshi davlat qo`mitasi.

Monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati XVIII asrda vujudga kelgan bulib, MDH davlaridagi birinchi monopoliyaga qarshi boshqaruv qonunchiligi AKSH ning «SHerman» qonuni (1890) kabul kilingandan roppa-rosa 100 yil o`tgandan so`ng, ya`ni 1990 -yil Rossiya Federatsiyasi davlatida kabul kilingan. Ushbu qonun RFning rokobat muhitini va monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosatining asosiy

yunalishlarini belgilab berdi. MDH mamlakatlari davlat raxbarlari uzining monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati va monopoliyaga qarshi qonunchiligini yaratishda, davlatning milliy manfaatlaridan kelib chikkanda shuningdek MDH davlatlari o'zaro hamkorlik doirasida monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati bo'yicha manfaatli hamkorlik olib bormokda buning samarasi jixatida MDH davlatlarining «Bojxona ittifoki» va «Yagona iqtisodiy hudud» bo'yicha o'zaro shartnomalari kabul kilingan bu shartnomalar uzok muddatli hamkorlik jixatlarini belgilab beradi.

SHuningdek kabul kilingan qonun va qonun osti hujjatlari asosan raqobat muhitini himoya qilishga qaratildi. Xozirgi vaktda uzgarib turuvchi iqtisodiy sikllar davrida xamda jaxon bozoridagi MDH davlatlarining tutgan rolini xisobga olgan xolda kabul kilingan monopoliyaga qarshi boshqaruvi bo'yicha qonunchiligi xam jiddiy o'zgarishlarni takozo kilmokda. Shuningdek ushbu MDH davlatlarining ichki qonunchilik normalaridan kelib chikkan xolda ushbu monopoliyaga qarshi boshqaruv bo'yicha qonunlar kabul kilinmokda. Monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati bo'yicha kabul kilingan qonunlarning samarali ijrosini amalga oshirishda MDH mamlakatlarida monopoliyaga qarshi boshqaruv organlari orqali amalga oshiriladi. MDH davlaridagi iqtisodiyotining monopolizatsiya darajasini kamaytirish va soglom raqobat muhitini shakllantirish ushbu monopoliyaga qarshi boshqaruv organining asosiy vazifasi isoblanadi.

Monopoliyaga qarshi boshqaruv organlarining asosiy vazifalari quyidagilarda iborat:

1. Monopoliyaga qarshi qonunchilik ijrosi bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish.
2. Monopoliyaga qarshi faol davlat siyosati va soglom raqobat muhitini himoya qilish.
3. Erkin tadbirkorlik va xususiy biznesni rivojlantirish.
4. Iste'molchilar huquqini himoya qilish, shuningdek fukoralarni noxalol raqobatdan himoya qilish.

Bugungi kunda MDH davlatlari monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati bo'yicha aloqador bulgan boshqa qonunlarni xam amaliyotga kiritgan jumladan, reklama to'g'risida, iste'molchilar huquqini himoya qilish va tabiiy monopoliya to'g'risidagi qonunlar. Umuman olganda MDH davlatlaridagi bugungi kundagi monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati qonunchilik bazasini takomillashtirishda dunyodagi rivojlangan davlatlarning monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati bo'yicha ilgor tajribalaridan keng foydalanmokda

Monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati bo'yicha MDH davlatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri o'zaro samarali monopoliyaga qarshi boshqaruv organlari tizimini yaratishdir. Bugungi kundagi integratsiya va globallashuv sharoitida MDH davlatlarining monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati va boshqaruv organlari faoliyati bo'yicha o'zaro samarali tajribalarni amalga oshirish mexanizmini yaratish lozim. Bu bo'yicha 1999-2000-yillarda MDH davlatlarining monopoliyaga qarshi boshqaruv kengashi doirasida bir kator masalalar ko'rib chikildi. Jumladan: Nosoglom raqobat, iqtisodiy konsentratsiya, o'zaro kelishib olish ustun mavkeyini suistemol qilish, monopoliyaga qarshi qonunchilik ijrosi bo'yicha, monopoliyaga qarshi boshqaruv organlari va mahalliy boshqaruv organlari o'zaro faoliyati soxasi doirasida.

MDH davlatlari monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati bo'yicha o'zaro hamkorlik strategiyasi quyidaglardan iborat:

- MDH davlatlari a'zolari o'rtasida davlatlar aro monopoliyaga qarshi kengash doirasida monopoliyaga qarshi qo'mita yoki komissiya ishini tashkil qilish.
- MDH davlatlari monopoliyaga qarshi boshqaruv organlari isjtirokida doimiy ishchi komissiya ishini tashkil qilish.
- MDH davlatlari o'rtasidagi bugungi kundagi monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosati ushbu davlatlarning o'zaro integratsiya va manfaatli iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga katta xissa qo'shishi lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Mustaqil Davlatlarning Xamdo'stligi mamlakatlari umumiy iqtisodiy makonida qanday vazifalar va muammolar mavjud?
2. Hamdo'stlik mamlakatlarining kelishilgan monopoliyaga qarshi siyosatini qanday tushunasiz?
3. Raqobat muhitini yaratishda Hamdo'stlik mamlakatlari tashkilotlari qanday hamkorlikni olib borishadi?
4. MDH mamlakatlarining monopoliyaga qarshi siyosatining amaliy jihatlarini izohlab bering.

11-bob. RAQOBATCHILIKNI TARTIBGA SOLISH XALQARO TIZIMINING RIVOJLANISHI

11.1. Gavan Xartiyasi va raqobatchilik muammolari.

11.2. Xalqaro tashkilotlar ishtirokida raqobatchilik usullarining qoidalarini ishlab chiqish.

11.3. GATT/VTO xalqaro tashkilotlari.

11.4. Xalqaro hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.

Davlat tomonidan iqtisodiyotning boshqarilishi korxonalarni bevosita ro'yxatga olish, faoliyatini yo'naltirish, iqtisodiy qonunchilik orqali ularning iqtisodiy huquqlarini va faoliyat me'yorlarini belgilab qo'yish, belgilangan tartib-qoidalarining bajarilishi, ularga rioya qilinishini nazorat qilish, rag'batlantirish va jazo choralarini qo'llash, soliqlar, jarimalar va iqtisodiy imtiyoz kabilardan foydalanish, turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-iqtisodiy dasturlar tuzish, ularni bajarish bo'yicha tadbirlar ko'rish orqali amalga oshiriladi.

19-asrning 70-yillarigacha xorijiy mamlakatlarda yakka xususiy kapital, yollanma mehnat va erkin raqobatga asoslangan sohibkorlik hukmron bo'lib, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi juda past darajada edi. Sohibkorlar faoliyati asosan bozor tomondan boshqarilar edi. SHuning uchun ham bu davr oddiy, sof, erkin raqobatga asoslangan kapitalizm deb ataladi. Bunday sharoitda Davlat monopoliyasining eng oddiy ko'rinishlari vujudga kela boshlagan edi. Ular mustaqil xo'jaliklarning ishlab chiqarish. va tijoratchilik faoliyatini himoyalash (proteksionizm), nazoratga olish va tartiblash (davlat buyurtmalari berish, tovarlarni markazlashgan tarzda xarid qilish .) tarzida ro'y bera boshladi.

19-asr oxiri va 20-asr boshlarida korporativ mulkchilik, korporatsiyalar (aksiyali jamiyatlar) va korporativ xo'jalik yuritish hukmron mavqega ega bo'ldi. Korporatsiyalarning bir qismi monopoliyalarga aylana borib, erkin raqobat bilan bir qatorda monopolistik raqobat paydo bo'ldi. Davlatlararo ziddiyatlar kuchayib, ularda monopoliyalarning kuchi va ahamiyati muhim rol o'ynay boshladi.

Bu jarayonlarni tahlil etgan olimlar, kapitalizmning yangi jihatlariga ahamiyat berib, uni imperializm, korporativ kapitalizm, monopolistik kapitalizm deb ham atay boshladilar. 20-asrning 1-yarmida monopoliyalar va monopolistik jarayonlarning ijobiy tomonlari bilan birga, salbiy tomonlari va oqibatlari ham ko‘rina boshladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qarama-qarshiliklar asta-sekin kuchaydi, iqtisodiy inqirozlar ancha tezlashdi va chuqurlashdi hamda davlatlararo ziddiyatlar ham kuchayib 1- va 2-jahon urushlari yuz berdi. Bularning hammasi davlatning iqtisodiyotga aralashuvini, iqtisodiyotning davlatlashtirilishini, davlat iqtisodiyotining shakllanishini va butun iqtisodiyotning davlat tomonidan umummilliy manfaatlariga muvofiq boshqarilishini va tartiblanishini taqozo eta boshladi. SHu sababli «kapitalistik ishlab chiqarishni davlatlashtirish» tendensiyasi kuchaydi. Sanoatning muhim tarmoqlari davlat qo‘liga va nazoratiga o‘tdi. Davlatlar iqtisodiyotni hisobga olish va nazorat etish bo‘yicha markazlashgan apparatni vujudga keltira boshladi.

Ingliz iqtisodchisi J.M. Keyns «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) kitobida davlatning iqtisodiyotni boshqarishi zarurligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari surdi va asosladi. Bu g‘oyaning hayotga ta‘siri juda katta bo‘ldi. AQSHda XX asrning 30-yillaridayoq Prezident Ro‘zveltning «YAngi yo‘l» siyosati natijasida, boshqa mamlakatlarda 2-jahon urushi yillarida va undan keyingi davrda kapitalizm Davlat monopoliyasiga aylandi va shundan beri turli ko‘rinishlargaega bo‘lgan Davlat monopoliyasi sifatida rivojlanmoqda. Davlat monopoliyasi sharoitida bozorning mavqei, roli o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi; o‘zluksiz takomillashib, tobora insoniy va madaniy-ma‘rifiy tus olib boradi. SHu bilan birga bozor kapitalistik iqtisodiyotning barcha muammolarini hal eta olmadi va hatto, uning salbiy tomonlari ham namoyon bo‘ldi. SHu sabablarga ko‘ra kapital va yollanma mehnatga asoslangan iqtisodiyotni bozor, davlat va korporatsiyalar o‘zaro birgalikda boshqaradi xamda rivojlantiradi. Davlat bozorni ham, korporatsiyalar faoliyatlarini ham, jahonshumul jarayonlarni ham boshqarish va tartiblashga intiladi. Bularning hammasi rivojlangan mamlakatlarda Davlat monopoliyasi mavjudligidan dalolat beradi.

Rivojlangan mamlakatlardagi Davlat monopoliyasi erkin raqobatli kapitalizmga nisbatan katta farqlarga ega. Davlat monopoliyasiga xos bo'lgantovarli - bozorli aralash iqtisodiyotga davlatning ta'siri miqyosi juda keng va kuchlidir. Davlat monopoliyasining harakatlanishi va rivojlanishida iqtisodiyotga oid qonunchilik muhim o'rin tutadi. masalan, mulkiy munosabatlarni, ish beruvchilar va yollanib ishlovchilar o'rtasidagi munosabatlarni, xo'jalik faoliyatini, ishlab chiqarish., savdo, xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi sohalar faoliyati, bank ishi, mehnatga haq to'lash, xarajatlar va daromadlarni hisoblash, soliqqa tortish va soliq undirish, bozorda iste'molchi huquqlarini himoyalash kabilarni tartiblash va nazorat qilish hamda monopolistik faoliyatni taqiqlash yoki cheklashga qaratilgan qonunlar qabul qilingan va ular takomillashtirilmoqda.

Davlat monopoliyasiga xos muhim jarayon bu, daromadlar va boyliklarni ijtimoiy totuvlikni yaxshilash uchun kam daromadlilar va daromadsizlar, kambag'allar va mulksizlar foydasiga hamda iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirish maqsadlarida qayta taqsimlashdir. Shu sababli davlatlar yalpi ichki mahsulotning anchagina qismini soliqlar vositasida davlat byudjetiga olib, qayta taqsimlaydi, kambag'al, kam ta'minlangan va ta'minlanmagan kishilarga transfert to'lovlari — ijtimoiy ta'minot bo'yicha mablag'lar (nafaqalar, yordam pullari) beradi. Soliqlar orqali olingan davlat daromadlarining bir qismi hisobiga korxonalar qurish hamda xususiy korxonalarni milliylashtirish orqali ishlab chiqarish, transport, energetika kabi sohalarida davlat mulki vujudga keltirildi va rivojlantirildi. SHu bilan birga ba'zi mamlakatlarda davlat mulkini qayta xususiylashtirish yo'li bilan iqtisodiyot samaradorligini oshirishga qaratilgan siyosat ham amalga oshirilmoqda. Eng muhim tarmoqlarda va muayyan ko'lamlarda davlat mulkining bo'lishi obyektiv zarurdir, undan samarali foydalanish yo'llarining izlanishi va takomillashtirilishi umummilliy ehtiyoj va maqsadlarga muvofiq keladi.

Davlat tomonidan qilinadigan bevosita investitsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarishva milliy mahsulot tarkiblarini o'zgartirishda davlatning kredit siyosati, davlat tomonidan mahsulot (tovarlar) xarid qilinishi va pullik xizmatlar iste'mol qilinishi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ta'minlash rivojlangan

mamlakatlardagi Davlat monopoliyasining eng muhim vazifalari va dolzarb muammolari hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlardagi davlatning juda muhim vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish, iqtisodiy-moliyaviy inqirozlarning oldini olish, ulardan chiqish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishdir. Davlat boshqa mamlakatlar xo'jaliklari bilan iqtisodiy, savdo va to'lov balanslarini nazorat qiladi, ularni muvo-fiqlashtirishga va faollashtirishga harakat qiladi. Bularning hammasi milliy iqtisodiyotning barqarorligi, rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi davlatlarning tobora ko'proq in-son va butun xalq manfaatlarini ko'zlaydigan hamda aholining mutlaq ko'pchiligi qo'llab-quvvatlaydigan davlatlarga aylana borishi, kelajakda bu mamlakatlardagi jamiyatlarning, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarining umumdemokratik ijtimoiy jamiyatga aylanishi ko'zatilmoqda.

Monopoliyalar faoliyatidagi muhim yondoshuvlardan biri dumping siyosati hisoblanadi. dumping (yirtqich — tashlash, tashlama) — tovarlarni tashqi va ichki bozorda sun'iy arzonlashtirilgan, o'rtacha chakana narxlardan, ba'zan tannarxdan past narxlarda sotish tashqi bozorni egallash uchun raqobat kurashi vositalaridan biri. Tashqi bozorda tovarlarning o'z qiymatidan arzon sotilishidan birlashmalar zarar ko'radi. Bu zarar ichki bozorda sotilgan tovarlardan olingan yuqori foydadan mablag' ajratish yoki davlat byudjetidan hamda soliqlar hisobidan qoplanadi. Dumping davlat yoki kompaniya tomonidan kelgusida kutilayotgan zararlarni bartaraf etish maqsadida o'tkaziladi va bu yo'l bilan zarur bo'lgan pul, valyuta mablag'lari tezda to'planadi.

XX asr boshlarida, Yevropa davlatlarida dumping ommaviy tus oldi. 1929—33 yillardagi jahon iqtisodiy tangligi davrida, ayniqsa, keng yoyildi. 2-jahon urushidan keyin dumping siyosati AQSH monopoliyalari tomonidan muntazam o'tkazib turildi. Dumpingning ayrim mamlakatlar tomonidan qo'llanilishi o'z navbatida boshqa mamlakatlarning unga qarshi chora ko'rishiga olib keladi. Mol kiritish bo'yicha olinadigan boj summasini oshirishda o'z ifodasini topadi. Jahon iqtisodiy tajribasidan ma'lumki, ko'pgina davlatlarda dumpingga qarshi qonunchilik,

dempingga qarshi maxsus bojlar amal qiladi. Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (hoz. Jahon savdo tashqiloti) 1967- yilda xalqaro dempingga qarshi kodeks qabul qildi. Unda demping holatini aniqlash va isbotlash tartib-qoidalari, import mamlakat firmalari tomonidan demping natijasida shu turdagi tovarni ishlab chiqaradigan eksport qiluvchi mamlakatlarga yetkazilgan zararni to'lash yo'llari yer egasining o'z yerini tabiiy resurs tarzida ijaraga taqdim etganligi uchun oladigan daromadi; bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan yaratilgan qo'shimcha maqsulotning yer egalari tomonidan mulk egaligi huquqiga ko'ra o'zlashtiriladigan qismi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan er maydonlari tabiatan cheklanganligi sababli (inson yer resurslarini ko'paytirishga qodir emas) barcha erlar mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan egallab olinadi va erga xo'jalik obyekti sifatida monopoliya vujudga keladi. Natijada yer bilan bog'liq renta munosabatlari paydo bo'ladi.

Bank monopoliyalari - konsentratsiyalashuv natijasida biror davlatdagi bank ishlarining bir necha yirik banklar qo'lida to'planishi. Moliya kapitali bozoridagi taklifda raqobatning bo'lmasligi bilan tavsiflanadi. Masalan, 1962- yil Angliyada bank kapitali umumiy summasining 90 % besh bankka tegishli bo'lgan, 1968- yil AQSHda rasman mustaqil hisoblanadigan 14 ming bank bo'lgan, lekin jami bank operatsiyalarining 25 % 10 ta yirik tijorat banki hissasiga to'g'ri kelgan. 1995- yilda esa AQSHdagi eng yirik hisoblangan «Cheyz of Manxetten» va «Kemikl» banklari o'zaro qo'shib ketdi. Kapitalizmning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan Bank monopoliyalari ning ahamiyati ortib ketdi. Bank ishining hozirgi tamoyillari birinchi bo'lib 17-asrdan boshlab Angliyada, so'ngra boshqa mamlakatlarda yuzaga kela boshladi. Shu davrdan boshlab Bank monopoliyalari kapital va tadbirkorlikni ishga solishning maxsus bir sohasiga aylandi. Bank monopoliyalarining ko'payishi bilan ssuda kapitali kapitalning asosiy shakllaridan biri bo'lib qoldi. Asta-sekin bank monopoliyalari yirik-lashib, ular bajaradigan operatsiyalar doirasi kengayib bordi. Bank monopoliyalari muomalaga xususiy veksellar o'rnida ishlatiladigan kredit pullari — banknotlar (bank biletlari) chiqara boshladi. Ko'pgina mamlakatlarda cheklar bilan amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblar paydo bo'ldi.

Kapitalizmning rivojlanishi bilan kredit va to'lovlarda vositachilik vazifasini bajaradigan muassasalarga talab ortib bordi. Bank monopoliyalari bo'sh pul vositalarini yig'ib, ularni turli muddatlarga ssudaga berdi, ular korxonalarning joriy hisobvarag'ini yuritib, korxonalar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni olib bordi. Asta-sekin bank monopoliyalari o'rtasida eng yiriklari paydo bo'ldi. Ayniqsa, 19-asr oxiriga kelib Bank monopoliyalari ishlab chiqarishning konsentratsiyalanishi oqibatida Bank monopoliyalarining yiriklashuvi banklar sonini qisqarishiga va bank monopoliyalarining vujudga kelishiga, ular o'rtasida o'zaro raqobat ko'rashining kuchayishiga sabab bo'ldi. Bank monopoliyalari to'lov va kredit operatsiyalarida vositachilik qilish bilan kifoyalanmay, sanoat korxonalari aksiyalarini sotib ola boshladi, ularning xo'jaliklari yoki muassislaridan biriga aylandi, yangi korxonalar ta'sis etishda hamkorlik qildi. Yirik Bank monopoliyalari va sanoat kapitalining birga qo'shilib ketishi natijasida moliya kapitali va moliya oligarxisi vujudga keldi, bu oligarxiya mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy hayotida katta mavqeni egalladi.

Xozirgi davrda ko'pgina mamlakatlarda ko'plab (masalan, XX asrning 90-yillari boshida AQSHda 14, 5 mingdan ortiq bank bo'lgan) banklar bo'lishiga qaramay, ulardan 3-4 tasigina yetakchi o'rinda turadi. Turli mamlakatlardagi yirik bank monopoliyalari nihoyatda sertarmoq bo'lib, o'z mamlakati doirasidagina emas, shu bilan birga jahonning juda ko'p mamlakatlarida bo'lim va filiallariga ega. Rivojlangan mamlakatlarda bank monopoliyalari iqtisodiyotni boshqarish va rag'batlantirish muassasasi vazifalarini bajaradi.

Jaxonning eng yirik monopol korxonalari jumlasiga «British Ameriken Tobakko» («B.A.T») korporatsiyasi kiradi. Mazkur kompaniya dunyodagi eng yirik tamaki monopoliyasi sifatida baholanadi. 1902-yilda tashqil etilgan. «B.A.T» Buyuk Britaniya va AQSH kapitali qo'yilgan monopolistik birlashma bo'lib, asosan tamaki mahsulotlari, shuningdek oziq-ovqat va kosmetika mollari, qog'oz-karton va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. Boshqa mamlakatlarda ham sanoat korxonalari, shu jumladan 67 tamaki fabrika mavjud. Bu fabrikalarda 240 turdagi sigaretalar ishlab chiqariladi. Kompaniya Yevropa va O'rta Osiyoda keng ko'lamda faoliyat yuritadi. Jumladan, kompaniya O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik o'rnatib, «O'zBAT

aksiyadorlik jamiyati» qo'shma korxonasini (Samar-qand tamaki f-kasi bilan birgalikda) to'zdi (1994). U yiliga 20 mlrd. dona sigareta ishlab chiqarish. quvvatiga ega. Qo'shma korxonaning qurilish va jihozlanish ish-lari uchun 100 mln. dollar investitsiya jalb etilgan.

«British Petrolum»- Buyuk Britaniyadagi eng yirik neft monopoliyalaridan biri. 1909- yilda tashqil etilgan. 38% aksiyasi davlatniki. AQSH Alyaska (60%) va SHim. dengizdan (40%) neft qazib oladi, 25 mamlakatda neftni qayta ishlaydigan korxonalari bor. G'arbiy Yevropaning bir nechta mamlakatlari hududidan o'tgan yirik neft quvurlarining egasi. Monopoliya yiliga 77, 5 mln. tonna neft qazib oladi, 96,2 mln. tonna neftni qayta ishlaydi. Keyingi vaqtlarda monopol kompaniya kimyo korxonalarini ri-vojlantirish uchun katta mablag' sarf qilayotir. Yillik savdo hajmi 46, 2 mlrddollar, sof foydasi 2, 2 mlrd dollar.

Rivojlangan mamlakatlarda monopliyaning vujudga kelish omilaridan bu-kartel bitimlaridir. Kartel bitimlari-ishlab chiqaruvchilar yoki iste'molchilarning monopolistik birlashmalari shakli bo'lib, bir tarmoqdagi mustaqil korxonalar, firmalar, kompaniyalarning ishlab chiqarish va sotishning umumiy hajmlari, narxlar, sotish bozorlari, har bir ishtirokchining hissasi, ishchi kuchi yollash to'g'risida bitimi. Kartel bitimlari tashqil etishdan asosiy maqsad birlashma ichida raqobatni bartaraf etish, cheklash va ushbu kelishuvda qatnashmagan firmalar tomonidan bo'ladigan tashqi raqobatni bostirish yo'li bilan foydani oshirishdan iborat.

Kartel bitimlari ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi va kapitalning markazlashuvi bilan bog'liq holda 19-asr oxirida paydo bo'ldi. 00-asrning 1-yarmida Germaniyada keng tarqaldi. Amerikada trestlarga qarshi qonunlar chiqarilib, ayrim sohalarida kartel bitimlari tuzish taqiqlandi, lekin shunga qaramay, maxfiy kartel bitimlari davom etdi. Kartel bitimlar 20-asrning 20—40-yillari o'rtasida sanoatning ko'pgina sohalarida avj oldi.

Hozirgi davrda bir qator mamlakatlarda kartel bitim bitimlari tuzish monopoliyaga qarshi qonunchilik bilan taqiqlangan yoki ayrim tarmoqpar va ishlab chiqarish. turlari yoki alohida sharoitlar doirasi bilan cheklangan. Jahonda son

jihatidan unchalik ko'p bo'lmagan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida muayyan bir tovar bo'yicha jahon bozorini o'zaro bo'lib olish, raqobat darajasidan ortiq bo'lgan foyda olish, xonavayronlik raqobatiga yo'liqmaslik maqsadlarida xalqaro kartel bitim bitimlari tuzildi.

Xozirgi sharoitlarda ham bir qancha qudratli xalqaro kartel bitimlar mavjud, OPEK unga yorqin misol bo'la oladi. Bozor monopoliyasiga qarshi kurashda mayda va o'rta biznes kartel bitim bitimlaridan unumli foydalanadi.

Moliya guruhleri - bir necha oila yoki guruhlarining ittifoqi. Iqtisodiy birlashish negizida tashqil topgan yirik moliya-sanoat birlashmalari, sanoat, bank, transport, savdo, sug'urta, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarning yirik uyushmasi. 19-asr oxiri —20asr boshlarida kapitalning konsentratsiyasi hamda markazlashuvi asosida shakllangan. Moliyaguruhleri yirik kapitalga ega bo'lgan monopoliyalarning gigant ittifoqidir. Moliya –guruhleri dastlab AQSH da, keyinchalik Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va boshqa davlatlarda tashkil topdi. Bunday guruhlariga Rokfellerlar, Morganlar, Dyuponlar, Mellonlar, Jianini kabilar misol bo'la oladi. Har bir Moliya guruhlarining markazi davlatning ma'lum hududida joylashgan bo'ladi. Ammo 20-asrning 70-yildan ularning ta'sir doirasi baynalmilallashib transmilliy tus ola boshladi. Korporatsiyalar ko'paydi. Masalan Rotshild guruhi tasarrufidagi aktivlarning qariyb 60% Fransiyadan tashqaridagi hududlarda joylashtirilgan. Yetakchi moliya guruhleri faoliyati universal xarakterga egadir. AQSH, G'arbiy Yevropa va Yaponiya iqtisodiyotida 5-10 ta moliya guruhleri asosiy o'rin egallaydi. Yetakchi o'rin AQSH moliya guruhlariga tegishli. Moliya guruhlarining yirik savdo-sanoat korporapiyalari boshqa moliya guruhlarining banklari va sug'urta kompaniyalari bilan kredit aloqalarini o'rnatgan. Masalan Kaliforniya va Texas (AQSH) guruhleri Uoll-strit banki kreditlaridan foydalanadi. Mamlakatlararo iqtisodiy integratsiya jarayoni yangi tipdagi birlashmalar - xalqaro korporatsiyalarni vujudga keltirdi. Ular 2 turga ajratiladi: transmilliy korporatsiyalar va ko'ptarmoqli korporatsiyalar. Hozirgi paytda jahonda 37 mingga yaqin xalqaro korporatsiyalar va ularning 206 mingdan ortiq filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. 1980-yillar oxirida 100 ta yirik Moliya –guruhleri dan 38 tasi G'arbiy Yevropada, 29 tasi

AQSHda, 16 tasi Yaponiyada, 10 tasi Fransiyada, qolganlari, Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya va boshqa industrial mamlakatlarda joylashgan edi.

Moliya-sanoat kapitali monopoliyasi-pul kapitali, pul vositalari shaklidagi kapital. Sanoat kapitalining bank kapitali bilan o'zaro qo'shib ketishi natijasida yuzaga keladigan kapital. Moliya –sanoat kapitali monopoliyasi iqtisodiy kategoriya sifatida XIX asr oxiri XX asr boshlarida ishlab chiqarish va bank sohasida kapitalning yuqori darajada yiriklashishi asosida vujudga keldi. Bunga qadar sanoatchilar va bankirlar bir-biridan mustaqil holda ish ko'rar, banklar sanoatga xizmat ko'rsatar, sanoatchilar sanoat foydasini olsa, banklar bank foydasiga ega bo'lar edi. Banklar qo'lida kapital yiriklasha boshlagandan keyin, ular o'zlarining bo'sh turgan mablaglarini sanoatga faqat qisqa muddatga emas, balki o'zoq muddatga qarz berib, korxonalarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan bo'ldi, hatto ayrim hollarda ularning takdiri banklarga bog'liq bo'lib qoldi. Bank mablaglari har xil aksiyalar sotib olish va «ishtirok etish tizimi» asosida sanoatga ko'cha boshladi. Natijada yirik banklar ayni bir vaqtda, sanoat magnatlariga, yirik sanoatchilar esa yirik bank magnatlariga aylandi. AQSHdagi eng yirik 2 moliya monopolistik guruh- Morganlar va Rokfellerlar Moliya-sanoat kapitalining shakllanishiga yaqqol misol oladi, chunki Morgan dastlab bankir, Rokfeller esa neft sanoatchisi edi. Moliya –sanoat kapitali rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining barcha sohalari - sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, savdo, sug'urta mavjud bo'lib, kapitalning turli xil shakllari (tovar, pul, savdo, kredit)ni harakatga keltiradi va yuqori darajada foyda olishga erishadi. Moliya –sanoat kapitali davlat siyosatida ham muhim rol o'ynaydi. Chunonchi, AQSHning «AIG» (Ameriken Interneyshnl Grupp) sug'urta kompaniyasi jahonning 100 dan ziyod mamlakatlarida o'z bo'linmalariga ega.

Trest-korxonalar, firmalar birlashmasi. Sanoat monopoliya-larining 20-yillardagi eng yuqori shakli. Trest tarkibiga kirgan ishtirokchilar o'z ishlab chiqarish-savdo mustaqilligini yo'qotadi va bu sohalardagi faoliyatida markaziy boshqarma qaroriga amal qiladi. Trestlarga qarshi qonunchilik—raqobatni rivojlantirish, monopoliyalarni cheklash va taqiqlashga yo'naltirilgan, monopolistik tuzilmalar va birlashmalarni tashqil etishni, monopolistik faoliyatni taqiqlaydigan qonunlar va

hukumat qarorlari. Trestlarga qarshi qonunchilik birinchi marta 1890 yilda AQSHda qabul qilingan (Sherman akti).

Rokfellerlar - AQSHdagi eng yirik moliya-sanoat guruhlaridan biri. 1870-yillar Jon Rokfeller (1839-1937) "Standart oyl" kompaniyasini tuzib, 19-asr oxirida neft sanoati monopoliyasi asosida yuzaga keldi. 20-asrning 20-yillarida AQSHdagi yirik monopoliyalar ichida Morganlardan so'ng 2-o'rinni egallaydi. 1970 yilga kelib Rokfellerlar jami mablagi 124,6 mlrd dollarga etadi. Rokfellerlarning moliya-sanoat guruhi o'zagini «Ekson» neft monopoliyasi (aktiv 1973 yilda 36, 8 mlrd. dollar) va «Cheyz Manxeten bank» tijorat banki tashkil qiladi. Rokfellerlar guruhi ko'plap moliya-kredit va sanoat muassasalariga ega. Mashinasozlik, elektrotexnika va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining bir qancha korxonalari ularning tasarrufida.

Jahondagi YUNKTAD, Iqtisodiy hamkorlik va tarqiyot tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti kabi tashkilotlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarda raqobat qoidalarini ishlab chiqish va rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan.

Xalqaro savdodagi sodir bo'layotgan jarayonlarni taxlil kilar ekanmiz erkinlashtirish uning eng asosiy yunalishi ekanligini ta'kidlab utish lozim. Boj tulovlarida sezilarli kamaytirishlar yuz berdi, kulgina cheklashlar, kvotalar va boshqa to'siqlar yuk kilindi. Birok bir kator muammolar mavjud. Ularning eng asosiysi - proteksionistik xarakatlarning kup narsalarda bir-biriga zid bulgan iqtisodiy guruhlar, mamlakatlarning savdo-iqtisodiy bloklari mikiyosida rivoj topishi.

Savdo-iqtisodiy bloklarning paydo bo'lishidagi birinchi kadam bu erkin savdo hududlarining yaratilishidir. Xalqaro bankning axborotlariga karaganda 90-yillar arafasida dunyo savdosining 42% shunday hududlarda olib borilgan. Eng mashxur hududlar bu - Ovrupaning erkin savdo assotsiyasiyasi(EAST), Ovrupa Xamjamiyati(ES), SHimoliy Amerika erkin savdo zonasi(NAFTA), Osiyo-Tinchokeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti(ATES) va boshqalar.

Xalqaro hududiy savdo bloklarining eng yirik to'qqiztasining tarkibi quyida keltirilgan:

1. Yevropa Ittifoqi (ES)-Avstriya, Germaniya, Velikobritaniya, Italiya, Irlandiya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Finlyandiya, Shvetsiya, Daniya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandu, Gretsiya.

2. Shimoliy Amerika erkin savdo haqidagi kelishuvi(NAFTA) - AKSH, Kanada, Meksika.

3. Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi(EAST) - Islandiya, Norvegiya, Shveysariya, Lixtenshteyn.

4. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi(ASEAT) - Avstraliya, Bruney, Malayziya, Singapur, Tailand, Yangi Zelandiya, Papua-Novaya Gvineya, Indoneziya, Fillipinu, Tayvan, Gonkong, Yaponiya, YUjnaya Koreya, Kitay, Kanada, SSHA, Meksika, Chili.

5. “Merkosur” - Braziliya, Argentina , Paragvay, Urugvay.

6. Janubiy Afrika Taraqqiyot qo`mitasi(SADK) - Angola, Botsvana, Lesoto, Malavi, Mozambik, Mavrikiy, Namibiya, YUAR, Svazilend, Tanzaniya, Zimbabve.

7. G`arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoki(YUEMOA)- Kot-d`Ivuar, Burkina-Faso, Nigeriya, Togo, Senegal, Benin, Mali.

8. Janubiy Osiyo hududiy hamkorlik assotsiatsiyasi(SAARK)- Indiya, Pakistan, SHri Lanka, Bangladesh, Maldiv orollari, Butan, Nepal.

9. And pakti- Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya.

Bunday bloklarning tuzilishiga siyosiy, iqtisodiy va tarixiy xarakterdagi obyektiv jaryonlar sabab buladi. Bir tomondan bunday jarayonlarning kuchayishi xalqaro savdoni kuchaytirsa(zona, blok, hudud mikiyosida), boshqa tarafdin- xar qanday yopiq tuzilma uchun xos bulgan ba`zi bir to`siqlar yaratadi. Yagona, global dunyo savdo bazori yo`lida savdo-iqtisodiy guruhlarining bir-birlari bilan aloqasida vujudga kelishi mumkin bo`lgan ko`plab to`siq va qarama-qarshiliklar mavjud.

Erkin savdo hududlarining tashkil etilishi dunyo xo`jaligiga prinsipial o`zgarishlarni kiritmaydi. Mamlakatlarning iqtisodiy bloklarga birlashishi erkin savdo fikrlarining tula g`alabasi yoki proteksionistik usullarga maglub bo`lishni bildirmaydi. “Erkin savdo” yoki proteksionizm birini tanlash zarurligi muammosi xali ham mavjud. U tashqi savdo aloqalarinnig boshqa bir darajasiga utayapti, bu

darajada bir guruh davlatlarning uchinchi davlatlarga qarshi kullaydigan iqtisodiy siyosatlar haqida suz ketadi. Hatto ma'lum bir savdo-iqtisodiy guruh ichida ham ziddiyatlar buladi, bu ziddiyatlar "Savdo urushlariga" aylanishlari mumkin (Masalan ES mamlakatlari orasida balik, uzum, moy "urushlari").

Savdo-iqtisodiy bloklarning a'zo mamlakatlari dunyo bozoridagi zamonaviy sharoitning kiyinligi va muammolarini tushungan xolda bu muammo va kiyinchiliklarni ijobiy xal qilish yullarini axtarmokdalar.

Umum jaxon savdo tashkiloti(VTO)ning bosh direktori R.Rudjero VTO ning a'zo mamlakatlarini kup tomonlama savdo tizimining taraqqiyotida hamkorlik qilishga chaqirdi. Bu uning fikricha hududiy tizimlarni yaratish bir xil axamiyatga ega. Taxminlarga ko'ra global erkin savdo zonasini yaratishga 2020- yilda erishiladi.

Xalqaro savdoni boshqarish, uning taraqqiyotiga bulgan to'siqlarni yuk qilish, uni erkinlashtishida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar muhim axamiyat kasb etadi. Bunday tashkilotlarning eng asosiylaridan biri bu-Tariflar va savdo bosh bitimidir (GATT) dir. GATT tuzilishi haqidagi kelishuv 1947- yilda 23 mamlakat tarafidan imzolandi va 1948-yilda kuchga kirdi. 1995- yil 31- dekabrda GATT uz faoliyatini tugatdi va uning urniga Umum jaxon savdo tashkiloti(VTO) barpo kilindi.

GATT bu kup tomonlama xalqaro kelishuv bulib, u a'zo mamlakatlarning o'zaro savdosiga aloqador kupgina prinsiplar, huquqiy normalar, savdoni olib borish va davlat boshqaruviga oid koidalarni uz ichiga oladi. GATT eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan biri bulib, uning faoliyat doirasi dunyo savdosining 94%ni kamrab oladi.

GATTning huquqiy mexanizmi bir kator qonun-koidalarga asoslangan:

- savdoda bir tarafning huquqi buzilishini oldini olish, quyidagilarni ta'minlash yuli bilan: bir tarafdan eksport, import, tranzit operatsiyalari va ular bilan boglik boj va tulovlar borasida eng kulay sharoit yaratish yuli bilan; ikkinchi tarafdan esa import va milliy mollar orasida ichki solik va tulovlar borasida, shuningdek ichki savdoni boshqaradigan koidalar borasida teng huquqlikni ta'minlaydigan milliy tartibni yaratishda;

- eng qulay sharoit, ya'ni kelishuvga kirishayotgan taraflar orasida ular tarafidan uchinchi davlatlarga berilayotgan(yoki berilajak) barcha imtiyoz va ustunliklardan foydalanish huquqini yaratish. Bu qoida tovarlarning olib kirilishi va olib chiqilishi, boj tulovlari, ishlab chikarish, dengizchilik, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqiy ahvoliga ta'alluqli;

- milily bozorni himoya qilishda ko'proq tarif qurollaridan foydalanish, import va boshqa notarif cheklashlardan voz kechish;

- ko'p tomonlama muzokaralar olib borish yuli bilan boj tariflarining jiddiy pasaytirilishi;

- rivojlanayotgan mamlakatlar bilan savdoda preferensialtizimni urnatish;

- savdo borasida paydo bulgan kelishmovchiliklarni muzokaralar yuli bilan xal qilish;

- bir-biriga savdo-siyosiy yon bosishda hamkorlik.

GATTning faoliyati raundlarga birlashgan kup tomonlama muzokaralar yuli bilan olib borilgan. GATTning faoliyat boshlaganidan beri 8 raund utkazilgan, ularning natijasida urtacha boj mikdori un baprobar kamaygan. 2-chi dunyo urushidan keyin ular 40%ni tashkil kilgan bulsa, 90-chi yillar o'rtasida ular taxminan 4%ni tashkil kilgan.

1996 yil o'rtasida GATTga 130 mamlakat a'zo bulgan. Yuqorida aytilganiday, 1996 yilning yanvaridan GATTning urnini Xalqaro savdo tashkiloti egalladi. Uni 81 mamlakat ta'sis etdi. VTO kurulishiga 7 yillik "urugvay raundi" muzokaralari sabab bulgan. VTOning bosh direktori R.Rodjersning fikricha urugvay raundi "oltin asrdagi"ga teng bulgan savdo mikdorining oshishiga olib keladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Gavan Xartiyasi nima va unda qanday raqobatchilik muammolari mavjud?
2. Xalqaro tashkilotlar ishtirokida raqobatchilik usullarining qoidalari nimalardan iborat?
3. GATT/VTO xalqaro tashkilotlari haqida gapirib bering.

4. Urugvay bitimidan keyingi davrda GATT/VTO tashkilotlarining faoliyati qanday amalga oshiriladi?

5. Xalqaro hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini qanday tasavvur qilasiz?

ASOSIY VA QO`SHIMCHA O`QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar

1. Recent Developments in Antitrust Theory and Evidence /edited by Jay Pil Choi. Massachusetts Institute of Technology. Press Cambridge, Massachusetts London, England.-2007
2. The internationalisation of antitrust policy. / Maher M. Dabbah. lecturer in competition law at queen mary, university of London and barrister of the middle temple. Cambridge University Press The Edinburgh Building, 2003-www.cambridge.org/9780521820790.
3. Natural monopoly regulation : principles and practice / Sanford V. Berg and John Tschirhart. — ISBN 10: 052133893X ISBN 13: 9780521338936 Publisher: Cambridge University Press, 1989-
4. Antitrust and Regulation. Dennis W. Carlton, Randal C. Picker. Chapter in NBER book Economic Regulation and Its Reform: What Have We Learned? (2014), Nancy L. Rose, editor (p. 25 - 61). Conference held September 9-10, 2005. Published in June 2014 by University of Chicago Press-<http://www.nber.org/chapters/c12565>.
5. Комментарий к Закону Республики Узбекистан «О конкуренции»/Авторский коллектив: А. А. Абдухакимов, У.Т. Турдиев, А. С. Усманов, Ф. К. Карабаев и др. — Ташкент: Baktaria press, 2014. — 336 с.
6. Ўзбекистон иқтисодиётининг рақобатбардошлигини ошириш муаммолари: назария ва амалиёт / Муаллифлар жамоаси: Р.О.Алимов, А.Ф.Расулев, А.М.Қодиров ва бошқ. /С.С.Ғуломов таҳрири остида. - Тошкент: Konsauditinform- Nashr, 2006. 440 б.
7. Пиндайк Р.,Рубинфельд Д. Микроиқтисод(инглизчадан қисқартириб таржима қилинган)-Т.: “Шарқ”, 2002-448б.
8. Раззоков А.А. ва бошқалар. Иқтисодий таълимотлар тарихи.Т. Молия. 2007.320 б.
9. Салимов Б.Т. ва б.Микроиқтисодиёт: дарслик-Т.: 2001.-320б.
10. Кейнс Ж.М. Общая теория занятости и процента и денег. / Пер с англ.: – М.: Экономика, 2010.

Qo`shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев, Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22 декабрь 2017 йил. <http://www.press-service.uz/uz/lists/category/5>.

2. Мирзиёев, Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. / Ш. М. Мирзиёев. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. -592 б. (.pdf 170Mb)/ электрон манба: <http://natlib.uz/uzb/Article/Index/51>.

3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь /Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.

5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари. /Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 14-сон, 213-м., 22-сон, 406-м., 35-сон, 914-м.

7. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси. Биринчи қисм. 21.12.1995. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087.

8. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси. Иккинчи қисм. 29.08.1996. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 27.07.2018 й., 03/18/488/1579.

9. Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 1996 йил 26 апрель, 221-І-сон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.01.2018 й., 03/18/456/0512.

10. Реклама тўғрисида. 1998 йил 25 декабрь, 723-І-сон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03/18/476/1087.

11. Биржалар ва биржа фаолияти тўғрисида. (янги таҳрири). ЎРҚ-375-сон 12.09.2014. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2018 й., 03/18/486/1559.

12. Рақобат тўғрисида. 2012 йил 6 январь, ЎРҚ-319-сон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2018 й., 03/18/486/1559.

13. Табиий монополиялар тўғрисида (янги таҳрири). 1999 йил 19 август, 815-I-сон. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 17-сон, 173-м.

14. Тадбиркорлик фаолияти соҳасидаги рухсат бериш тартиб-таомиллари тўғрисида. 2012 йил 20 декабрь, ЎРҚ–341-сон. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 16-сон, 265-м.

15. [2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили»да амалга оширишга оид давлат Дастури тўғрисида.. № ПФ-5308. 22.01.2018. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.01.2018 й., 06/18/5308/0610-сон; 25.05.2018 й., 06/18/5447/1269-сон\).](#)

16. Тадбиркорлик субъектларига давлат хизматларини кўрсатиш механизмларини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2017 йил 1 февраль, ПҚ-2750. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594.

17. Тадбиркорлик мақсадларида фойдаланиш учун давлат мулки объектларини сотишни жадаллаштириш ва унинг тартиб-таомилларини янада соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 2017 йил 17 январь, ПФ-4933-сон. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 27-сон, 608-м.

18. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594.

19. [2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили»да амалга оширишга оид давлат Дастури тўғрисида. ПФ-5308 22.01.2018. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.05.2018 й., 06/18/5447/1269.](#)

20. Тадбиркорларнинг ишлаб чиқариш майдонларидан фойдаланишларини янада рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. ПҚ-2796. 23.02.2017. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.02.2018 й., 06/18/3541/0788-сон, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594.

21. Ўзбекистон Республикаси хусусийлаштирилган корхоналарга кўмаклашиш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида. 2017 йил 18 апрель. ПҚ-2897. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 17-сон, 289-м.

22. Ўзбекистон Республикаси Хусусийлаштирилган корхоналарга кўмаклашиш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитасини ташкил этиш

тўғрисида. 2017 йил 18 апрель ПФ-5016-сон. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 16-сон, 266-м.

23. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида. 2017 йил 6 июль. ПФ-5111-сон. Ҳужжат матни [рус тилида](#) берилган. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 27-сон, 608-м.

24. Мулкдорлар томонидан фойдаланилмаётган ишлаб чиқариш майдонларидан оқилона, мақсадли ва самарали фойдаланиши юзасидан назоратни кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2018 йил 19 февраль, ПК-3541. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.02.2018 й., 06/18/3541/0788.

25. Устав фондида давлат улуши бўлган корхоналарнинг самарали бошқарилишини ва давлат мулкнинг зарур даражада ҳисобга олинишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида. ВМҚ-215, 2006 йил 16 октябрь. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.01.2018 й., 09/18/33/0597.

26. Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида. . ВМҚ-54, 1999 йил 5 февраль. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.05.2018 й., 09/18/384/1266.

27. Товарлар (ишлар, хизматлар)га тартибга солинадиган нархлар (тарифлар)ни декларация қилиш (тасдиқлаш) ва белгилаш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 2010 йил 28 октябрь, ВМҚ-239. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.03.2018 й., 09/18/197/0892-сон, 31.03.2018 й., 09/18/249/0998.

28. Товар ва молия бозорларида монополияга қарши ислоҳ этишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 2013 йил 20 август, ВМҚ-230. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.03.2018 й., 09/18/249/0998.

29. Монополияга қарши курашни ислоҳ этиш соҳасидаги рухсат бериш тартиб-таомилларидан ўтиш тартиби тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш ҳақида. 2013 йил 27 декабрь, ВМҚ-344. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.10.2017 й., 09/17/810/0095.

30. Ўзбекистон Республикаси хусусийлаштирилган корхоналарга кўмаклашиш ва рақобатни ривожлантириш давлат кўмитаси ҳузуридаги хусусийлаштирилган корхоналарга кўмаклашиш жамғармаси маблағларини шакллантириш, тақсимлаш ва улардан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида. 2017 йил 19 июн, ВМҚ-391. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 25-сон, 543-м.

31. Ўзбекистон Республикаси хусусийлаштирилган корхоналарга кўмаклашиш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида 2017 йил 23 июнь, ВМҚ-419. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 26-сон, 588-м.

32. Стратегик ва монопол маҳсулотлар, хом ашё ва материалларнинг биржа ва кимошди савдоларига қўйилишини назорат ва мониторинг қилиш тўғрисидаги низом. Ўзбекистон Республикаси монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитасининг 2010 йил 23 июндаги 4-сон қарорига илова. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 1008-м. АВ-2125, 26.07.2010.

33. Товар бозорларида монополияга қарши тартибга солишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 2018 йил 30 март, ВМҚ-249. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.03.2018 й., 09/18/249/0998.

34. Урмонов Н.Т., Мустафакулов Ш.И. Молиявий-иқтисодий таянч сўзларга қиёсий изохли луғат. Ўқув-амалий қўлланма. – Т.: ”Молия” нашриёти, 2016. - 264 б.

35. Friedrich A.Hayek. Individualism and Economic Order. The University of Chicago press. 1948. 272 pages. (ISBN-13: 978-1-61016-144-2).

36. Piketty Thomas. Paris School of Economics. Capital In The 21st Century. / Translated by Arthur Goldhammer. Cambridge, MA. 2014. Harvard University Press. 696 pp. ISBN 9780674430006.

37. Конкурентная политика в Республике Узбекистан. Доклад о развитии, состоянии, тенденциях и проблемах антимонопольной и конкурентной политики в Узбекистане в 2000-2007 гг. Ташкент, 2007 г.

38. Сравнительный анализ антимонопольного законодательства зарубежных стран и Республики Узбекистан/ Центр по совершенствованию антимонопольной политики. -Т, 2006. -67 с

39. Сравнительный анализ полномочий антимонопольных органов зарубежных стран по применению мер правового воздействия/ Центр по совершенствованию антимонопольной политике. -Т, 2006. -64 с.

40. Холжигитов Г. Антимонопольная политика в условиях глобального финансово-экономического кризиса //Бозор, пул ва кредит. - Т., 2010г. N 11

Internet saytlari

1. www.president.uz - [Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб сайти.](#)

2. www.press-service.uz. – [Ўзбекистон Республикаси Президентининг Матбуот хизматининг расмий веб сайти.](#)

3. www.gov.uz. - Ўзбекистон Республикаси Хукумат портали.
4. www.gkk.uz. - Ўзбекистон Республикаси Хусусийлаштирилган корхоналарга кўмаклашиш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси сайти.
5. www.lex.uz. - Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
6. www.minjust.uz. - Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги сайти.
7. www.mineconomy.uz - Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги сайти.
8. www.rcmineconomy.uz - Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги ҳузуридаги Товар бозорлари конъюнктурасини ўрганиш ҳамда инвестиция лойиҳалари ва дастурларини экспертизадан ўтказиш Республика маркази сайти.
9. www.uza.uz - Ўзбекистон Республикаси Миллий ахборот агентлиги сайти.
10. www.norma.uz - Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги Ахборот-қидирув тизими сайти.
11. www.strategy.gov.uz - 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси веб сайти.

F.A. DJALILOV, A.J. XO`JAMURODOV

XORIJIY MAMLAKATLARNING MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATI

O`quv qo`llanma

“IQTISODIYOT” – 2019.

Muharrir
Mirhidoyatova D.

Musahhah
Matxo`jayev A.O.

Litsenziya raqami: №10-4286 14.02.2019. Bosishga 09.09.2019 da ruxsat etildi.
Bichimi 60x84¹/₁₆. Ofset qog`ozi. Tayms garniturası. Shartli bosma tabog`i: 7,7.
Adadi 20 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«ZARAFSHON FOTO» XK matbaa bo`limida chop etildi, 100066.
Toshkent sh. Islom Karimov ko`chasi, 49-uy.